



Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

31 DEKABR  
**№35**

CONFERENCE.uz



**“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”  
3-ҚИСМ**

---

**«ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЧЕНЫХ И МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА»  
ЧАСТЬ-3**

---

**«INNOVATIVE SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH OF SCIENTISTS AND YOUTH OF  
UZBEKISTAN»  
PART-3**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” [Тошкент; 2021]**

**“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари”** мавзусидаги республика 35-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 79 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Узбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағищланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР**

<b>1. Ochilova Gulzoda Uktamovna</b>	
TARIX FANINI O'QITISHDA QO'SHIMCHA MANBALARDAN FOYDALANISH .....	8
<b>2. Abdullayeva Dilfuza Azadovna</b>	
TARIX DARSLARIDA O'QUVCHILARNING XOTIRASINI MUSTAHKAMLASH BO'YICHA TAVSIYALAR.....	10
<b>3. Abdullayeva Sayyora Nuriddinovna</b>	
TARIXIY MEROS VA MILLIY MADANIYATNI ASRASHNI O'QUVCHILAR ONGIGA SINGDIRISH.....	12
<b>4. Davletova Dilafruz Ulug'bekovna</b>	
XIVA QO'NG'IROTLARI SULOLASINING SIYOSIY TARIXI.....	14
<b>5. Ermetova Dilnoza</b>	
TARIX FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH .....	15
<b>6. Madraximova Guloyim Samandar qizi</b>	
ZARDUSHTIYLIK IJTIMOIY-TARIXIY ZAMININING FANDA YORITILISHI .....	17
<b>7. O'ranova Dilafruz Sa'dullayevna</b>	
SHARQ QO'LYOZMALARI VA ULARNING SVILIZATSIYA TARIXIDAGI O'RNI .....	19
<b>8. Raximova Gulmira Rustambekovna</b>	
QADIMGI ERON TARIXINI O'RGANISHDA MA'LUMOT BERUVCHI YOZMA MANBALAR.....	20
<b>9. Sultonova Kamola Ravshanbekovna</b>	
TARIX FANINING RIVOJLANISH BOSQICHALARINI TARIXIY ASARLAR ASOSIDA O'RGANISH.....	22
<b>10. Teshayeva Sobira Nasulloyevna</b>	
IKKINCHI JAHON URUSHI VA UNING YAKUNLARI.....	24
<b>11. Xaranova Nargiza Jo'rayevna</b>	
INTERNET VA UNING TARIXCHI UCHUN IMKONIYATLARI .....	26
<b>12. Xaydarova Dilfuza Jo'rabo耶evna</b>	
TARIX SOHASIGA OID ELEKTRON O'QUV NASHRLARI VA ULARDAN FOYDALANISH .....	28
<b>13. Алиева Ойгул Бахрамовна, Камалова Шахзода</b>	
ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ВЕЛИКОГО ШЁЛКОВОГО ПУТИ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ .....	30
<b>14. Құрбонова Садоқат Жұмабеевна</b>	
ХИВА ХОНИ МУХАММАД РАХИМХОН I ДАВРДАГИ ИСЛОХАТЛАР .....	32
<b>15. Matnazarova Shahnoza Bahodirovna, Xajiyeva Fazilat Farhodovna</b>	
TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH .....	34
<b>16. Musoyeva Xushvaqt Jo'raqulovna</b>	
OILADA FARZAND TARBIYASI .....	36
<b>17. Turg'unova Feruzaxon</b>	
TA'LIM TIZIMIDA TARIX FANINI O'QITISHNING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI .....	37
<b>18. Кронфельд Лидия Кенжавна</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТА ИСТОРИИ.....	38
<b>19. Atoyeva Sanobar G'ofurovna</b>	
TARIX DARSLARIDA NOANANAVIY TA'LIM TURLARI .....	40
<b>20. Botirova Nargiza Muxiddinovna</b>	
TARIX DARSLARI ORQALI O'QUVCHILAR ONGIDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA JALOLIDDIN MANGUBERDI SIYMOSINING O'RNI .....	43

# МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

---

<b>21. Islomova Dilobar</b>	
О'QUVCHILARDA TARIX FANIDAN ANIQLANGAN BO'SHLIQLARNI TO'LDIRISH .....	45
<b>22. Jumayeva Gulchiroy</b>	
"SIRLI SO'Z" - MIRZO BOBUR HAQIDA.....	48
<b>23. Narzullayeva Asila Isoqovna</b>	
TARIX FANIDAN MURAKKAB MAVZULARNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN METODLAR .....	51
<b>24. Rahmonova San'atoy Abdusalomovna</b>	
5-SINFLARDA "AVESTO" MAVZUSINI O'RGATISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR .....	54
<b>25. Raximova Madinabonu Ravilovna</b>	
TARIX TA'LIMIDA INTEGRATSION YONDASHISH .....	56
<b>26. Raxmonova Ozoda Hojiqurbanovna</b>	
O'QUVCHILARDA TARIXIY BILIMLARNI TIZIMLI O'RGANISHGA O'RGATISH.....	58
<b>27. Samandarova Dilobar Saidovna</b>	
TARIX FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI .....	60
<b>28. Sapayev Xo'sinboy</b>	
KARVON YO'LLARIDA JOYLASHGAN SARDOBALAR TARIXI .....	61
<b>29. Tursunboyeva Gulnoza Faxriddinovna</b>	
TARIX DARSLARIDA INTERAKTIV TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH.....	63
<b>30. Xoliqova Muattar Abdug`afur qizi</b>	
TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI MAVZUSINI O'RGANISH YUZASIDAN USLUBIY TAVSIYALAR .....	65
<b>31. Yo'ldosheva Mardona</b>	
O'RTA OSIYODA TABIIY-IQTISODIY HUDUDLARNING VUJUDGA KELISHI VA UNUNG GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI .....	67
<b>32. Yusupov Nurbek</b>	
AMIR TEMURNING MA'NAVIY MEROSI.....	69
<b>33. Yusupova Shoira Latipovna, Norboyeva Dilnoza Hamdamovna</b>	
TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUV.....	71
<b>34. Комилжон Аминов, Эгамова Гулчехра</b>	
ХОРАЗМ МАҚОМЧИЛИК САНЬЯТИ ТАРИХИ .....	73
<b>35. Қаландарова Зухра</b>	
МАҲМУД АЗ-ЗАМАҲШАРИЙ ЕТУК ОЛИМ .....	75
<b>36. Олимова Нилуфар Касымовна</b>	
НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДОВ В ТУРКЕСТАНЕ .....	77



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

### TARIX FANINI O'QITISHDA QO'SHIMCHA MANBALARDAN FOYDALANISH

**Ochilova Gulzoda Uktamovna,**  
Navoiy viloyati, Navbahor tumani  
13-maktab tarix fani o'qituvchisi  
Telefon:+998 934327075

**Annotatsiya:** Maqolada tarix darslarida ta'lif samaradorligini oshirishda qo'shimcha materiallar hamda ilmiy va badiiy adabiyotlardan foydalanish yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Darslik matni, tarixiy hujjatlar, asarlar,

Ma'lumki, o'quvchilar mifikta tarix fani orqali eng qadimgi zamonlardan tortib to hozirgi kunlarga bo'lgan jamiyat taraqqiyoti haqidagi ma'lumotlarni o'rganadilar. Tarix fanini o'qitishda o'quvchilarning ko'z o'ngida o'tmishdagи ijtimoiy hayot manzaralarini shakllantirishda darslikdan tashqari qo'shimcha materiallar va yorqin obrazli vositalardan foydalanishning ahamiyati kattadir. O'quvchilarning tarixga qiziqishining orttirishda o'qituvchi bayon qilayotgan materialni tarixiy hujjatlardan, ko'rgazmali vositalardan, ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlardan olingan yorqin tafsilotlarga hamda o'quvchilardagi mayjud tasavvurlarga tayanishi lozim.

Tarixni o'qitishda darslik matni, tarixiy hujjatlar, asarlar, ilmiy-ommabop va badiiy, tarixiy adabiyotlar va boshqa materiallar qo'llaniladi. O'qituvchi shu manbalardan to'g'ri va unumli foydalansagina, uning bayoni tarix ta'limining yuksak talablariga javob bera oladi. Jumladan, o'qituvchi ilmiy manba va badiiy adabiyotni tanlashda materialning ta'lif-tarbiyaviy jihatini, tarixiy hodisalarining naqadar haqqoniy real va ilmiy qilib yoritilganligini e'tiborga olishi zarur.

Chunonchi, 5-sinf o'quvchilari uchun “To'maris va Shiroq jasorati” mavzusini o'rganishda Mirkarim Osimning “To'maris” va “Shiroq” qissalarini o'qish tavsiya etiladi. Ushbu asarlarda o'sha davrga oid tarixiy manzara va jarayonlar tarixiy va badiiy obrazlar orqali jonli ochib berilgan. Yuqorida nomlari keltirilgan bu asarlarni o'rganish o'quvchi uchun 6-sinfda “Ahamoniylarning O'rta Osiyoga bosqini” mavzusini o'rganishida ham tavsiya etilish mumkin.

7-sinfda “Ozbekiston tarixi” dan “Movarounnahrda arab xalifaligining o'rnatilishi”, “Somoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot” va “Xorazm davlati va uning yuksalishi” mavzularini o'rganishda Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari hamda kitobda keltirilgan ma'lumotlar haqida o'quvchilarga tushuncha berish mumkin. Kitobda O'rta Osiyoda arab xalifaligi hukmronligining o'rnatilishi, islom dinining yoyilishi va Buxoroning arablar tomonidan taqsimlab olinishi hamda xalifalikka qarshi kurashlar, ayniqsa, Muqanna, Abu Muslim va boshqa boshchiligidagi xalq qo'zg'olonlari, Somoniylar davridagi davlat boshqaruv tizimi, pul munosabatlari, soliq tizimi, Buxoroning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga oid ma'lumotlar aks ettiriladi, uxorda sug'orish tarmoqlari, shaharsozlik, obodonchilik to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Asarning maxsus bir bobu Buxoro atrofidagi Karmana, Nur, Tavois, Iskajkat, Sharg', Zandana, Vardona, Afshona, Barkat, Romitan, Varaxsha, Baykand (Poykend), Forob va boshqa shahar va qishloqlarning tasviri, bu joylarning tarixi, aholisi va ularning mashg'uloti, faoliyatni hamda tashqi shaharlar bilan munosabatlari hikoya qilinadi.

VII sinfda ”Mo'g'ul bosqinchilarning tajovuzi va O'rta Osie xalqlarining ularga qarshi kurashi” mavzusini o'rganishda darsning ta'lifi, tarbiyaviy vazifalarini uyg'unlashtirib borishning muhim vositasi bo'lgan o'qituvchi bayonining ishonarli va ehtirosli bo'lishini ta'minlashda badiiy adabiyotdan olingan faktlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mo'g'ullar istilosini O'rta Osijo xalqlari boshiga beqiyos kulfatlar solganligini, boy shaharlarni, sug'orish inshootlarini buzib, bog'-rog'larni, ekinzorlarni, madaniyatni oyoq osti qilganligini,



mo'g'ullarning zabt etilgan mahalliy xalqlardan juda og'ir soliqlar olib turganligini o'quvchilarga shunchaki so'zlab berish bilangina mavzuning talim-tarbiyaviy vazifalarini amalga oshirib bo'lmaydi. O'quvchilarga mo'g'ullar istilosining vahshiyona xarakterini o'quvchilar ko'z o'ngida gavdalantirshda, ularning his-tuyg'ulariga ta'sir etishda, bosqinchilarga qarshi nafratni oshirishda tarixiy-badiiy adabiyotdan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Bu asarlardagi yorqin obrazlar, maroqli voqeа o'qituvchi bayonining ishonchli bo'lishini taminlaydi, o'quvchilarning kafiyiyatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Mo'g'ullarning vahshiyona istilosi tarixi Mirkarim Osimning "O'tror" qissasi bilan V.G. Yanning "Chingizxon" romanida keng va ishonchli qilib bayon etilgan. O'qituvchi Chingizxon boshliq mo'g'ullrning O'rta Osiyoga yurishi, bu urushning bosqinchilik xarakteri haqida gapirib, o'quvchilar diqqatini "O'tror" qisssidan olingen parchaga qaratadi. O'qituvchi bayoniga kiritilgan bu parcha o'quvchilarlarning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi, ularda bosqinchilarga qarshi nafrat uyg'otadi. Qissadagi Temirtoshning bog'idagi mo'g'ullarining qilmishlari, mudhish voqeа-70 yashar gunohsiz kampirning vahshiyona o'ldirilishi bosqinchilarning yirqichligi haddan oshib ketganligini ko'rsatadi. Mo'g'ul istilolaridan cheksiz azob chekkan O'rta Osiyo xalqlarining butun vujudi bosqinchilarga qarshi qahr-g'azab va nafrat bilan to'lib-toshgan edi. Bosqinchilar tomonidan vahshiyarcha o'ldirilgan mushtipar ona-kampirdagi qahr-g'azab esa uning bir uchqini edi. O'rta Osiyo xalqlarining mo'g'ul bosqinchilarigan qarshi g'azabi o'quvchilarga shu tarzda ko'rsatib beriladi. Bu esa o'quvchida ona yurtga, uning himoyachilariga mehr-muhabbatni oshiradi, vatanini dushmanidan himoya qilish hissi paydo bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'qitish jarayonida badiiy manbalardan foydalanish o'quvchilarning tarixiy ma'lumotlarni bilishga qiziqishini oshiradi.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. "Ma'naviyat ildizlari"(Abdulla Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999-yil) kitobi.
2. Abduraxmanova J. N. (2019). Tarix fanini o'qitish usullari va ularning samaradorligi // Ta'lim, fan va innovatsiya. T.: 1(4).
3. Sadiyev A. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish.T., 1993.
4. Tarix fani o'quv dasturi (5-9-sinf). Toshkent-2017.
5. Ziyonet.uz.



## TARIX DARSLARIDA O'QUVCHILARNING XOTIRASINI MUSTAHKAMLASH BO'YICHA TAVSIYALAR

**Abdullayeva Dilfuza Azadovna**

Xorazm viloyati Bog'ot tumani

39-son umumta'l'm maktabi tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix darslarida o'quvchilarning yangi materialni o'zlashtirish va ularning xotirasini mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** tarix, dars, material, o'quvchi, xotira, takrorlash, mustahkamlash.

Darsda yangi o'quv materialini chuqurroq o'zlashtishning muhim sharti va vositali – o'rganiladigan faktlar va umumiylar xulosalarni muntazam ravishda xotirada mustahkamlab borishdir. O'quvchilarning har qaysi darsda o'rganiladigan materialni o'sha darsning o'zida ikkinchi marta idrok qilib va tushunib olishlari materialni xotirada mustahkamlash deb ataladi.

Tarix darslarida yangi materialni xotirada mustahkamlashning asosiy maqsadi – o'rganiladigan dalillarni, sanalarni, tarixiy arboblarning ismini, geografik nomlarni, tarixiy tushunchalarni o'quvchilarning puxta va ongli ravishda bilib olishlariga yordam berish, shularni o'zlashtirishda kamchiliklar bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, yangi o'rganiladigan materialni ilgari o'zlashtirilgan material bilan yaxshiroq bog'lash, darsda o'rganiladigan materialni o'quvchilar qay darajada o'zlashtirayotganini tekshirish va shu bilan ularning darsda diqqat – e'tiborlarini kuchaytirishga yordam berishdir.

Psixologiya fanida ta'kidlanishicha, o'rganiladigan dalil va hodisalar shu darsning o'zida o'quvchilarga yana bir marta eslatilmasa, ayniqsa tez unutiladi. Binobarin, yangi materialni o'rganish jarayonidayoq bilimlarning o'quvchi xotirasida yaxshi saqlanib qolishiga yordam beradigan sharoitlar yaratish, yangi bilimlarni eski bilimlar bilan, ma'lum bo'Imagan narsalarni ma'lum bo'lgan narsalar bilan bir – biriga bog'lab, o'quvchilar xotirasida endigina paydo bo'layotgan va hozircha hali zaif holda bo'lgan bu bog'lanishlarni mustahkamlash, keyin esa qo'shimcha usullar yordamida ularni o'quvchilarning yanada chuqurroq esda olib qolishlarini ta'minlash uchun o'quvchilardagi mavjud bilimlarni ishga solish zarur. Xotirada mustahkamlash ishga yangi materialni o'rganish bilan chambarchas bog'langan bo'lib, yangi materialni o'rganish jarayonida, shuningdek, dars oxirida tashkiliy suratda o'tkaziladi. VI – VII sinflarda esa bu ishni, odatda, dars davomida ham, dars oxirida ham olib borish kerak.

Tarixiy materialni xotirada mustahkamlash usullari quyidagicha: Masalan, VI – VII sinflarda hozirgina o'rganilgan materialning mazmuni yuzasidan dars oxirida suhbat olib borish usuli keng tarqalgan. Lekin bu suhbatda mazkur yangi materialning hammasini gapirib o'tish noto'g'ri bo'ladi. Eng murakkab va muhim masalalarni tanlab olib, o'shalar haqida so'z yuritish zarur. Xotirada mustahkamlanadigan masalalar, avvalo, o'rganilayotgan materialning mazmuniga qarab tanlanadi. Agar o'qituvchi bayon qilgan material siyosiy tarixga doir voqealarning tasviriy hikoyasi xarakterida bo'lsa, uni xotirada mustahkamlash vaqtida, ba'zan hikoya mazmunining eng muhim qismi rejasini tuzish, ba'zan esa voqealarning (masalan, qo'zg'olonlar va urushlarning) sabalari, o'qibatlari va ahamiyatini faqat tahlil qilib chiqish kifoya qiladi. Agar yangi materialda jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotidagi murakkab jaaryonlar bayon etilgan bo'lsa, uni xotirada mustahkamlash vaqtida tarixiy jarayonning hamma asosiy tarkibiy qismlarini va ular o'rtaсидаги sabab – natijali bog'lanishlarni o'quvchilarga birma – bir eslatish kerak.

Butun mavzuning materialini takrorlash va xotirada mustahkamlash vaqtida o'quvchilarga o'rganilgan hodisa qanday sodir bo'lganini va uning rivojlanishidagi ma'lum bosqichlarni esga olishni yoki bir turli dalillar o'rtaсидаги o'xshashlik va farqlarni ko'rsatib berishni, o'rganilayotgan voqealarning boshqa mamlakatlar va xalqlar tarixidan ma'lum bo'lgan voqealar bilan sinxronligini aniqlashni taklif qilish mumkin. Lekin o'quvchilardan samarali fikrashni talab etuvchi bunday savollarni o'rtaға qo'yish dalillarni takror aytib berishni talab etadigan savollar berishni mustasno qilmaydi, chunki bunday savollar o'sha dalillarni va ular o'rtaқиғада muhim bog'lanish va munosabatlarni bolalarning esida yaxshi qoldirishga, ularning o'zlashtirishini tekshirib ko'rishga yordam beradi.

Maktabda "Jahon tarixi" va "O'zbekiston tarixi" ni o'qitish milliy ong va tafakkurni o'stirishda, ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetishtirishda katta



ahamiyatga egadir. “Jahon tarixi” fanini o’qitishda uning davrlarini O’zbekistonning davrlari bilan birga taqqoslagan holda bog’lab yoritish hamda Jahon tarixida O’zbekiston tarixinining tutgan o’rni aniq va ravshan ifoda etilishiga erishmoq zarur.

Tarixiy voqealarni bosqichma – bosqich, ya’ni izchillikka riosa qilgan holda ochish, xususan, davr va zamon ruhini berish hamda Yangi O’zbekistonning istiqboldagi taraqqiyotini ko’zda tutgan holda bayon etilishiga erishmoq kerak. “Jahon tarixi” fanini insonparvarlashtirish masalasiga jiddiy e’tibor berish, ya’ni tarix faqat qarama – qarshi sinflar kurashidangina iborat deb insoniyatni ikkiga bo’lib, bir – biriga qarshi qo’ymasdan, balki ularni umuminsoniy qadriyatlar asosida o’zaro totuvlikka, bir – birlariga yordam berishga, tinch va osoyishta yashash taraqqiyotning garovi ekanligiga ishontirish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining tarix fani darsliklari.
2. N.Sayidahmedov Yangi pedagogik texnologiyalar
3. M.Ochilov Yangi pedagogik texnologiyalar. Ma’ruzalar matni.
4. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)



## TARIXIY MEROS VA MILLIY MADANIYATNI ASRASHNI O'QUVCHILAR ONGIGA SINGDIRISH

**Abdullayeva Sayyora Nuriddinovna**

Xorazm viloyati Urganch shahar

6 umumta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadimgi davrdan sivilizatsiyagacha bo'lgan davr xalqimizning boy tarixidan dalolat beruvchi me'moriy yodgorliklar, san'at asarlari, diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish, ta'mirlash va qayta tiklash, ularni kelajak avlodlarga asl holicha yetkazish borasidagi tarixiy tadqiqotlarni tahlil qiladi.

**Kalit so'zlar:** Metodologiya, tarixiy bilim, madaniy meros, milliy madaniyat, urf-odat, an'analar, oltin beshik.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy sohada islohatlarning amalga oshirilishi kelajagi buyuk davlatimizning yoshlarini har tomonlama yetuk, jismonan baquvvat, raqobatbardosh, intellektual salohiyatlari bo'lgan barkamol avlod tarbiyasi oldiga muhim vazifalarni qo'yemoqda. Bu, avvalo, kelajak avlodni ma'naviy - ahloqiy jihatdan har tomonlama tarbiyalashni, ularda bilim, keng dunyoqarash va e'tiqodga ega bo'lishni talab etadi. Chunki mamlakatimiz kelajagi va istiqboli ana shu avlod tarbiyasiga har tomonlama bog'liq.

Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma'naviy-axloqiy tarbiya ham muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish o'quvchida ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingen va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz hududi qadimiy obida va madaniy yodgorliklarga boy. Ular xalqimiz o'tmishini o'zida mujassam etgan milliy qadriyat sifatida bebaho mulk hisoblanadi. Yillar o'tkinchi, hayot abadiy. Inson yo'lovchi, insoniyat, millat boqiydir. Milliy an'analar xalq o'tmishi, buguni, kelajagini mustahkam bog'lab turuvchi ezgu qadriyatlardir. Hayotimizning qaysi sohasini olmang, milliyligimiz ko'rinish turadi ya'ni milliy me'morchilik, milliy adabiyot, milliy turmush tarzi, milliy musiqa, milliy liboslar, milliy taomlar, milliy hunarmandchilik, milliy munosabatlar, milliy mehmondo'stlik, milliy ism va tarbiya, milliy odob, milliy kurash, bularni sanab tugatish qiyin.

Mustaqillik xalqimizning asriy urf-odatlari, an'analariga erkinlik beribgina qolmay, ko'plarini tikladi. Tarixiy merosimiz bo'lgan qadamjolar, dorbozlar san'ati, muzeylari, navruz bayramlari kabilarni asrash, bu milliy madaniyatimizni asrash, yosh avlodlar ongiga singdirish oila, mahalla orqali bajarilishi kerak.

Ko'hna va betakror obidalar asrlar davomida jahon ahlini lol etib kelmoqda. Ayni paytda insoniyat tamaddunining ajralmas qismi sifatida ulkan tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega. Shu bois mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniy meros obyektlarini muhofaza qilishning mustahkam huquqiy asoslari yaratilib, ularni kelajak avlodlarga bezavol yetkazish, xalqimizning insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissasini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi, «Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 29-iyuldagagi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bu borada muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xalqimizning boy tarixidan dalolat beruvchi ushbu arxeologik va me'moriy yodgorliklar, san'at asarlari, diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish, ta'mirlash va qayta tiklash, ularni kelajak avlodlarga asl holicha yetkazish borasida Milliy davlatchiligidimiz tarixini o'zida aks ettiruvchi arxeologik yodgorliklarni, tarixiy va madaniy obidalarni asrab-avaylash, o'rganish va tadqiq etish yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarimizga hurmat tuyg'ularini



yuksaltirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Milliy urf-odat an'analarimizni o‘ziga xos fazilati juda ko‘p. Oxirgi paytda mahallalarda Ramazon va Qurban hayitlari kunlarida elga osh berib, muxtoj oilalarga muruvvat ko‘rsatish, haj safariga otlanganlarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash qayta tiklangan qutlug‘ an'analarimizdandir. Madaniyat va madaniy ma’rifiy ishlar mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirishda kata ahamiyatga ega. Bunga kutubxona, teatr, klublar, madaniyat uylari va saroylar, istirohat bog‘lari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan keng foydalanish kishilar dunyoqarashini yuksaltiradigan madaniy tadbirlar ishlab chiqish, amalga oshirish lozim. Zamonlardan zamonlarga, ajdoddalardan avlodlarga moddiy, madaniy, ma’rifiy, ruhiy boyliklar, ajoyib an'analar meros bo‘lib o‘tadi. Ma’lumki o‘zbek xalqi jahon xalqlari, jumladan turkiy xalqlar orasida qadimi, madaniy xalqlardandir. Kishilarni tarixan shakllangan, oiladan keyingi birligi bu mahalladir. Mahalla degani qadimi va an'anaviy urf-odatlarimiz, to‘y-maraka, turli marosimlarimizning oltin beshigi, rivojlanish joyi deganidir. Mahallamiz barqaror ekan milliy urf-odatlarimiz yashaydi. Xalqimiz o‘zbek xalqi sifatida saqlanib qoladi. Tarixiy merosimiz qay turda bo‘lishdan qattiy nazar uni asrab avaylashni bugundan boshlashimiz har birimizning burchimizdir.

**Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. I. Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” Toshkent.:” 1998, B-27
2. I. Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. Toshkent.:” O‘zbekiston” 1998, B-40
3. R. Rajabov “Tarix fanining metodologik asoslari”Toshkent.:”Istiqlol” 2013, B-50
4. Dehqonov A.Revolyutsiyadan oldingi O’zbekistonda sanoat ishlab chiqarish tarixidan //O’zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1978, 10 son



## XIVA QO'NG'IROTLARI SULOLASINING SIYOSIY TARIXI

Davletova Dilafruz Ulugbekovna  
Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi  
19-maktab tarix fani o'qituvchisi  
Tel:+998996822880

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIX-asrda Xiva xonligi taxtini boshqargan Qo'ng'rotlar sulolasi vakillari haqida so'z boradi.

**Kalitso'zlar:** Inoqlar, Qo'ng'irotlar sulolasi, sohtaxon, harbiy islohot, Jalqonqal'a

1763 yildan boshlab Xivada amalda qo'ng'irot urug'i inoqlari hokimiyat tepasiga kelgan bo'lsa-da, 1804 yilgacha Xiva xonlari hukmdor sifatida boshqa shahsni xon qilib e'lon qilganlar. Qo'ng'irotlar sulolasi hukmdorlaridan Muhammad Amin inoq (1763-1790yy.) Xivada hokimiyatni qo'lga olgach saroydagi bir qancha lavozim va amallarga o'ziga sodiq va ishonchli odamlarni tayinladi. Yangi xon shu yo'l bilan xonlikdagi muhim siyosiy-ma'muriy, moliyaviy va harbiy hokimiyatni o'z qo'liga olib, ayrim mustaqil beklarni o'ziga itoat ettirdi.

Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, shaharlik savdogarlar, hunarmandlar va din peshvolari yordamida o'z hokimiyatini ancha mustahkamlagan Muhammad Amin inoq 1770 yilda turkmanlar hujumini, 1782 yilda Buxoroliklar tajovuzini muvaffaqiyatlari qaytardi. Uning hukumronligi davrida Xiva xonligida dehqonchilik, savdo – sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida ma'lum chora – tadbirlar amalga oshirildi. Mahalliy hukmdorlarning o'zaro nizomlari va kurashlariga chek qo'yilishi natijasida xonlikdagi iqtisodiy hayot yaxshilanib bordi.

Muhammad Aminning o'g'li Avaz inoq (1790-1804 yy.) otasining ishlarini davom ettirgan bo'lsa, Avazning o'g'li Elto'zar inoq 1804 yilda Xiva taxtiga o'tirib, sohta xon Abdulg'ozi V ni haydar yubordi va o'zini rasmiy xon (1804-1806 yy.) deb e'lon qildi. Shu tariqa Xivada qo'ng'irotlar sulolasi hukumronligi rasmiy qaror topdi. Eltuzarxon xonlikdagi mustaqil hokimlarni birlashtirish siyosatini davom ettirdi. Ammo, uning hukumronligi uzoq davom etmadidi. 1806 yilda Eltuzarxon buxoroliklar bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi. Taxtga uning ukasi Muhammad Rahimxon I o'tirdi.

Muhammad Rahimxon I markazlashtirish siyosatiga katta e'tibor berib, Xiva xonligini birlashtirishni nihoyasiga yetkazdi. Xiva tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra, Muhammad Rahimxon I xonlikdagi vaziyatni to'g'ri tushunib, shunga yarasha davlat siyosati ishlab chiqdi va ushbu siyosatni qat'iyatlik bilan amalga oshirdi. Xususan, uning bevosita tashabbusi bilan xonlikda ma'muriy – siyosiy, iqtisodiy va harbiy islohotlar o'tkazildi.

Xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash (Devon) ta'sis etildi. Ruhoniylarga ham alohida e'tibor berilib, Shayxulislom Kengashning a'zosi va xonning eng yaqin masahatchisiga aylandi. Muhammad Rahimxon I ning musulmon ruhoniylarining halq orasidagi mavqeini hisobga olib sayidlardan bo'lgan Sayid Pirmuhammad Xo'janing qiziga uylangani ham ma'lum.

Bu xon davrida mamlakatning iqtisodiy hayoti jonlanganligi haqida ham ma'lumotlar talaygina. Uning davrida mahsus islohotlar o'tkazilib, soliqlar tarkibiga solindi. Bojxona tashkil etilib, ichki va tashqi savdodan keladigan daromadlar ko'payib bordi.

Muhammad Rahimxon I mamlakat sarhadlarini kengaytirish hamda bo'ysunmas qabilalarni itoat ettirish maqsadida qator harbiy harakatlar olib bordi. Shundan so'ng xonlik hududlarini Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlari hisobiga kengaytirish harakati boshlandi. Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlariga harbiy yurishlar Muhammadrahimxonidan keyin taxtga o'tirgan o'g'li Olloqulixon va nabirasi Rahimqulixon davrida ham davom etdi. Olloqulixon Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlarida o'z hukmronligini mustahkamlash uchun ular ustiga besh marotaba yurish qildi. 1826 yilda Xiva qo'shnulari Shimoliy Xurosondagi Oqdarband qal'asini zabit etdilar. 1828-1829 yillarda bu hududdagi Jalqon qal'asi egallandi. Olloqulixon zamonida Buxoro va Xiva o'rtaida Marv viloyati uchun to'qnashuvlar bo'lib turdi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

- Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixi: T., 2000.



## TARIX FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

**Ermetova Dilnoza**

Xorazm viloyati Qo’shkopir tumani  
5-IDUMni tarix fani o‘qituvchisi

**Annatosiya:** Maqlada o‘quvchilarni axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish usullari ko’rsatilgan.

**Kalit so’zlar:** kompetensiya, Kompetentlik, axborot, internet, tarix, zamonaviy ta’lim.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida ro‘y berayotgan tub yangilanishlar har bir ta’lim muassasasida o‘quv jarayonini metodik ta’minotini rivojlantirishni talab etadi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari yaqin yillar ichida pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbai bo‘lib qoladi. Ta’lim oluvchilar uchun mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini, ta’limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish ta’lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri sanaladi.

Zamonaviy ta’lim tizimining asosini yuqori sifatlari va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta’lim tizimini takomillashtirishga, ta’limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. Nima uchun bugungi kunda ta’limda axborot texnologiyalarini joriy etishning nazariy asosini yaratish va amaliyatga tatbiq etish zaruriyati paydo bo‘ldi? Birinchidan, o‘qituvchini o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki bilimlarni egallash manbalaridan biriga aylanib qolayotganligini ta’kidlash mumkin.

Ikkinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ortib borayotganligi va ulardan o‘qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek talabalarni kasbiy faoliyatga mukammal tayyorlash talablari ta’lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda.

Ta’lim muassasasida umumta’lim fanlari bo‘yicha o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari bilan birgalikda, o‘z fikrini boshqalarga tushuntira olish, boshqalarni tinglab ularni tushuna olish, bahsga kirishish, kundalik hayotda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o‘quvchi ushbu axborotlarni izlab topishi, tahvil qilish, bilim, ko‘nikma va malakalardan kundalik hayotlarida uchraydigan muammolarni hal etishda foydalana olishlarini shakllantirish zarur.

Kompetentlik yondashuv - ta’limda kompetensiyaviy yondashuv deyilganda, o‘quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo’llashga o‘rgatish tushuniladi. Kompetensiya – (lot. –erishyapman, munosibman, loyiqman)- Yuqoridagi ta’rifdan kelib chiqib, kompetensiya – bu o‘quvchi fan bo‘yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalana olishlarini shakllantirish zarur.

Hozirgi davr axborot davri bo‘lganligi bois, o‘quvchilarning axborotlar oqimi va ushbu axborotlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish zarurdir.

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishda axborot bilan ishlash kompetensiyasi alohida o‘rin tutadi.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-Mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

-media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta’minlash va foydalanishda mediadamaniyatga rioya qilish;

-ma’lumotlar bazasini yarata olish, asosiyalarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;

-kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to‘ldirish, mehmonxona ro‘yxatida o‘zi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayd eta olishi va boshq.)

XXI asr axborot texnologiyalar asri sifatida yildan-yilga bu asrga bejiz shunday nom berilmaganligini namoyon etmoqda. Bunday o‘zgarishlar ta’lim jarayonlarini tashkillashtirish va olib borishda ham o‘z ta’sirini ko’rsatmoqda. **Tarix** fanini o‘rganishda o‘quvchilar tomonidan mavjud axborot manbalaridan, ayniqsa, internet manbalaridan foydalanishda ishonchli, to‘g‘ri va



qonuniy ma'lumotlarni olish bilimini rivojlantirish zarurdir. O'quvchilar jamiyatda shaxs sifatida kamol topish jarayonida televizor, radio ma'lumotlarini olish orqali dunyoqarashlari boyib boradi. Bunda ularni axborot olishda foydasiz, vaqtalarini behudaga sarflaydigan manbalarga e'tiborlarini qaratmasliklari, o'z oldilariga aniq va to'g'ri maqsad qo'yishlari uchun yo'naltirish muhimdir.

O'quvchilar media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilishlari, qonun doirasida harakat qilishlari, ularda axborot havfsizligini bilimlarini singdirish orqali, o'quvchilarni ma'naviyatimiz va buyuk maqsadlarimizga salbiy ta'sir ko'rsatadigan har qanday yot va vayronkor g'oyalari johil qarashlar sindirilgan ma'lumotlardan himoyalananish ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratmog'imiz kerak.

Tarix fanini o'rganayotgan har bir o'quvchida murojaat qilish madaniyati shakllangan bo'lishi kerak. Kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish, tarixiy sanalarni qidirish (masalan, lex.uz qonunlar bazasidan) bo'yicha yetarli bilim va kerak bo'lsa immunitetni shakllantirish va rivojlantirish o'qituvchilar hamda ota-onalarning hamkorlikdagi mas'uliyatli vazifalaridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ishmuhammmmedov R. Ta'limda innovasiya. – Toshkent: «Fan», 2010.
2. Ishmuhammmmedov R. Tarbiyada innovasion texnologiyalar – Toshkent: «Fan», 2010.



## ZARDUSHTIYLIK IJTIMOIY-TARIXIY ZAMININING FANDA YORITILISHI

**Madraximova Guloyim Samandar qizi**

Tuproqqa'l'a tuman 1-IDUM tarix fani o'qituvchisi

+998975117505

matyakubovelyorbek@gmail.com

**Annotatsiya:** Zardushtiylik dini vujudga kelgan zamin din tarixi o'rganilgan davrdan mana shu kungacha bahsliligicha qolmoqda. Maqolada ayni shu masalaga ilmiy yechim topishga harakat qilindi. bir qancha asarlar, ilmiy ish va maqolalar qiyosiy tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** Zardushtiylik, “Avesto”, ijtimoiy-tarixiy zamin, muammoviy yondashuv, Xorazm, Baqtriya, Meri Boys, Mirsodiq Is'hoqov

Zardushtiylik dini vujudga kelgan zamin qayer ekanligi hanuz bahsli va hali hamon har xil to'xtamlar keltiriladi. Shunga asoslanib harakat va faoliyat yo'nalishimni ularning berayotgan xulosalariga qarab belgilab olishni to'g'ri deb hisobladim.

Avvalambor, fanda ko'p olimlarimiz bu masalaga turlicha yondashib turlicha isbotlar keltiradilar.

Bunda 1-yo'nalish qilib hozirda eng ustun kelayotgan (ammo, uzil kesil to'xtamga kelinmagan) zamin bu Xorazmligini hisobga olgan holda (Xorazmlik ekanligim uchun emas!) fanda bu borada Zardushtiylik ijtimoiy—tarixiy zamini Xorazm deb berilayotgan yo'nalishni belgilab oldim.

2-yo'nalish bu—Eroniy xalqlar tomonidan talab qilinib, ilgari surilayotgan mazkur dinning ijtimoiy-tarixiy zamini hozirgi Eron hududlari deb xulosa berayotgan yo'nalishni belgilab oldim.

3-yo'nalish bu—zardushtiylik dinining paydo bo'lgan zamini Parfiya, Baqtriya, Turonzamin deb beruvchi yo'nalish bo'ladi.

Ma'lumotlarni o'rganishni esa, avvolo, **“Avesto” bo'yicha xulosalar**, keyin **археологик xulosalar, о'zbek о'лимлари xulosalari va g'arb olimlari xulosalari** yo'nalishlariga bo'lgan holda o'rganishni boshlashni belgilab oldim.

Bu mavzuning o'rganilishi yuqorida ta'kidlaganimdek hali hamon bahsli. Zardushtiylik dini paydo bo'lgan zamin haqidagi bahs uzoq asrlardan buyon davom etib kelmoqda. G'arb olimlaridan A.Meye va P.Tedeskolar zardushtiylikning vatani Parfiya (hozirgi Turkmaniston) degan farazni bildiradilar; Daristetir, Jeksonlar zardushtiylik Antropatenda, Xarsfel'd esa Midiyada paydo bo'lgan deydilar; I.Markvert, B.A.To'raev, X.Nyuberg, E.Benvenist, ye.E. Bertels, Gayger, Bartol'd, Shpigellar fikriga qaraganda zardushtiylik Baqtriyada paydo bo'lgan; E. Gersvel'd o'zining dastlabki arxeologik qazilmalariga binoan hamda V.V.Struve, K.V.Trever, Yu.A.Rapoport, S.F.Oldenburg, V.M.Lukonin, B.I.Avdiev singari olimlarning fikricha zardushtiylik Turonzamin (Xorazm, Baktriya, So'g'd, Farg'ona)da paydo bo'lib, so'ngra Eron va boshqa mamlakatlarga tarqalgan.

Zardushtiylik dini haqida fundamental tadqiqotlar muallifi Meri Boys uning bundan uch ming besh yillar ilgari Osiyo cho'llari zaminida paydo bo'lgani va boshka dinlarning shakllanishi va rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siridan tashqari, oliyjanob din ekanligini, asrlar mobaynida quvg'inlikka uchrassa-da, unga e'tiqod qo'yanlar sa'y-harakati tufayli bizgacha yetib kelganligini ta'kidlaydi.

Meri Boys ham otashparaslar dinining muqaddas kitobi «Avesto» qadimgi Xorazm vohasida paydo bo'lganini qayd etadi.

Zardushtiylik ta'limoti va «Avesto» ning Xorazmda paydo bo'lganligi haqidagi faraz B. G'ofurov, N.Mallaev, X.Homidov, A.Qayumov, Y.Jumaboev, M.Is'hoqov, M.Rahmonov, F.Sulaymonova, I.Jabborov, G.Dresvyanskaya, Y.Xo'jamurodov, A.Irisov, M.Qodirov, S.Hasanovlarning maqola va tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan.

Zardushtiylik dinining nainki qaerda paydo bo'lganligi, balki qachon paydo bo'lganligi xususida ham arxeologik qazishmalar davomida ajoyib natijalarga erishgan S. P. Tolstovning fikriga qaraganda, bu dalillar zardushtiylik dini va uning payg'ambari Zaratushturaning Xorazmda tug'ilganligini isbot qiladi. “Avesto ham boshqa ko'plab muqaddas kitoblar singari murakkab va ko'p qatlamlidir” –deb yozadi S. P. Tolstov, -“ biroq unda, shubhasiz, O'rta Osiyo tarixining arxaik davriga borib taqaluvchi ma'lumotlar ustunlik qiladi, hozir bizning qo'limizda bor materiallarga asoslanib, bu davrni yangi eradan avvalgi 1 ming yillikning birinchi yarmiga mansub deb hisoblash mumkin”.



Zardushtiylik bilan bog‘liq etnografik va lingivistik tadqiqotlar ham juda ko‘p narsalarni oydinlashtirishi mumkin. Masalan B. I. Avdievning zardushtiylikning Xorazm bilan bog‘liqligini quyidagicha izohlaydi: zardushtiylikning birinchi muqaddas olovi Xorazmda yoqilgan. «Avesto»da tasvirlangan «Aryonam Vayjo» degan mamlakat Xorazm bo‘lishi extimol.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:**

1. Abdullaev H. “Avesto” o‘rta osiyo xalqlari madaniyati tarixida. Xiva.: Xorazm Ma’mun akademiyasi nashryoti, 2001. –B. 145.
2. Abdullaev Q. Zardushtylarningta’lim tizimi. T.:O‘zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti,2007. –B. 124-132.
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy. Hadis. 2-jild, T.: Qomuslar bosh tahriri, 1997. –B. 36-37.
4. Alimasov V. Falsafa yoxud fikrlash chanqog‘i. – T.: Falsafa va huquq, 2007. –B. 196.



## SHARQ QO'LYOZMALARI VA ULARNING SVILIZATSIYA TARIXIDAGI O'RNI

O'rinoval Dilafruz Sa'dullayevna

Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi  
19-maktabning tarix fani o'qituvchisi

Tel:+998937583120

**Annotatsiya:** Mazkur maqolaning mohiyati shundaki, buyuk allomalarimizning O'zbekiston tarixi svilizatsiyasiga qo'shagan xissasi va ularning svilizatsiya tarixidagi o'mini belgilab berishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** Svilizatsiya, ma`naviy taraqqiyot, mafkura, O'rta Osiyo, Arab Xalifaligi.

O'zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligini qo'lga kiritish bilan o'zbek xalqi tarixida tub burilishi sodir bo'ldi. Milliy istiqlol goyasi o'zbek xalqining o'z huquqlari, milliy o'zligini tiklashga, ijtimoiy-iqtisodiy va ma`naviy taraqqiyot sari yuz tutishga cheksiz imkoniyatlar yaratdi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sari yo'l tub islohotlar bilan belgilangan bo'lsa, ma`naviy taraqqiyotga milliy ma`naviyatni tiklash va mustaxkamlash, fan, maorif madaniyatni rivojlantirish, tafakkurga erkinlik berish bilan asoslandi. Bu jarayonda tarix, tarixiy ong va xotira xalqqa ruxiy kuch quvvat bag'ishlovchi, unga ma`naviy ozuqa beruvchi muxim omil sifatida maydonga chiqdi. O'zbek xalqining xaqqoniy tarixini tiklash va xalqni shu tarix bilan qurollantirish zaruriyati kun tartibidagi dolzarb vazifaga aylandi. Zero Mustaqillikka qadar, ya'ni mustabid tuzum xukmronligi sharoitida xaqqoniy tarixni tiklash va uni xalqqa yetkazishga yo'l berilmadi. Chunki mustabid tuzum manfaatlariga xizmat qilgan kommunistik mafkura va uning tazyiqi ostida bo'lgan sovet tarixshunosligining uslubiy, nazariy, g'oyaviy asoslari xaqqoniy tarixni yoritishga imkon bermas edi. Ular xalq tarixini emas, marksizm, leninizm ta'limotini, sinfiy kurash g'oyalarini va kommunistik mafkura aqidalarini targ'ib etishga bo'y sundirilgan edi. Bu g'oyalar va aqidalar jamiyat taraqqiyot qonunlariga, xalqning tabiatiga, real voqelikka zid bo'lib ularni nafaqat xayotdan balki o'tmishdan ham izlash mutlaqo befoyda edi.

Shunga qaramay, mazkurta'limotaqidalariga va tamoyillariga asoslangan sovettarixshunosligida nafaqat o'zbek xalqining balki jahon tarixinini xam juda ko'p muxim masalalari mutlaqo noto'g'ri buzib talqin etildi. Natijada tarixiy xaqiqat yashirilib xalq o'z o'tmishidan va demak, o'zligidan uzoqlashtirildi.

O'rta Osiyo xalqlarining Arab xalifaligi tarkibiga kirishi arafasidagi va undan keying ahvoli haqida gap borganida so'zsiz arabcha, forscha va qadimgi turkiy-runiy yozuvlarga murojaat qilamiz. Tarixda uch joydan O'rta Osiyo xalqlari tarixiga doir hujjatlar arxivi topilgan: hozirgi Turkmanistonning Niso shahrida – Parfiya davlati (miloddan avvalgi I-asr) hujjatlari, Tuproqqa'l'ada (III-asr) Xorazm davlati hujjatlari, Mug' togida (Samarqand) So'g'diyona hujjatlari (VII-asr) topilgan. Bundan tashqari, yerlardan juda ko'plab epigrafik yodgorliklar toshdagi bitiklar, ro'zg'or buyumlari va san'at asarlari topilgan. O'rta Osiyo tarixidan daliliy ashyolarga boy ma'lumotlarni o'rta asrda yashashgan muarrix Tabariy asarlaridan, shu asarning Bal'amiy tuzgan forscha-tojikcha nusxasidan, jahon shumul qomusiy olim Beruniy asarlaridan topishimiz mumkin.

Binobarin, Sharq xalqlari madaniyati muammolariga oid hozirgi tarixiy-monografik tadqiqotlarning qo'lyozma manbalarga bevosita aloqadorligi tabiiydir.

Arab tarixshunosligi to'g'ridan-to'g'ri fol'klor (xalq ijodi) va adabiy an'analar bilan, shuningdek, ilohiyot qur'on an'analarini bilan uzviy bog'liqdir.

Arabcha tarixiy asarlarning mazmuni islom jamoalari tarixi, bu jamoalarning siyosat va aql-idrokda faol toifalari vakillarining hayoti, faoliyati bilan bog'liqdir.

Qur'on matni bilan aloqador ko'pgina muammolar aksetgan filologik (adabiy), tarixiy, diniy asarlar tasvirlarda aks etgan bo'lib, ularda qur'on suralari va oyatlari birma-bir sharhlanadi. Bunday tafsirlarning hajmi va salmog'i ancha kattadir. Bunday kitoblar VIII-asrgacha barmoq bilan sanarli bo'lgan bo'lsa, 750-1050 yillar davomida ellikka yaqin shunday asarlar yaratildi. Shulardan ham yarmigina bizgacha saqlanib qolgan. 200 yildan ziyod vaqt davomida yozilgan qur'on tavsiflari Tabariyning (838-923) fundamental «Tafsir» kitobida umumlashtirilgan. Bu asarning nufuzi bizningcha, avvalgi ko'pchilik asarlarni muomaladan siqib chiqqargan bo'lishi mumkin.

### Foydalanimaganabiyotlar:

1. Karimov.I . "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li." T 1992 yil.



## QADIMGI ERON TARIXINI O'RGANISHDA MA'LUMOT BERUVCHI YOZMA MANBALAR

Raximova Gulmira Rustambekovna

Xorazm viloyati Urganch shahar  
23-son umumiy o'rta ta'lif maktabining  
Tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadimgi Eron tarixini o'rganishda ma'lumot beradigan yozma manbalar haqida hamda shu vaqtning hukmdorlari va shu vaqtgagi jarayonlar haqida malumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Eron, manba, yozuv, tosh, hukmdor, Doro I, Kir II, ahamoniylar.

Qadimgi dunyo tarixida paydo bo'lgan eng qadimgi davlatlardan biri Eron (Persiya, Elam kabi nomlar bilan atalgan) davlatidir. Bu davlatda xukmdorlik qilgan Ahamoniylar sulolasi hukmdorlaridan Kir II va Doro I lar dunyo tarixida o'chmas iz qoldirdilar. Bu ahamoniy vakillari olib borgan keng ko'lamli yurishlari, ko'plab tarixchi va olimlar asarlarining yaratilishiga sabab bo'ldi. Umuman Eron tarixi haqida ma'lumot beruvchi yozma manbalar ko'plab hisoblanib, ular qoyatoshlarga bitilgan bitiklar va yunon va rim muarrixlari asarlari - asosiy manbalar hisoblanadi.

Ahamoniylar dinastiyasidan (er. Avv. 588-330 yillardan) chiqqan dastlabki Eron shoxlarining hukmronlik qilgan davriga oid topilgan kam sonli Eron mixsimon yozuvlari asosida Kirmoshox shahri yaqinidagi bexistun qoyasiga o'yib yozilgan katta xat juda katta ahamiyatga ega. Bu yozuvlarning uzunligi 22 metr, umumiy balandligi 7,8 metr. Eronda Kirmoshoxdan 30 km masofada, daryo bo'y lab o'tgan qadimgi karvon yo'li yoqasida, uning chap tarafida Charos nomli tik qoyaga taxminan 105 metr balandlikda Doro I ning amri bilan yozilgan g'alaba yodgorligi mavjud, bundagi yozuvlar elam, bobil va qadimgi eron tillarida bitilgan. Bu yozuvlar juda ko'plab aniq tarixiy fikrlarni qoldirgan. Masalan: bu yozuvlarda Eron podshosi Doro I ning Kambiz o'lganidan keyin ko'tarilgan qo'zg'alon qanday tor-mor qilingani, Eron davlatining butunligini qanday qilib tiklaganini, Nil bilan qizil dengizni birlashtiruvchi kanal qazilganligi, undan keyin shu kanal orqali Misrdan Eronga yura boshlaganligi, kabi qimmatli ma'lumotlar bitilgan.

Behistun qoyatosh bitiklari hozirgi kunda to'la o'qib, o'rganib chiqilgan va bu yer butun tarixchi olimlarni o'ziga jalb etgan hududlardan biriga aylangan. Qadim Eron tarixi haqida ma'lumot beruvchi yozma manbalardan yana biri Persepoldan 5 km masofada, uning shimol tarafiga Xusaynkuh qoyalarida ahamoniylardan Doro I, Kiyerks I (mil. Avv. 486-465 y) Artakserks I (mil. Avv. 465-424 yil) hamda Dono II (mil. Avv. 424-404 yil) larning manbalari hamda ularga kiraverishda o'yib yozilgan katibalar mavjud, mazkur yozuv asosiy sarkardalardan Rustam (636-yili arablar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan) nomi bilan bog'liq va tarixda ko'pincha Naqshi Rustam deb ataladi. Bu katibalarda ayniqsa Doro I surati ostida yozilgan katibada, uning davlati ko'klarga ko'tarib maqtaladi. Uning tarafidan bosib olingan xalqlar itoatkorlikka va halol mehnat qilishga chaqiriladi, shuningdek bo'ysunmaganlarning jazolangani va nomlari qayd etilgan. Yana bu yozuvlarda Eron shoxlari qo'l ostidagi hududlar va mamlakatlar ro'yxati to'la saqlanib qolgan, ya'ni ahamoniylarga tobe bo'lgan 23 satrablik va ulardagi xalqlar bo'lib, ular ichida parfiyaliklar, baqtriyaliklar, yunonliklar va xorazmliklar ham bor. Umuman olganda qadimgi Eron tarixi haqida ma'lumot beruvchi mixxat yozuvida ko'plab qimmatli manbalar topilgan. Ulardan biri Porsepol shahri harobalaridan topilgan qimmatli manbalardir. 1761-yilda Daniya qiroli topshirig'i bilan Arabiston va Eron kabi hududlarni o'rganish uchun yirik ekspeditsiyani yuboradi. Ekspeditsiya ichida ruhoniy o'g'li arab tilini bilgan K.Nibur ham bor edi. 1765-yilda Nibur arabistonga jo'nab ketadi. U yerdan Mesopataniya orqali Erona o'tadi va nihoyat Sherozning shimoli-sharqiy tomonida, undan 7 mil narida Persapolning xarobalarini topadi. Bu saroy A.Makedonskiy tomonidan yoqib yuborilgan edi. Nebur bu yerdan Ahamoniyning mixxat yozuvini topdi va bu yozuvlar qabr toshlariga, qoyatosh va xaykallarga yozilgan edi. Niburning topilmasini o'qish o'ziga nasib etmaydi. Uni o'qish G.Grotfenga nasib etadi. Gotefend bu yozuvlardan mil.avv. 540-yilda Kir II Bobilni tor-mor etib, buyuk eron podsholigini barpo etganligini bilib oladi. Yana bir boshqa manbada Grotfend juda ham muhim manbalarni topganligi kiritiladi. Yani u qabr toshlarini podshoxlarga atab yozilganligini aniqlab dastlab, "Podsho" (shoxlar shoxi) degan so'zni



o‘qiydi. Yana u shoxlarni alohida ajratib yozganligini va ismdan keyin “shox” so‘zini ifodalovchi belgi qo‘yilganini aniqladi. Ya’ni birinchi ismda “shox” so‘zini ifodalovchi belgi mavjud, ikkinchi ismdan keyin yo‘q. Bundan kelib chiqadiki: V shox B shox o‘g‘li, B shox A shox o‘g‘li, demak birinchi podshoxning otasi shox bo‘lmagan, masalan, Doro I ning otasi. Uzoq izlanishlardan so‘ng Grotfend bu yozuvlarni o‘qidi: “Kserks ulug‘ shox, shaxanshox, Doro, shox o‘g‘li Aximanid, bu saroyni o‘sha qurdirgan”. Bu yozuvlari siri 1802-yili ochilgan edi.

Qadimgi Eron tarixiga oid jada ko‘plab manbalar topilgan. Eron tarixi va shoxlari haqida yana ko‘plab tarixchi olimlar, sayyoxlar asarlari mavjud. Ularning eng muhimlari yunon va rimlik tarixchilarining asarlaridir. Qadimgi yunon yozuvchisi Ksenofontning Kir II ga bag‘ishlangan “Keropediya” (Kirning tarbiyasi va “Anabasis”) (“Kirning yurishlari”) nomli asarlari, “Tarix otasi Gerodot”ning, Pompeytagning “Kirning halokati to‘g‘risida qilingan hikoyalari diqqatga sazovor, Gerodotdan keyin V-asrda yashagan tarixchi Pavel Ozozeyning “Monarxiya” asosida Eron shoxining vaviloni ya’ni vayron etilishi berilgan II asrda yashagan Poliyenning “Xarbiy xiyllalar”, Ktesiyning “Eron tarixi” nomli asarlarida ahamoni hukmdorlarining yurishlari, tafsilotlari, ular haqida hikoyalari kabi qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirilgan.

Eron hamda O’rta Osiyo xalqlari qadimgi madaniyati, e’tiqodi, tili, adabiyoti va tarixini o‘rganishda muhim manba Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”ni (Avesto mil. Avv. V va mil. VI asrlarda yozilgan) va shu davrda Eron hududida Zardushtiylik dini xukmron bo‘lgan. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki qadim Eron haqida ma’lum beruvchi ko‘plab yozma manbalar topilgan. Ammo ulardagi ma’lumotlarga aniqlik yetishmaydi va o‘sha davr tarixi yetarli darajada o‘rganilmagan.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Abdiyev V.I. Qadimgi sharq tarixi.
2. Madraimov A. Fuzailova Q.. Manbashunoslik.
3. Sulaymonova F. Sharq va g‘arb.
4. Duravchuk V. Yozuvlar o‘tmish sirlari shohidi.



## TARIX FANINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINI TARIXIY ASARLAR ASOSIDA O’RGANISH

Sultonova Kamola Ravshanbekovna

Xorazm viloyati Hazorasp tumani  
2-son kasb-hunar maktabi tarix fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarixiy bilimlar taraqqiyotini, tarix fanining rivojlanish bosqichlarini tarixiy asarlar asosida o’rganish haqida so’z boradi.

**Kalit so’zlar:** tarix, metodologiya, bilim, strukturalizm, antropologik tarix, madaniy antropologiya, flovio biondo, korneliy, appain, diodor, yangi sotsial tarix.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq siyosiy, ijtimoiy, huquqiy va madaniy-ma’naviy va ilmiy-hayotida ko‘plab yangiliklar, umumbashariy jarayonlar bilan bog’liq ijobiy o’zgarishlar sodir bo‘ldi. Tarix fanini tatbiq etish va o’qitishda ham yangi metodologiya kirib keldi. Tarix fanida e’tirof etilgan xolisiylik, ilmiylik, tarixiylik va muqobililik tamoyillari tarixni tadqiq etish va o’qitishda tadbiq etila boshlandi. Bugungi kunda tarix fanining rivojlanish bosqichlarini, tarix ta’limining mazmun-mohiyatini zamon ruhida o’quvchilarga yetkazishda yangi o’quv metodik majmua yangilandi. Hozirgi rivojlanish davrida tarix fanini o’qitishda o’qituvchi avvalo uning rivojlanish tarixini yetarlicha biladigan va uni o’quvchilarga yetkazib berishda samarali ta’lim berishi uchun bilim va malakaga ega bo‘lishi lozim. Bu borada birinchi Prezidentimiz I.Karimov shunday ta’kidlagan edi: “*Chuqur tahlil, mantiqqa asoslanmagan bir yoqlama fikr odamlarni, eng avvalo tarix o’qituvchilarini chalg’itadi. Ular eshitganlarini haqiqat ekan deb o’quvchilarga ham yetkazishadi, faqat bahs-munozara, tahlil mevasi bo‘lgan xulosalargina bizga to‘g’ri yo‘l ko‘rsatishi mumkin*”.

Tarix fanining shakllanishi insoniyatning qadimgi davridan boshlanadi. Odamlar o‘z o’tmishlarini doimo qayta tiklashga harakat qilganlar. Tarixiy bilimlar taraqqiyotni muayyan tarixiy bosqichda yaratilgan ilmiy mahsulotlarni yoki bir muammoga bag’ishlangan tarixiy tadqiqotlarni o’rganadi va tahlil qiladi. Tarixiy bilimlar ma’lum bosqich yoki davrda tarix fanining rivojini jamiyat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishi bilan bog’liqlikda ifodalaydi. Qadimgi dunyoning tarixiy tasavvurlari dastlab tarixiy voqealarini rivoyat va afsonalar bilan to‘ldirib tasvirlash ko‘rinishda bo‘ldi. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda yaratilgan Misrning “Ikki og’ayni”, ”To‘g’ri va egri ”kabi ertaklari “Izida va Osiris haqida”kabi rivoyat, afsona, ertak va hikoyalar diqqatga sazovordir. Tarixning ibridoib bosqichi ya’ni qadimgi davrini o’rganishda qadimgi sharq davlatlarida yaratilgan dostonlar rivoyatlar, ertaklar, pand-nasihatlarni xalqning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari natijasida Misr, Mesopatamiya adiblari qaysidir uslubda yozishga harakat qilganlar. Ibtidoiy tarix davrini o’rganishda “Yunon-Eron urushlari tarixi” va ko‘p jildli “Tarix” asarining muallifi Gerodot, “Siyosat”, ”Metodika”asarlарining muallifi Arastu, “Rimning ta’sis qilingandan keying tarixi” muallifi Tit Lviy, “Qadimgi Rim yodgorliklari” nomli tarixiy asar muallifi Dionisiy va Yuliy Sezar, Korneliy, Appain, Diodor, Iosif Flaviy, Varron kabi tarixchililarning asarlari muhim va qimmatli manbaa hisoblanadi. Ularning asarlarida asosan sayohatlar va o‘z ko‘zları bilan ko‘rgan voqealar bayon qilingan. Renessans davrida antik madaniyatga qiziqish kuchayib, tarixiy metodning rivojlanishida yangi davr boshlandi.

Manbashunoslik metodologiyasining rivojlanishi, ayniqsa, tarixiy tanqid ta’siri ostida, fanga o‘xshash tarixni badiiy adabiyotdan ajratish boshlandi. O‘ita asrlarda o‘lkamizda tarix fani yuksak darajada rivojlandi. Bu davrda yashab o‘tgan quyidagi tarixchilarni sanab o‘tish lozim: Buxorolik tarixchi olim Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari, Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Al-Xorazmiy (783-850).Ularning mashhur tarixiy asarlari: “Tarixi Xorazm”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, kabi asarlari, Temuriylar davri tarixchilari Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Hofizi Abro‘ning “Zubdat at-tavorix”, ”Mirzo Ulug’bekning “To‘rt ulus tarix” asari va boshqa tarixchilarni ko‘rsatish mumkin.

Yevropada uyg’onish davrida 12 kitobdan iborat “Florensiya tarixi” nomli asarning muallifi Florensiyalik gumanizm arboblaridan biri Leonardo Brukini, “Rim imperiyasining qulashidan boshlanadigan tarix” asarining muallifi tarixchi Flavio Biondo, “Florensiya tarixi” asarining muallifi Makiavelli asarlari orqali rivojlangan o‘rta asrlar haqida ma’lumotga ega bo‘lamiz. Yevropada insonparvarlikning keng mafkuraviy oqimi doirasida XV asrdan boshlab insonparvar tarixshunoslik



rivojlandi. Insonparvar tarixshunoslik o‘rtasida tarixni “to‘rt monarxiya bo‘yicha” (Ossur-Bobil, Midiya -Dors, Yunon-Makedon, Rim) davrlashtirish o‘rniga uch davr “Qadimgi”, “O‘rtasralar”, va “Yangi davr tarixi”ga bo‘ldilar. XX asrning birinchi yarmida tarixiylik metodining ijtimoiy fikrdagi tantanasi tarix fanining ta’siri va ijtimoiy rolining o‘sishiga olib keldi. U “asr fani”ga aylandi. Yangi tarix maktablaridan biri “Intellektual tarix” maktabi paydo bo‘ldi. Ikki urush oralig’i davri XIX asr tarixshunosligidan zamonaviy tarix faniga o‘tishning ziddiyatli bir davri edi. XX asrning ikkinchi yarmida tarixshunoslikda nazariy asoslar, metodlar va metodikaning jiddiy yangilanishi yuz berdi. Bu belgilar “yangi tarix fani” deb nom olgan yo‘nalishda o‘z aksini topdi. Yangi asrda tarix fanini o‘rgatishda o‘quvchilarda asosan tarixiy ong, tarixiy xotira, tarixiy tafakkurni rivojlantirish asosiy vazifa hisoblanadi. O‘quvchilar dunyoqarashida tarixiy tafakkurini, dunyoqarashini shakllanishi bilan birlikda boradi. Tarixan dunyoda mavjud bo‘lgan fan-texnika yangiliklarini o‘zlashtirishi bilan o‘z faoliyatida yangilikka intilish o‘zida intiluvchanlik faoliyatini shakllantiradi. Bu borada birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday ta’kidlagan: “*Bugungi kunda xur va ozod xalqimiz barcha xalqlar va davlatlar tomonidan yaratilgan ma’rifatda fan, texnika, madaniyat va san’atda nimaiki yangi ilg’or jihatlar bo‘lsa shunga dadillik bilan intilmoqda*”. Bugungi kunda tarix fanida juda ko‘p yangi yo‘nalishlar, qismlar, bo‘limlar yuzaga keldi. (Antropologik tarix, Madaniy antropologiya, strukturalizm antropologiya, yangi sotsial tarix).

Har bir shaxs yangi tarixning sivilizatsiyasini o‘rganishidan oldin qadimgi davrdan to bugungi kungacha bo‘lgan tarixiy asarlarni mukammal o‘rganishni o‘zining asosiy vazifasi deb hisoblashi lozim. Rivojlanayotgan fan va axborot asrida tarixiy asarlarni yosh avlodga o‘rgatish, kelajagimiz uchun mustahkam poydevor bo‘lishiga zamin yaratiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” Toshkent.:” 1998.
2. R. Rajabov “Tarix fanining metodologik asoslari”Toshkent.:”Istiqlol” 2013.
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



## IKKINCHI JAHON URUSHI VA UNING YAKUNLARI

**Teshayeva Sobira Nasulloyevna**  
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani  
12-maktab o'qituvchisi  
Telefon:+99891 252 79 88  
sobirateshayeva@mail.ru

**Annotatsiya:** Maqolada Ikkinci jahon urushining insoniyat boshiga solgan kulfatlari, ommaviy qirg'in qurollarining yaratilishi va dunyoning 61 davlatini qamrab olganligi, urush davomida 62mln kishining halok bo'lganligi, manfaatparast, ma'naviy qashshoq, lekin iqtisodiy jihatdan boy davlatlarning urushni qo'llab-quvvatlaganligi, antifashistik kuchlarning faol ishtiroki natijasida fashizmning mag'lub bo'lishi va BMTning tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** fashizm, militarist, antifashist, demokratiya, evakuatsiya, "Yangi tartib", kon-sentratsion lager.

Dunyo xalqlari 15000 dan ortiq urushlarni boshidan kechirganligi tarixdan ma'lum. Shundan eng yirik urush 1939-1945-yillarda bo'lib o'tgan Ikkinci jahon urushidir. Bu urushda asosiy rolni fashistlar Germaniyasi o'ynadi.

Dunyoning 61 davlatini qamra olgan bu urush XX asrning eng katta fojiasi sifatida tarixga kirgan, 110 mln aholi safarbar etildi. Harbiy harakatlar 40dan ortiq davlat hududida olib borildi, barcha xarajatlar 4trillion dollarni tashkil etdi. Urush davomida 62 mln kishi halok bo'ldi. Shundan 27mln SSSR fuqarolaridir.

1941-yil 22-iyunda Germaniya SSSRga hujum qildi. Germaniyaning hujumi SSSR uchun kutilmaganda yuz bergenligi I. Stalining eng yirik xatolaridan biri bo'ldi. To'satdan boshlangan urush shunga olib keldiki, sovet aviatsiyasining katta qismi havoga ko'tarilishiga ulgurmasdan aerodromlarda yo'q qilindi, qo'shinni boshqarish va ta'minlash tizimi izdan chiqdi. SSSR tarkibida bo'lgan O'zbekiston xalqlari ham bu urush girdobiga majburan tortilgan edi. O'sha kuni mamlakatda harbiy holat e'lon qilindi. O'zbekiston urush yillarda front uchun 2100ta samolyot, 17342 aviamotor, 2318 dona aviabomba, 17100 ta minomyot, 22mln dona mina, 560000 snaryad, 1mln dona granata tayyorlab berdi.

Ikkinci jahon urushi yillarda fashizmga qarshi qo'lga quroq olib jang qilgan o'zbekistonlik jangchilarning umumiy tarkibidan 263000 dan ziyod kishi halok bo'ldi. 132670 kishi bedarak yo'qoldi .60432 vatandoshimiz urushdan nogiron bo'lib qaytdi, shuningdek, 10 minglab o'zbekistonlik jangchilar asirlikda bo'ldi. Rossiya, Ukraina, Belorussiyaning fashistlar bosib olgan hududlaridan 1mlndan ortiq kishi, jumladan, 200ming bola O'zbekistonga evakuatsiya qilindi.

1945-yil 8-maydan 9-mayga o'tar kechasi Berlin egallandi va Germaniya so'zsiz taslim bo'lganligi to'g'risidagi akt imzolandi. 2-sentyabrda Yaponiya taslim bo'lish to'g'risidagi paktni imzoladi va shundan keyin Ikkinci jahon urushi tugadi. Asosini fashistik Germaniya, Italiya va militaristik Yaponiya tashkil qilgan tajovuzkor davlatlar bloki tor-mor qilindi. Ikkinci jahon urushidagi qo'lga kiritilgan bu buyuk g'alaba millionlab begunoh kishilarning , jumladan, O'zbekiston xalqining to'kilgan qoni, haddan ziyod mashaqqatli mehnati va uning buyuk insonparvarligi tufayli qo'lga kiritildi. 1941-yilning yozigacha Germaniya va Italiya Yevropaning 12 davlatini zabit etdi. Bosib olingan davlatlarda fashistlarning okkupatsiya tartibi o'rnatildi."Yangi tartib"ga ko'ra demokratik erkinliklar tugatildi, siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalari faoliyati taqiqlandi, ish tashlash va mitinglar o'tkazish man etildi bo'y sunmaganlar o'lim lagerlariga tashlandi. Polsha va Germaniyada tashkil etilgan konsentratsion lagerlar aslida o'lim fabrikalari edi. O'lim fabrikalarida 11million kishining yostig'I quridi. Bosib olingan davlatlar iqtisodiyoti bosqinchilar manfaati uchun mahsulot ishlab chiqara boshladgi. Fashistlar qancha harakat qilmasin o'zining yovuz niyatiga yeta olmadi. 1945-yil 16-aprel kuni sovetlar armiyasi Berlinni qurshab oldi va Berlin operatsiyasi boshlandi. 30-aprel kuni Germaniya rahbarlari A. Hitler, Gimmler, Gebbelslar o'z jonlariga qasd qildilar. Hitlerning jasadi benzin sepib yoqib yuborilgan. Insoniyat jallodining qismati ana shunday poyoniga yetdi. Dunyoning asosiy davlatlarini o'z domiga tortgan Ikkinci jahon urushida 40 davlatning hududida harbiy harakatlar olib borildi, urushda behisob qurbanlar berildi va juda katta vayrongarchilk yuz berdi.



Urushda fashistik Germaniya , Italiya va militarist Yaponiya tor-mor etildi. Ular vaqtinchalik buyuk davlatlar qatoridan tushib qoldi.Ayni paytda fashizm halokatga uchradi, fashistlar partiyasi va tashkilotlari faoliyati taqiqlandi. Uzoq va og`ir kurashda demokratik va antifashistik kuchlar g`alaba qozondi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzildi va uning Ustavi 1945-yilning 24-oktyabridan kuchga kirdi. Mustamlakachi imperiyalarning yemirilishi boshlandi, o`nlab yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi.

Aziz hamyurtlar, tinchlik deb atalmish ulug` ne`matni borida qadrlaylik , urush insoniyat boshiga og`ir judoliklarni soladi, onani farzandidan, kelinchakni yoridan, otani o`g`ildan, og`ani -inidan ayiradi. Yillar o`tsa ham bu ayriliqni o`rnini hech narsa bosa olmaydi. Tinchlikni asrash, avaylash har birimizning nafaqat fuqarolik, balki insoniylik burchimizdir.

**Foydalanimgan adabiyotlar:**

1. O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi.Toshkent. 2002-yil. 4-kitob
2. O`zbekiston tarixi.10-sinf darsligi.Toshkent.2017-yil
3. M.Lapasov.Jahon tarixi. Toshkent. 2013-yil



## INTERNET VA UNING TARIXCHI UCHUN IMKONIYATLARI

Xarinova Nargiza Jo‘rayevna

Namangan viloyat XTB tasarrufidagi

Norin tumanidagi 14-sonli IDUMI

tarix va tarbiya fani o‘qituvchisi

+998913571676

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada internet tarmog‘i va uning tarixchilar uchun beradigan imkoniyatlari haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Internet, internet protokoli (IP), elektron pochta, chat, global, lokal, axborot-qidiruv tizimlari, internet resurslari, www.rambler.ru, www.aport.ru, www.yahoo.com vawww.google.uz, Web-sahifa, Yandex, Google, Rambler, WWW.UZ va ixtisoslashgan qidiruv tizimlari, UZINFOCOM Markazi.

Internet – standart internet protokoli (IP) orqali ma’lumot almashuvchi kompyuter tarmoqlarining butunjahon va omma uchun ochiq to‘plamidir. Internet tarmog‘ini minglab akademik, davlat, tijorat va xonodon tarmoqlari tashkil etadi. Internet elektron pochta, chat hamda o‘zaro bog‘langan sahfalar va boshqa Butunjahon o‘rgimchak to‘ri servislardan tashkil topadi. Internet [lot. inter – aro va net (work) – tarmoq] – katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o‘zaro bog‘lovchi butunjahon kompyuter tizimi. Unda geografik o‘rni, zamon va makondan qat’iy nazar, ayrim kompyuter va mayda tarmoqlar o‘zaro hamkorlikda global informatsiya infratuzilmasini tashkil etadi. Qaydnomalar tizimi bilan boshqariladigan barcha hosila tarmoqlar hamkorlikda iste’molchilarga ma’lumotni saqlash, e’lon qilish, jo‘natish, qabul qilish, izlash va ma’lum bo‘lgan barcha variantlar (matn, tovush, videotasvir, fotosurat, grafika, musiqa tarzida va boshqa ko‘rinishlar) da axborot almashinishga imkon yaratadi.

Internet tizimi XX asrning 60-yillarda paydo bo‘ldi. 1996-yildan internet so‘zidan keng foydalana boshlandi, biroq u asosan, Butunjahon o‘rgimchak to‘rini anglatadi. Shu bilan birga internet 10 yil ichida juda tez tarqalib ketdi, uning ochiq arxitekturaga asoslanganligi, birovning mulki emasligi, markaziy boshqaruvning yo‘qligi uni organik rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Hozirda internet insoniyatning eng katta texnologik yutuqlaridan biri sifatida tan olindi.

Qidiruv tizimlaridan to‘g’ri maqsadda foydalanish barcha uchun, jumladan, tarixchilar uchun juda muhimdir. Internet resurslari xilma-xildir. Ularning ichida ham foydali ham zararli bo‘lgan ma’lumotlar uchraydi. Internet tarmog‘idagi Axborot-qidiruv tizimlari esa Internet resurslari ichidan so‘ralgan ixtiyoriy ma’lumotlarni qidirib topib berish imkoniyatiga ega. Chunki bunday qidiruv tizimlari kalit so‘zlar bo‘yicha qidirishni amalga oshiradi. Foydalanuvchi tomonidan qanday ma’lumot kiritilsa, xuddi shu ma’lumotga mos ma’lumotlarni qidirib topadi. Shu narsani eslatib o‘tish kerakki, har qanday axborot ham foydali va to‘g’ri, rost hisoblanavermaydi. Axborot-qidiruv tizimlaridan faqatgina to‘g’ri va foydali maqsadda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Turli nojo‘ya ma’lumotlardan foydalanishdan va tarqatishdan saqlanish maqsadga muvofiqdir.

Tarixiy tadqiqotlarda qidiruv tizimidan foydalanish, uning imkonyatlari va foydali tomonlari haqida ma’lumot olish uchun quyidagilarni bajarish kerak:

1. Asboblar panelidagi Poisk tugmasini bosing.
2. Xohlagan serveringizni tanlang.
3. O‘zingizni qiziqtirgan kalit so‘zni kriting va Poisk tugmasini bosing.

Natijada topilgan hujjatlar ro‘yxati ekranning chap tomoniga chiqadi. Hujjatlarga kirish uchun shu hujjat nomi ustida sichqonchaning chap tugmasini bir marta bosing. Hujjatning mazmuni bilan oynaning o‘ng qismida tanishishingiz mumkin. Har bir qidiruv tizimi Internet tarmog‘ida o‘z adresiga ega. Masalan, www.rambler.ru, www.aport.ru, www.yahoo.com vawww.google.uz adreslarga ega. Qidiruv tizimi Web-brauzer orqali ishga tushiriladi, ya’ni brauzerning adreslar satriga qidiruv tizimining adresi kiritiladi.

Qidiruv tizimlari (Web-sahifasi) turli ko‘rinishga ega bo‘lgani bilan ularning ishlashi deyarli bir xil. Topilgan hujjatlar ichidan keraklisini berilgan qisqa tavsifga ko‘ra aniqlab olinadi. Izlash vaqtini kamaytirish uchun kerakli axborotni mavzu bo‘yicha izlash mumkin.

Rasmlarni qidirish. Rasmlar ma’lumotlarning grafik yoki tasvir ko‘rinishi hisoblanadi. Internet tarmog‘ida grafik ma’lumotlarning ko‘plab turlari uchraydi, ya’ni: chizma (vektor), foto (rastr),



harakatlanuvchi (animatsiya) hamda siqilgan rasmlar. Bunday grafik ma'lumotlar tarkibida matnli axborot mavjud bo'lmaydi. Shundan ko'rinish turibdiki, demak rasm ko'rinishidagi ma'lumotlar ustida faqatgina uning nomi yoki turi bo'yicha qidiruv olib borish mumkin. Ko'pgina internet qidiruv tizimlari grafik yoki tasvir ko'rinishidagi ma'lumotlarni qidirish uchun alohida bo'limga ega bo'lib, bu bo'lim orqali ixtiyoriy turdagи rasmlarni ularning nomlari bo'yicha qidiruvni amalgalashish mumkin.

Qidiruv tizimi turlari: Yandex, Google, Rambler, WWW. UZ va ixtisoslashgan qidiruv tizimlari. WWW.UZ Milliy axborot-qidiruv tizimi. WWW.UZ – bu barcha foydalanuvchilar uchun yurtimizning Internet tarmog'idagi milliy segmenti axborotlaridan qulay tarzda foydalanish imkoniyatini beruvchi tizimdir. Milliy axborot-qidiruv tizimini rivojlantirish ishlari axborot va kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish UZINFOCOM Markazi tomonidan olib boriladi. Milliy axborot-qidiruv tizimining asosiy hususiyatlaridan biri uning ko'p tilli axborot qidirushi (ruscha, o'zbekcha) va boshqa milliy axborot tizimlari va ma'lumot omborlari bilan o'zaro ishlay olishidadir.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Lawrence J. Mc.Crank. Historical Information Science: An emerging Unidiscipline. Medford. New Jersey, 2002.
2. Информационный Бюллетень Ассоциации «История и компьютер». 1990-2001.
3. Internet saytlari: <http://www.ziyonet.uz>, <http://www.edu.uz>, <http://www.google.uz>



## TARIX SOHASIGA OID ELEKTRON O’QUV NASHRLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

Xaydarova Dilfuza Jo’raboyevna  
Namangan viloyat XTB tasarrufidagi  
Norin tumanidagi 14-sonli IDUMI  
tarix fani o’qituvchisi  
Telefon: +998907516515

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix sohasiga oid elektron o’quv nashrlari va ulardan foydalanish haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so’zlar:** Elektron nashrlar, analog, bosma ekvivalent, estetik va etik normalar, multimedia, gipermatn, video va audio ilovalar, animatsiya, katta hajmdagi illyustrativ materiallar, video ma’ruza, multimedia ma’ruza.

Zamonaviy ta’lim jarayonini elektron nashrlarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Hozirgi vaqtida o’quv nashrlarining to’rt xil turdagи nashrlarni o’z ichiga oluvchi tipologik modeli mavjud bo’lib, bularga:

- Dasturiy-uslubiy (o’quv rejasi va dasturlari);
- O’quv-uslubiy (uslubiy ko’rsatmalar, yo’riqnomalar);
- O’qituvchi (darsliklar,o’quv qo’llanmalari, ma’ruza matnlari);
- Yordamchi (praktikumlar,masala va mashqlar to’plamlari).

Shu bilan birga bu guruhgа nazorat qiluvchi elektron o’quv nashrlari bo‘lmish – test dasturlar va berilganlar bazalarini kiritish mumkin.

Maqsadiga ko’ra elektron o’quv nashrlar beshta asosiy guruhgа bo‘linadi: mакtab o’quvchilar uchun, bakalavrлar uchun, mutaxassislar uchun, magistrлar uchun, boshqalar uchun.

Bosma ekvivalentining mayjudligiga qarab ikki guruhgа bo‘linadi:

- bosma o’quv nashrning elektron analogi - mos o’quv bosma nashrning elektron nusxasi;
- mustaqil elektron o’quv nashr - bosma ekvivalentga ega bo‘lмаган o’quv nashr; .

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi o’quv adabiyotlariga qo’yiladigan asosiy talablar quyidagilardir:

- ❖ Tarixiylik va an’anaviylik prinsiplariga amal qilish;
- ❖ Dasturiy va elektron mahsulotlar standartlariga amal qilish;
- ❖ Ma’lumotlarni bayon etishda estetik va etik normalarga rioya etish;
- ❖ Bibliografik ma’lumotlarning to’liq va obektivligi.

Tarixiy fanlar bo‘yicha elektron o’quv nashrlarining xususiyatlari quyidagilardan iborat: gumanitar bilimlarning asosiy xususiyati ularning noformal xarakterda ekanligidadir. Gumanitar fanlar bo‘yicha o’quv adabiyotlari asosan matnli ko’rinishda bo‘lib, keng illyustrativ axborotga ega bo‘ladi. Bu xususiyat elektron o’quv nashrlari tayyorlashda qiyinchilik tug’diradi, chunki bunday matnlarni o’quv materialini gipermatnli tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan strukturalash jarayoni qiyin bo‘lib, o’quv nashrlari mualliflarining maxsus didaktik tayyorgarlikka ega bo‘lishini talab etadi. Tarixiy fanlarni o’qitishda asosiy elektron o’quv nashri - multimediali darslik hisoblanadi. Uning asosini gipermatn, video va audio ilovalar, animatsiya, katta hajmdagi illyustrativ materiallar tashkil etadi.

Tarixiy fanlar bo‘yicha elektron o’quv nashrlari ko’p funksiyali bo‘lib, ta’lim oluvchilarning turli kategoriylariga mo’ljallangan. Ularning gipermatnli strukturasi standart o’quv materialini maxsus o’quv bloklari bilan to’ldirishga imkon beradi. Masalan, fizika yo’nalishida ta’lim oluvchi talabalar uchun mo’ljallangan tarix kursi fan va texnika tarixi bo‘limini, filologlar uchun tarix kursi esa madaniyat tarixi bo‘limlarini o’z ichida saqlashi mumkin va hokazo. Elektron o’quv nashrlarini yaratishda Internet tarmog’i katta imkoniyatlar yaratadi. Elektron nashrlarning tabiatи ularning ichida Internet tarmog’idagi maxsus sahifalarga to’g’ridan-to’g’ri murojaat etish imkonini beradi va o’quvchi-talabalarning soha bo‘yicha kerakli ma’lumotlarni qidirish malakasini hosil qilishga yordam beradi. Tarixiy fanlar bo‘yicha elektron o’quv nashrlari o’quv-uslubiy kompleks sifatida yaratilishi, ya’ni ular o’z ichida darslik bilan birga xrestomatiya, praktikum, lug’at, test dasturi hamda nazorat savollari va vazifalari bankini saqlashi kerak.

Nazariy materialni o’rganishni tashkil etishda quyidagi turdagи elektron o’quv nashrlaridan foydalanish mumkin.



Videoma’ruza. Ma’ruza videokamera yordamida yozib olinadi. Ushbu ma’ruza turining yutuqli tomoni uni qulay vaqtida takror eshtish mumkinligi va qiyin joylariga to‘xtab ketish imkoniyatining mavjudligidir.

Multimedia ma’ruza. Mustaqil ta’lim uchun o‘rgatuvchi interaktiv dasturlar yaratilishi mumkin. Bunday o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanishda har bir o‘quvchi o‘zi uchun qulay bo‘lgan o‘rganish trayektoriyasini, optimal o‘rganish tempini va usulini tanlashi mumkin. o‘zlashtirish ko‘rsatkichi ko‘p jihatdan nazorat qiluvchi vositalar hisobiga ham ko‘tarilishi mumkin.

An’anaviy nashrlar: elektron ma’ruza matnlari, tayanch konspektlar, nazariy materialni o‘rganish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar va hokazo.

Tarix ta’limida o‘quv amaliyotining muhim ahamiyati bor. Kompyuter imitatsion modellar, trenajorlar vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Kompyuter dasturlari yordamida arxeologik qazilmalarga, etnografik materiallar yig’ish, yodgorliklarni rekonstruksiyalash, arxiv hujjatlari bilan tanishishga tayyorgarlik treninglari tashkil etilishi mumkin. Umuman, tarix fani sohasini o‘rganishda elektron nashrlar alohida ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Информационные технологии для историков: учеб. пособие к практикуму по курсу «Информатика и математика» / Ред. Л.И.Бородкин. М.: Изд-во МГУ, 2006.
2. Қосимов С.С. Ахборот технологиялари. Т., 200
3. Internet saytlari: <http://www.ziyonet.uz>, <http://www.edu.uz>, <http://www.google.uz>



## ИСТОРИЯ ВОЗНИКОВЕНИЯ ВЕЛИКОГО ШЁЛКОВОГО ПУТИ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ

Алиева Ойгул Бахрамовна

Хорезмская область г. Ургенч

Учитель истории 1- категории школы №3

Камалова Шахзода

и ученица 8А класса

**Аннотация:** Издревле Восток считался колыбелью науки и культуры. Этому способствовало развитие торговых путей. В этом развитии сыграл самую главную роль Великий Шёлковый путь.

**Ключевые слова:** Лазурная дорога, Месопотамия, Яхонтовый путь, почтовые дороги, Бадахшан.

Начало функционирования Великого шёлкового пути относится ко 2 в до н э, когда дипломат и разведчик Чжан Цзян впервые открыл для китайцев Западный край страны средней Азии. Название Великого Шелкового пути связаны с драгоценным в те времена для стран Запада товаром шелком.

Его роль была значительным шире и разнообразнее, ибо по нему проходили караваны не только с различными восточными и западными товарами, но и проникали и духовные ценности, религиозные идеи.

Основным транспортным средством на этом пути был двугорбый Бактрийский верблюд чья необычная выносливость и способность отыскивать подземные родники, чувствовать приближение смертоносных песчаных бурь, как пишет историки помогали человек преодолевать бескрайние азиатские пустыни. Ничего не пугало отважных путешественников – ни многотрудный путь, долгие годы, ни грозные воинственные кочевники нападавшие на караван.

В первой половине 3 века шелк производился уже в некоторых областях в Туранском оазисе. Уже 5 века культура шелководства распространилось в Мерве(это современный Туркменистан) а затем проникла в восточный Иран на юго-восточные побережье Каспийского моря. В 3 веке сложился один из самых больших центров шелководства на востоке -согдийский(это современный Зарафшан и Кашкадаргинская долина). Интересная история проникновения культуры шелководства в Византию. Согласно письменным источникам, император Юстиниан I(527-565) некие монахи, а по другим сведениям персы, провезли в 50-х годах 6 века в гнездах, выдолбленных в посохах, яйца шелковичных червей. После этого в Византии возникает собственное производство шелка. Таким образом, Китай перестает быть монополистом в производстве шелка. После распространения культуры шелководства в Центральных Азии и странах Средиземноморья уже не только шелк становится главным товаром на этом пути, а многое другое.

В Северном Афганистане в долине Амударьи при впадении в нее реки Кокча французские археологи 70-х годах обнаружили шесть поселений которые относились 3 веку. На этой местности люди занимались шелководством и ремесленничеством. Среди них было найдено клад драгоценных предметов, среди которых золотые и серебряные сосуды изготовленные в Месопотамских традициях. Наиболее ранее находки изделий из лазурита найдена на территории Средней Азии, Ирана, Месопотамии, Египта и передней Азии относятся к 4-3 тысячелетий до н э. Вероятно все они были изготовлены из бадахшанского лазурита. Лазурный путь считался самым древним дорогой которая связывала Бадахшан со странами Передней Азии.

Большую роль в становлении дорог играло миграция племен и народов прокладывавших новые пути и маршруты в неведомые земли. Именно процесс миграции, в первую очередь индоевропейцев, были проложены первые пути на восток с запада. При Ахеменидском государстве существовало разветвленная сеть дорог с соответствующими станциями. Эта дорога называлось “Царская дорога”. Его протяженность около 2400 км. Оно начиналось в Эфесе, на западном берегу малой Азии и шла через Месопотамию, вдоль Тигра, через Персеполь в Сузы. Вдоль дороги располагались дорожные станции со служебными



помещениями. Все дороги проходили по всем крупным городам. Великий шелковый путь проходил через сухопутные дороги. Его основная дорога начинался с Китая и продолжалось до Средиземного моря. Оно делилась на несколько дорог. Вторая ветвь шелкового пути начиналась в Риме и через Средиземное море выходило к Сирийскому городу Гиерополю, а оттуда через Месопотамию, Северный Иран, Среднюю Азию вела в оазисы Восточного Туркестана и далее в Китай. Среднеазиатский участок дороги начинался в Аре. Из Аре дорога отклонялось на север и шла Антиохию Маргианскую, отсюда на юго-запад к Бактрии, а затем шла в двух направлениях – на север и восток. Издревле здесь по горным проходам через перевалы и по долине рек пролегали караванные дороги и тропы, проходил основной и по существу единственный путь торговых караванов и воинских соединений, следовавших из центральных областей Азии в Бактрию- Тохаристан и Индию и наоборот из Индию в Бактрию, Согд, Бухару и Чач. Эта важнейшая стратегическая дорога в ряде узловых пунктов было укреплена мощными фортификационными сооружениями.

Теперь что и как продовали и покупали на этом пути торговцы того времени. Главным товаром был шелк. Благодаря громадному спросу и дороговизне он являлся идеальным предметом для торговли. На начальном этапе развития торговли китайцы получили из Азии высоко ценимых коней семена люцерны и культуру винограда. Для китайцев виноград был новинкой. Они были удивлены что вино можно делать не только из риса но и из винограда. Из центральной Азии в Китай и в Европу поступала шерстяные изделия- ковры, завесы, покрывала. Высоко ценились в Древнем Китае парфянские gobelenовые ткани и ковры. Из Индии доставлялись ткани, пряности, красители, изделия из керамики, оружия из бронзы. Купцы редко проходили путь из конца в конец. Чаще они меняли свой товар в каком-то из промежуточных торговых городов. Однако и государство и кочевники объективно были заинтересованы в сохранении торговых коммуникаций. Чтобы не потерять доходы правители принимали строгие законы охранявшие купцов. Караваны насчитывали от нескольких тысяч вынужденных животных. У них были прислуки и проводники. Часто держали переводчиков. На каждом отрезке города строили караван сараи.

После великих географических открытий сухопутные пути пришли в упадок. Особенно во время гражданской войны шелковый путь совершенно был разрушен. В итоге междуусобных войн торговая дорога приходит постепенно в упадок. Но неоценимый вклад был внесен в развитие культуры и идеи Великий шелковый путь. По этому пути человечество было осведомлено разными культурами и традициями научными наследиями народов.

#### **Используемые литературы:**

1. Э.В.Ртвеладзе. Великий шёлковый путь Ташкент.1999г
2. Кошеленко Г.А. Культура и искусство древнего Узбекистана М.,1970
3. Зелинский А.Н. Памир и Великий шелковый путь
4. Лубо-Лесниченко Е.И. Великий шелковый путь М.,1985



## ХИВА ХОНИ МУХАММАД РАХИМХОН I ДАВРДАГИ ИСЛОХАТЛАР

Курбонова Садоқат Жумабоевна  
Хоразм вилояти Шовот тумани  
№3 сон мактаб 2 тоифа ўқитувчisi

**Аннотация:** Хива хонлигининг энг забардаст оқил давлат бошқарувчisi Мухаммад Рахимхоннинг давлат бошқарувидағи ўзгаришлари туғриида.

**Калит сұзлар:** мектар, Олий Кенгаш, қүшбеги, хужаш маҳрам, қози.

Мухаммад Рахимхон ибн Аваз иноқ ибн Мухаммад амин иноқ (1775 -1825) ўзбек қўнғиротлар сулоласидан Хоразм хони(1806-1825). Акаси Элтузархон вафотидан кейин таҳтга утирган (1806). Хива хонлигини бирлаштиришда ижобий натижаларга эришган бир қанча сиёсий иқтисодий маъмурий ислоҳатлар ўтказган. Хон саройи қошида доимий фаолият курсатувчи(девон) таъсис этилган. Мухаммад Рахимхон I Хива хонлигини бирлаштиришда ижобий натижаларга эришган: бир қанча сиёсий, иқтисодий, маъмурий ислоҳатлар ўтказган. Мамлакатни бирлаштириш йулида бир қанча ишлар қилган. У Орол бўйи қорақалпокларни бўйсундириш учун бир неча марта юриш қилиб 1811 йилда Тўрамурод сўғини енгиги хонликни мустаҳкамлаган. 1812-1818 йиллар давомида Сирдарё бўйи қозоқларни ва Марв устида хукумронлигини ўрнатади. Мухаммад Рахимхон I даврида Даشت қипчоқ, Хурросон, Хива хонлигига солик тўлаб турган. Хонлик чегараси жанубда Хурросон, шимолда Орол денгизи ва сирдарёнинг кўйи оқимидағи ерлар, шарқда Бухоро амирлигига тегишли Пойкент қалаларигача чўзилган.

Мухаммад РахимхонI бобоси Мухаммад Амин иноқ бошлаган Хива хонлигидаги ҳалқларни бирлаштириш ишини муваффақиятли амалга ошириди. Унинг фармони билан ўзи раислигида. Олий Кенгаш тузилди. Кенгашнинг биринчи аъзоси хоннинг севикли ва ишончли кишиси Мухаммад Юсуф мектар, иккинчи аъзоси жуда ақилли, жасур, қўнгилчан ва илтифотли вазир Мухаммадиёр қүшбеги бўлиб, хоннинг севикли ва ҳурматли акаси Қутлуғ Мурод иноқ ҳам кенгаш аъзоси эди. Хўжаш маҳрам кенгашда аъзо бўлмаса ҳам қатнашади. Унинг отаси Хурсондан асир олиб келинган ва Хивада мусулмончиликни қабул қилгач, уйланган. Хўжаш маҳрам урушдаги хизматлари учун озодлик мукофотини олган ва кейинчалик божхона бошлиғи бўлиб, бойиб кетган. У қурдирган мадраса Паҳлавон Маҳмуд мақбарасининг шимолий ғарбида жойлашган.

Янги тузилган кенгашда турт ўзбек уруғининг йулбошчилари ҳам қатнашади. Кенгаш жума куни хон саройининг кўриниш хонасида бўлади. Аввал овқатланиб, кейин муҳокама бошланади. Мухаммад Рахимхон даврида ичимлик ичиш, банг чекиши қатъий таъқиқланган. Шахарларни ободонлаштириш, фақирларни шод қилиш асосий мақсад қилиб қўйилган. Мажлислар тузилиб олиму фузалолар ва шоири донишмандлар билан китобхонлик кечаларини ўтказган. Унинг замонасида янги мадрасалар ва масжидлар қурилган, божхона ва бошқа фойдали муассасалар ишга туширилган. Мухаммад Рахимхонни Хива хонлигига келган рус элчиси Н.Н.Муравьев Карский шундай таърифлайди: “ Мухаммад Рахимхон I баланд бўйли, катта гавдали, нигохи ўтқир, иродаси кучли, жасур ва тадбиркор бўлган, уни кучли от ҳам икки соатдан ортиқ кўтариб юра олмаган ”. У араб, форс ва туркий тилларда гапириб, ўқиб ва ёзиб билган учун халқ уни “Охун хон” деб атаган. Кам ухлаган, шахмат ўйинининг ишқивози, байрамларни айниқса хафта байрамларини бенихоя ҳурмат қилган. Кишиларни лавозимига ёки келиб чиқишига қараб эмас, балки ишига қараб баҳо берган. Ўта такводор одам бўлиб, ҳамма жойда қабристонлар зиёратини бажо келтириб юрган.

Мухаммад РахимхонI даврида Олий Кенгаш ва Кичик Кенгаш жорий қилинган. Лавозимларнинг 300тадан 100гача камайтирган. Бошқарув тизимини ихчамлаштирган. Солик йигиш тизимини мукаммаллаштирган. Йиғилган солиқларни тўғри тақсимлаган. Бева бечораларга ғамхўрлик қилган. Унгача тўпланган солиқлар кўпчилиги солиқ йиғувчи амалдорларнинг қўлида колиб кетган. Мухаммад Рахимхон даврида эса солиқ тўлаш иши марказий хукумат қўлига ўтди. Хазинага фуқаролрдан тушган даромад ва харажатлар маҳус дафтарларда қайд этилиб, хоннинг назорати остида бўлди. Эндиқиқда солиқнинг миқдори мулкдорларга қарашли экин майдоннинг ҳажми ҳамда ҳосилига қараб белгиланган. Бундан ташқари чегараларда божхоналар ташкил этилган. Юқоридаги барча



чоралар тадбирлар хонликдаги ички ва ташқи савдонинг ривожланишига олиб келди.

Мухаммад Рахимхон даврида харбий салоҳият ҳам анча ошди. Хива тарихчиси Юсуф Баёнийнинг ёзишича, хоннинг мунтазам отлиқ қўшинлари 13 мингдан зиёд бўлган, ўзбек, туркман, ва қорақалпоқ хон қўшинининг асосий ўзагини ташкил этган. Навкарларга харбий хизматлари учун ер ажратиб берилган ва улар солиқлардан озод этилган. Рус элчиси Н.Муравьев ўз хисоботида шундай деб ёзади: “бутунлай янги давлат барпо қилди дейиш мумкин. Эндилиқда бу давлат Ўрта Осиёда энг кучли хонликлар жумласига киради”.

Мухаммад Рахимхон Кўнғирот элига шикор билан бориб, қайтишда Хўжа элида хасталаниб қолади. Хивага келгач касали зиёда бўлиб, табибларнинг давоси фойда қилмай бир ярим ойдан кейин бақо оламига кетади. У 1825 йил вафот этган. Унинг қабри Пахлавон Махмуд мақбарасида жойлашган. Мухаммад Рахимхон хива хонлиги учун қилган хизматлари бенихоя катта. Унинг бошқарув ислоҳатлари, харбий ислоҳатлари ҳамда чегараларни мустахкаллаб Хива хонлигини марказлаштирган ва ривожланишининг янги поғонасига кўтарган.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Йўлдашев М.Й. Хива хонлигидаги ер эгалиги ва давлат тузилиши Т.,1959й
2. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар Т., Ўқитувчи 1994й
3. Муминов И. История Хорезма древнейших времен до наших дней Ф.1989



**TARIX DARSALARINI TASHKIL ETISHDA KOMPYUTER  
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

**Matnazarova Shahnoza Bahodirovna,  
Xajiyeva Fazilat Farhodovna**  
Xorazm viloyati Xiva shahari  
9-umumiy o’rta ta’lim maktabining  
tarix fani o’qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumumiyy o’rta ta’lim maktabalarida darslarni mazmunli va samarali tashkil etish maqsadida kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish haqida fikr bildiriladi.

**Kalit so’zlar:** “Inson kompyuter”, axborot texnologiyasi, modullashtirish

Kompyuter texnikasining ta’lim jarayoniga kirib kelishi bilan “Inson kompyuter” muammosi markaziy masalalardan biri bo`lib qolmoqda. Bu muammo global va serqirra yo`nalishlarda bo`lib, kompyuter bilan turli xil ko`rinishdagi aloqa va munosabatlar asosida insonning bilim olish va dunyoqarashlari shakllanishining ilmiy – metodologik qarashlari konsepsiyasini yaratish zaruriyatini tug`dirmoqda.

Bu jarayonning to`g’ri, maqsadli tomonga qaratilgan yo`nalish, imkoniyatlarini topishga to`g’ri keladi.

Kompyuterli darslarni tashkil etuvchi, uni amalga oshiruvchi shaxslar:

- kompyutering tuzilishi, imkoniyati, boshqarish malakasini egallashi kerak.
- Kompyuter savodxonligini egallashi kerak.
- Ta’lim mazmunini dasturlash, loyihalash, modullash, algoritmlash, dasturlay olishi kerak.
- Kompyuterda o`quvchilarni individual ishlay olish, boshqarish malaksini shakllantirishi talab etiladi.
- O`quv jarayonida o`qituvchi dastur - kompyuter - o`quvchi munosabatlari o`rnatalishi taqozo etiladi.

Bunday darslar o`quv materialllarini o`quvchi tomonidan shaxsiy xatti -harakatlari orqali tez, soz o`zlashtirishlarga kafolat hisoblanadi.

Agar axborot texnologiyasi kompyuter asosidagi darslar maxsus ilgaritdan tayyorlangan dastur, loyihalar, modullar bilan ta’min etilsa, o`quv - biluv jarayoni samarali kechadi.

Axborot texnologiyasi, kompyuterlar yordamida ta’lim mazmunini algoritmlash uni modullarga ajratish, ketma - ketligini ishlab chiqish, dasturlab olish pirovard o`quv maqsadiga erishish yo’llarini ilgaritdan rejalashtirish imkonini beradi. Axborot texnologiyasi, kompyuterlar yordamidagi darslarning sifat ko`rsatkichlari quyidagi asosiy faktorlar bilan aniqlanadi:

- O`quv dasturining sifatli shakllantirilganligi
- Kompyuter texnikasining sifati va uning imkoniyatlari
- Shaxsning kompyuter imkoniyatlarini o`zlashtirib olish malakalarining shakllanishi shuning uchun ham axborot texnologiyasi kompyuter yordamidagi darslar dasturlangan loyihalangan hollarda amalga oshirish uchun qulay vaziyat yaratadi.

Loyihalashtirilgan, dasturlashtirilgan axborot texnologiyalari kompyuterli darslarning qulayligi shundaki, unda o`quvchining o`quv materialllarini o`zlashtirib olayotganligini doimiy ketma - ket kuzatishga, nazorat olib borishga, kerak hollarda tuzatishlar kiritib borishga imkoniyat yaratiladi.

-Ta’lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishdagi quyidagi bosqichlarga e’tiborni qaratish kerak:

- Ta’lim oluvchilarga o`quv materialllarini taqdim etish va tushuntirish bosqichi;
- Kompyuter bilan o`zaro muloqot jarayonida o`quv materialllarini o`zlashtirish bosqichi;
- O`zlashtirilgan bilim, ko`nikma va malakalarni takrorlash hamda mustahkamlash bosqichi;
- Erishilgan yutuq va natijalarni o`zini o`zi tekshirish orqali, nazorat qilish bosqichi;
- Oraliq va yakuniy nazorat bosqichi;
- O`zini - o`zi, shuningdek, oraliq va yakuniy nazorat bosqichlari natija va xulosalarga



ko`ra o`quv materiallarining taqsimlanishi, tasniflanishi, tizimga solinishini korreksiyalash, tuzatishlar kiritish bosqichi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, axborot texnologiyalarni qo`llash bo`yicha yaratilayotgan o`quv reja va dasturlarni yaratish, tuzish yuqorida keltirilgan bosqich yo`nalishlarni alohida - alohida modullashtirish, loyiha sifatida kiritish yaxshi natijalarga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” T.:2008
2. S.Usmonov. “Pedagogik texnologiya asoslari” T.:2004
3. Fuzailova G.S, Rahmatullayeva O.R.“Tarix fanini kasbiy sohalarga yo`naltirib o`qitish metodikasi”. Uslubiy qo`llanma. – T., TDPU, 2012.
4. Xodiyev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-studi - iqtisodiy oliv o`quv yurtidagi zamonaviy ta’lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo`llanma /“Zamonaviy ta’lim texnologiyalari” turkumi. - T.: TDIU, 2009.
5. J.Yo`ldoshev, F.Yo`ldosheva, G.Yo`ldosheva. “Interfaol ta’lim sifat kafolati”.-T.:2008



## OILADA FARZAND TARBIYASI

Musoyeva Xushvaqt Jo'raqulovna  
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 42-maktab  
Tarbiya fani o'qituvchisi  
Telefon: +998 91 308 37 81

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yoshlar tarbiyasi va ularning oiladagi o'rni, tarbiyaning asosi oila ekanligi, ota-onaning farzand tarbiyasida muhim o'rinni tutishi haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, oila, yaxshi xulq, odob-axloq, farzand.

Yosh avlodning har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi nafaqat ota-on, qolaversa, jamiyatning ham orzusi hisoblanadi. Yoshligidanoq muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish, aqliy va jismoniy mehnatni o'rganib, o'zlashtirib borishhamda har tong toza havoda sayr qilishni kundalik faoliyatga aylantirib olgan yoshlarning maqsadlari ham jamiyat maqsadi bilan mushtaraklik hosil qiladi. Natijada bunday inson jismoniy kuch-quvvatga to'ladi, ichki olami go'zallashadi, boshqalar bilan munosabati namunali bo'ladi. Mehnatsevar bo'lib, tafakkur darajasi yukasalib beraveradi. Mmustaqil fikrashi charxlanadi, teranlashadi, takomillashadi.

Bunday fazilatlarga ega bo'lgan yoshlar asta-sekin ruhiy tetiklik, ma'naviy yetuklikmaqomini qo'lga kiritib boradi. O'z Vatani sha'ni uchun uning mas'uliyati ham oshadi.

Inson aslida baxt va ezzulik uchun dunyoga keladi, shu orzu-uid bilan yashaydi. Lekin bu bilan ish bitmaydi, u shu niyatiga yetishi uchun intilishi, g'ayrat ko'rsatishi, yaxshilik ko'rishi uchun yaxshilik qilishi lozim. Insonning shakllanishida, hayotda o'z o'rnni topishadi, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo'lishida, yuksak axloq-odob qoidalarini o'zida mujassam etishida oila asosiy o'rinni egallaydi. Oila shunday makonki, unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi shaxs shakllanadi, etnik madaniyati, urf-odatlar, axloqiy-milliy qadriyatlar saqlanadi va rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va ma'naviy hayot poydevori qo'yiladi va mustahkamlanadi. Oila ahil va totuv bo'lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi.

Oilada tarbiyaning negizlariiga asos solinadi. U bolada shakllanishi lozim bo'lgan barcha insoniy munosabatlar va fazilatlarni tarbiyolovchi hayot maktabi hisoblanadi. O'zbek xalqi tabiatan bolajon xalq. Bolaga nisbatan bag'rikenglik, mehribaryolik, o'ta fidoyilik xalqimizga xos xususiyatlardir. Shu boisdan ota-onalarimiz farzandlarning puxta bilim olishlari, qiziqishlari bo'yicha kasb- hunar egallashlari, axloq-odob qoidalarini mukammal bilishlari va munosabat va fazilatlarini tarbiyolovchi hayot maktabi hisoblanadi.

Oiladagi bola tarbiyasi ikkiyoqlama ahamiyat kasb etadi, ota –analar farzandlarida axloq-odob, ruhiyat va ma'daniyatga oid bilimlardan saboq berish bilan qanoatlanib qolmasliklari, balki o'zlarini ham tarbiyaning o'ziga xos sir-sinoatlari, xususiyatlari, uning mazmun-mohiyati va ma'nosiga doir eng yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lib turishlari kerak bo'ladi.

O'z farzandlarida oqilona tarbiya bera olgan ota-onalar, umrlarini rohat va farog`atda o'tkazadigan bolalaridan hamisha olijanoblik, mehribonlik, yaxshilik ko'radilar, dillari aslo jarohat azobini sezmaydi; o'kinish hissiga duchor bo'lmaydilar. Shu to`g'rida o'zbek xalqidagi maqol darak beradi: “Toy ulg`aysa, ot tinadi (ya'ni ot minishdan qutqariladi)”.

Oilaning assosiy tayanchi bo'lgan ota, hayotning barcha mashaqqatlaridan totib ko'radi, o'zining bukilmas irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshliligi bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalananadi.

Xulosa qilib aytganda oilada bola tarbiyasining milliy o'ziga xos qoidalari mavjud bo'lib, ota-onalar ulardan o'rinni foydalanishlari lozim. Oilada ma'naviy-ruhiy xotirjamlik, o'zaro totuvlik hukmron bo'lsa, oila a'zolari bir-birlariga g'amxo'r bo'lsalar, bola tarbiyasining tayanch nuqtasini topa olsalar, bunday bunday muhit bola tarbiyasiga ijobjiy ta'sir etadi va ular farzandlariga haqiqiy baxt hadya etadilar, bu bilan ishimizda rivojlanish, jamiyatimizda olg'a siljish bo'ladi.

### Foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduraim 'Ulug'ov. Oilada farzand tarbiyasi. Toshkent. 2020.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent. 2009-y.
3. Z. Zamonov, O. Maxmudov. Tarbiya. Darslik. 8-sinf. Toshkent. 2020-y.



## TA’LIM TIZIMIDA TARIX FANINI O‘QITISHNING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

**Turg‘unova Feruzaxon**

Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani  
19-umumiy o‘rta ta’lim maktabi Tarix fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** maqlada hozirgi kundagi ta’lim tizimida tarix fanining o‘qitishni ahamiyati xususida fikrlar berilgan.

**Kalit so‘zlari:** tarix, mumammoli vaziyat, didaktik o‘yinlar, interfaol usullar.

Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda tarix fani sobiq mustabid tuzum mafkurasidan voz kechib, yangi yondashuvlar bilan bog‘liq o‘zgarishlarga yuz tutdi. Fan taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish O‘zbekiston tarixchilari zimmasiga jahon amaliyoti yutuqlaridan kelib chiqib, tarix fanini yanada yuqori ilmiy-nazariy darajaga olib chiqish vazifalarni yuklamoqda.

Tarix fani bugungi kunda har qachongidan ham e’tiborga molikdir. Mamlakatimiz taqdirida nihoyatda muhim bo‘lgan ushbu davrda, har bir vatanparvar shaxs, unda faol ishtirok etishi, mavjud muammolarning yechimini izlashi lozim. Bu yechim – xalqlarining ko‘p asrlik tarixidir. Tarix sahnasida inson o‘zining fazilatlari va nuqsonlari bilan hamisha asosiy omil bo‘lib kelgan. Shu sababdan o‘tmishni jonli, doimiy rivojlanishda bo‘lgan mujassam birlik – ya’ni insoniyat tarixini bilmay turib biz bugungi kunni tushunishimiz, bo‘layotgan jarayonlarni anglab yetishimiz qiyin bo‘ladi.

O‘quvchilarning o‘quv–bilish vazifalarini bajarishlari ularning yangi materilani o‘zlashtirishlari uchun zarur bo‘lgan ilgarigi bilimlarini faollashtiradi, o‘qituvchi bunday vazifalarni ilgari o‘tilgan materialni bolalardan so‘rab chiqish vaqtida beriladigan vazifalar ilgari o‘rganilgan material bilan mavzu jihatdan bog‘langan yangi materialni tahlil qilish va umumlashtirishga undaydi. Masalan, Movarounnahrda markazlashgan davlatning tashkil topishi to‘g‘risidagi materialni bolalardan so‘rab chiqish vaqtida reja tuzish o‘quvchilarga ma’lum bo‘lgan jarayon bilan ular o‘rganishga kirishayotgan Mo‘g‘ulistonidagi shunga o‘xshash jarayon o‘rtasidagi umumiyligini topishga yo‘naltiradi. O‘qituvchining Amir Temuring hokimiyat tepasiga kelishiga doir materialiga yakunlovchi umumlashtirishi, markazlashgan davlatning tashkil topish sabablarini va bu jarayonning qanday borganini ta’kidlab o‘tishi ham o‘quvchilarni yangi mavzuni o‘rganishga tayyorlash ko‘rinishi hisoblanadi.

Tarix darslarini samarali tashkil etishning yana bir yo‘li muammoli vaziyatlar vujudga keltira olish va aynan shu jarayonda didaktik o‘yinlardan foydalanishdan iborat. Tarix darslarida o‘qituvchi har bir mavzuga oid ko‘rgazma, xarita va turli o‘yinlar usullaridan foydalanishi mumkin ekan, avvalo har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik tajribasiga murojaat qiladi, undan foydalanish imkinoyatini izlaydi. Shu o‘rinda dars samaradorligini oshirish qanday maqsadlarni ko‘zlashini ham aytib o‘tilishi lozim. O‘tilayotgan mavzudan ko‘zlangan maqsadni uqtirish bilan birga, o‘quvchilar tanlangan materialni faol idrok qilishga safarbar etilgan bo‘lishlari kerak. Ya’ni o‘qituvchi bayon qilayotgan materiallar muammoli savollar orqali yetkazilishi o‘quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, mavzuni ongli o‘zlashtirishga intilishlarini ta’minlamog‘i lozim. Ajratilgan vaqt ichida o‘qituvchi materialni tizimli, izchil bayon qilish bilan bir vaqtda, o‘quvchilarni ham albatta, mavzuga oid mustaqil ish olib borishlarini ta’minlashi juda muhimdir. O‘qituvchi dars materiali yuzasidan shunday muammoli savollar bersinki, mavzuni bayon etish jarayonida o‘quvchi fikrlasini, izlansin, tarixiy voqeani tahlil eta olsin.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim – tarbiya jarayonini hozirgi zamон talablariga mos holda tashkil etган o‘qituvchi har bir mavzu mazmuniga mos holda o‘quvchilarni kasbga yo‘llashi va shu kasblarini egallashlari uchun qanday bilimlarga ega bo‘lish lozimligini to‘g‘ri tushuntira borishi kerak. Bunday maqsadlarni ro‘yobga chiqarishda tarix darslarini tashkil etishning an‘anaviy shakklardan voz kechib turli interfaol usullardan foydalanish hozirgi vaqtda tarix o‘qitish ta’limi oldidagi dolzarb muammo hisoblanadi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar.**

1. Azizzxo‘jayeva N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – T.: 2004 yil.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.:1998
3. Rajabov Q., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi. –T: 2017



## СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТА ИСТОРИИ

Кронфельд Лидия Кенжаевна,  
Навоийская область, г. Навоий  
ШШУИОП №1, учитель истории  
Телефон : +998979998878

**Ключевые слова:** эмоциональная устойчивость, классификация профессий, компетентность, самосовершенствование.

История школы свидетельствует о том, что в разные периоды ее развития цели обучения менялись и дополнялись в соответствии с господствовавшими социальными целями и мировоззрением.

На современном этапе, в наиболее последовательной форме – изучение знаний и применение их на практике дополнены новой целью – целенаправленно и последовательно развивать самостоятельность учащихся, их умения приобретать и творчески применять новые знания.

Сегодня педагог должен не только владеть знаниями о дидактических методах, но уметь их применять в педагогическом процессе. В педагогической практике при их отборе преподаватель сталкивается со значительными затруднениями.

### *Иновационные технологии в преподавании истории.*

Совокупность методов и приемов составляют технологии обучения. Рассмотрим несколько технологий, хорошо зарекомендовавших себя на уроках истории.

### **Технологии развития критического мышления.**

Критическое мышление — это способность ставить новые, полные смысла вопросы; вырабатывать разнообразные, подкрепляющие аргументы; принимать независимые продуманные решения.

актуальность данной системы обучения состоит в том, что учащиеся включаются в активную и эффективную учебно-познавательную деятельность. Обучение, со стороны ученика, носит уже субъективный осознанный характер. Учитель, работающий в русле критического мышления, уделяет большое внимание выработке качеств, необходимых для продуктивного обмена мнениями: терпимости, умению слушать других, ответственности за собственную точку зрения. Таким образом, педагогу дается возможность приблизить учебный процесс к реальной жизни.

Основы методики критического мышления включают три стадии, которые должны присутствовать на уроке в процессе познания: вызов (пробуждение), осмысливание (реализация), рефлексия (размышление).

Технология предлагает разнообразный набор приемов работы:

### **Возможные приемы и методы:**

Необъявленная тема

Мозговая атака (штурм)

«Корзина» идей, понятий, имен...

Верные и неверные утверждения;

Понятийное колесо;

Дерево предсказаний;

Ключевые слова;

Знаем. Хотим узнать. Узнали;

Кластер и др.

Развитие критического мышления на уроках истории эффективным является применение кластеров, которые ученики составляют с большим интересом, как правило, 5-8 классы. Например: КЛАСТЕР

### **Метод развития критического мышления**

Таксономия целей Блума

В 1956 году профессор Чикагского университета Бенджамин Блум опубликовал книгу «Таксономия образовательных целей». Он выделил шесть уровней познавательной деятельности, которые десятилетиями успешно использовались в педагогике как руководство



при планировании обучения, стимулирующего развитие у учащихся мыслительных навыков высокого уровня.

**Литература:**

1. Веретенникова, Л. К. Развитие творческого потенциала младших школьников// Учебн. пособие. в 2 ч. — Москва, изд. Альфа,2008.



## TARIX DARSLARIDA NOANANAVIY TA'LIM TURLARI

Atoyeva Sanobar G‘ofurovna  
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani  
15-umumiy o‘rtta ta’lim maktabi  
tarix fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix darslarida noananaviy ta’lim turlari xususida so‘z boradi.  
**Kalit so‘zlar:** “To‘rtinchisi ortiqcha”, SWOT, tarixiy atamalar, demokratiya...

Yurtimizda barcha soha va tarmoqlarda demokratik yangilanish jarayoni kechayotgan bugungi kunda eng bebeho ne`mat –mustaqillikning qadr-qimmati va ahamiyati tobora ortmoqda. Istiqlol yillari ta’lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Shuningdek, o‘quv- tarbiya jarayoniga ilg`or pedagogik va axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o‘qituvchilarning jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirish orqali ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha ko‘plab vazifalar belgildi.

*“To‘rtinchisi ortiqcha” usuli. Bunda turli mavzularga oid tarixiy  
atamalar beriladi. O‘quvchilar bir mavzuga oidini  
tanlashadi. Ortiqchasini aytishadi.*

1. Tavochi	1. Barong’or
2. Kejim	2. Javong’or
3. Jevachi	3. Hirovul
4. Qurchi	4. Naftandoz
1. Cho‘qmor	1. Abulfayzxon
2. To‘fang	2. Ubaydullo Sulton
3. Qalb	3. Muhammad Temur
4. Naftandoz	4. Abu Said Sulton


**Javobi:**

Kejim-chunki otlar ustiga yopilgan yopinchiq, qolgan 3 tasi harbiy mansablar

Naftandoz- qurol, qolganlari harbiy bo‘linma nomlari

Qalb-qo‘sining markaziy qismi, qolgan 3 nafari qurol turlari

Abulfayzxon- ashtarxoniylardan, qolganlari shayboniylardan.



Bunda tarixiy shaxslar, voqealar tahlil qilinadi va o'sha davr o'rganiladi. SWOT tahlilida o'quvchilar o'zlarining mustaqil fikrlarini erkin bayon etadilar.

Shuningdek, o'quvchilar xonliklardagi davlat lavozimlarini vazifasi bilan yaxshiroq eslab qolishlari va tushunarli bo'lishi uchun **Mosini toping!** usulidan foydalanamiz.

Bunday lavozimlar adabiyot fanidan o'tiladigan tarixiy va badiiy asarlarda ko'p uchraydi, agar tarixiy lavozimlarni o'quvchilar yaxshi eslab qolsa, asarlarda uchraydigan bu lavozim egalarini vazifasini bemalol ajrata oladilar.

1	Devonbegi	A. Xon farmonlarini, hujjatlarni ijrochilarga yetkazish
2	Otaliq	B. Dargoh xavfsizligi va unda o'rnatilgan tartibga rioya qilinishi uchun javobgar
3	Parvonachi	C. Zakot va boshqa tushumlarning zarur o'rnlarda ishlatalishini nazorat qilgan
4	Dodhoh	D. Jamoat tartibini saqlanishi, diniy marosimlarga, narxnavo va tarozilarining to'g'riligi uchun mas'ul bo'lган
5	Ko'kaldosh	E. Sudlov ishlariga boshchilik qilgan
6	Eshikog'aboshi	F. Shahzodalarga ustoz, rahnamo nazoratchisi
7	Shayxulislo'm	G. Ichki va tashqi siyosatda xon maslahatchisi
8	Qozikalon	J. Moliya va xo'jalik ishlarini boshqargan
9	Muhtasib	K. Obodonchilik ishlarini boshqargan
10	Mehtar	L. Xon siyosatining daxlsizligini ta'minlagan
11	Naqib	M. Shariat qonunlarini bajarilishini nazorat qilgan
12	Saroy qutvoli	N. Dargohga tushgan arizalarni qabul qilgan

### “Bilasizmi?” usuli

Bunda yangi mavzuga oid savollar beriladi va javoblari so'raladi. Masalan: Jaloliddin Manguberdi haqida nimalarni bilasiz?



Tarix darslarida o‘quvchilarning yoshi, psixo-fiziologik xususiyatlari, umumiy o‘rta ta’lim tayyorgarligiga mos hamda tarixiy materiallarni asta-sekin, oddiydan murakkabga tomon borish asosida fandan iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash ta’lim jarayonini takomillashtirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, o‘quvchilardagi qobiliyat va iste’dodni yanada kamol toptirishda o‘quvchilar kompetensiyalarini shakllantirish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.J.Ishmuhamedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. –T.: TDPU, 2004.
2. Internet saytlari va metodik qo’llanmalar.



TARIX DARSLARI ORQALI O’QUVCHILAR ONGIDA VATANPARVARLIK  
TUYG’USINI SHAKLLANTIRISHDA JALOLIDDIN MANGUBERDI SIYMSOSINING  
O’RNI

**Botirova Nargiza Muxiddinovna**  
Navoiy shahar 20-umumiyo o`rta ta`lim maktabi  
tarix fani o`qituvchisi

**Annotatsiya:** tarix darslari orqali o`quvchilar ongida vatanparvarlik tuyg`usini shakllantirishda Jaloliddin Manguberdi siyomsining o`rni va ulug` sarkarda jasoratini o`quvchilarga o`rgatish usullari ushbu maqolada aks etgan.

**Kalit so`zlar:** so`nggi xorazmshoh, odil va haqqoniy hukmdor, qo`rqmas chavandoz, qahramonlik....

Tarixni haqqoniy anglash oson ish emas. Moziydan darak beradigan manbalarning qay biri sahif, qay biri yolg`onligini ajratish ham quduq tubidan ignani topishdek gap. Shu bois ham tarixnavislar o`z ko`zi bilan ko`rmagan voqealar tasviridan so`ng, “Bilim Allohg`a xosdir” deyishadi. Shunday bo`lsa-da, tarix labirinti aro haqiqatni tanlay bilish zukko kitobxonning ixtiyorida qoladi. Hayot yo`li va vafoti haqida turli xildagi ma`lumotlar bizgacha yetib kelgan buyuk vatanparvar sarkarda Jaloliddin Manguberdidir.



Jaloliddin Manguberdi (to`liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad) Xorazmshohlar davlatining so`nggi hukmdori, mohir sarkardasi. Anushteginiylardan bo`lgan Jaloliddin burnida xoli (mank) bo`lgani uchun Mankburni nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o`zgarib “Manguberdi” nomi bilan mashhur bo`lib ketgan. Jaloliddin Manguberdining yaqin a`yonlaridan biri bo`lgan, mashhur tarixchi Shahobiddin Muhammad Nasaviy buyuk bobomizni shunday tasvirlagan: “...U bug`doyrang, o`rta bo`yli, turkiy qiyofali va turkiyda gapiradigan odam edi, shu bilan birga, forsiyda ham so`zlasha olardi. Uning mardligi, jasurligiga kelsak, janglardagi qahramonliklarini eslab o`tishning o`zi kifoya qiladi. U sherlar orasida eng zo`r sher edi, qo`rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U jahldor emasdi, haqoratomuz so`zlarni aytmasdi. U

nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo`yardi, kam gapirardi...” Jaloliddinga nafaqat jangchilari, balki aholisi ham odil va haqqoniy hukmdor o`rnida madad ko`rsatgan.

Jaloliddin Manguberdi garchi jangda mag`lub bo`lgan bo`lsada, ma`nan g`olib bo`lganini hatto Chingizxon ham tan olgani ham tarixiy haqiqatdir. Bu haqda Mirzo Ulug`bek “To`rt ulus tarixi” kitobida shunday yozadi: “Sultonning barcha fe`l-u harakati Chingizxonga manzur bo`lib, tahsin og`zini ochib, o`g`illariga yuzlandi va dedi:

-Otaga shunday o`g`il zarurki, u ikki girdob — olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa oldi! Bu sultondan ko`p ishlar va hisobsiz qissalar vujudga keldi va uning ishlaridan har qanday oqil o`g`il g`ofil qolmasligi kerak!”

7-sinflarda Jaloliddin Manguberdi jasoratini o`rganish uchun

**“O`zingni sinovdan o`tkaz” metodi** samarali metod hisoblanadi. Bunda o`quvchilar 2 guruhga ajratilib, mavzudan olgan taassurotlari, bilim va malakalarini sinovdan o`tkazish maqsadida “O`zingni sinovdan o`tkaz” toshirig`i asosida o`tilgan mavzularga aqliy hujum asosidagi tezkor savol-javoblarga javob berishlari aytildi.

**“O`z xotirangni sinovdan o`tkaz” metodi.**

Bunda o`qituvchi “Jaloliddin – mohir sarkarda”, “Vatanparvar siymo”, “Adolatli hukmdor” kabi mavzular yozilgan tarqatmalarini guruhlarga tarqatadi. O`quvchilar esa eslab qolganlari asosida mavzuga oid ma`lumotlarni xatosiz sanashbahsi tashkil etishadi.

**“Buyuk siymolarga tavsif” metodi.** Bunda oldindan o`quvchilarga buyuk siymolar Jalolliddin Manguberdi, Amir Temur (boshqa allomalar ham berilishi mumkin) hayoti faoliyatini



chuquro`rganib kelish topshiriladi. Dars davomida esa ularga tavsif berishlari va berilgan ta`riflar kimga tegishliliginizni topishlari lozim bo`ladi.



**“Besh bosqichli konspekt” usuli**. Bunda 1 dan 5 gacha bo`lgan raqamlarda raqamlar qiymaticha ma`lumotlar, ya`ni, 1ga bitta, 2ga ikkita, 3ga uchta, 4ga to`rtta, 5 ga beshta ma`lumot – jami 15ta ma`lumot saralanadi. Barcha raqamlardagi ma`lumotlar faqat bir axborotni tashkil etishi, va ketma-ket izchillikni tashkil etgan bo`lishi kerak. Buning uchun o`qituvchi mavzuni rejalashtirib, shu rejalarbi guruhlarga tarqatishi va o`sha rejalar “besh bosqichli konspekt” qilinishi lozim.

Xullas, yuqorida keltirilgan metodlarni turli xildagi o`yinlar orqali davom ettirish mumkin. Oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri har bir o`quvchiga puxta va chuqur bilim berish, tarix faniga qiziqishini oshirish, ularning har tomonlama rivojlanishlarini ta`minlashdan iborat. Bu hol o`qitish metodlarini yanada takomillashtirishni talab etadi. O`qitishda o`quvchilarining bilish faoliyatini faollashtirish o`quvchilarning ongliligi va faolligini ta`minlash bilan uzviy bog`liq. Shuni unutmagan holda har bir darsni fanlararo bog`liqlik asosida tashkil etish barchamizning asosiy vazifamizga aylanishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Darliklar bo`yicha qo`llanmalar
2. Ziyo.uz



## O’QUVCHILARDA TARIX FANIDAN ANIQLANGAN BO’SHLIQLARNI TO’LDIRISH

**Islomova Dilobar**

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani  
xalq ta’limi bo‘limiga qarashli  
42-umumiy o‘rtta ta’lim məktəb  
tarix fani o‘qituvchisi

Tarix darslarini qiziqarli tarzda o‘tish nafaqat o‘quvchining bugungi kunini mazmunli o‘tkazishga, balki uning butun umrini mazmunan boyitishga xizmat qilishini umutmasligimiz lozim.O‘quvchilarga davlatchiligidimiz tarixi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligini anglatish, ajdodlarimizning ma’naviy merosi va jasoratlaridan ibrat olishga, ularga munosib voris bo‘lishga, o‘quvchilarni tarixiy voqealarni idrok etishga yo‘naltirish orqali ularning o‘zligini anglash, shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradigan tushunchalar, milliy, umuminsoniy qadriyatlarni o‘quvchilar ongiga singdirish ustozlarning asosiy vazifasi sanaladi. Hozirgi kunda tarix darslarida foydalanish uchun juda ko‘plab metodlar joriy etilgan. Tarix darslarida “Mozaika”, “Klassler”, “Tarixdan bilimlar mamlakatiga sayohat”, “Terminator”, “CHaynvord”, “Zinama-zina”, “TTT” “Ortiqchasini top?” kabi ko‘plab metodlardan samarali foydalanishimiz mumkin. SHuningdek axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o‘quvchilarga tarixiy filmlar, animatsiyalar qo‘yib berish ham o‘quvchilarning mavzularni oson o‘zlashtirishlarida yordam beradi.

2017-2018-o‘quv yilida tarix fanidan o‘tkazilgan monitoring natijalariga ko‘ra bir qancha mavzular yuzasidan o‘quvchilar bilimida bo‘sliqlar borligi aniqlangan. Hususan, 8-sinflarda O‘zbekiston tarixidan “Movarounnahrda shayboniyalar sulolasiga hokimiyatining o‘rnatalishi”, “Z. M. Bobur – buyuk davlat arbobi va mutafakkir”, “Ashtarkoniylarning hokimiyat tepasiga kelishi”, “XVI asrda Buxoro xonligida madaniy hayot” va boshqa mavzularda. SHuningdek jahon tarixi fanida “Angliyaning dunyoda birinchi sanoat mamlakatiga aylanishi”, “Niderlandiya inqilobi”, “Angliyada fuqarolar urushi va uning oqibatlari” va boshqa mavzularda o‘quvchilar bilimida bo‘sliqlar aniqlangan. O‘quvchilar bilimidagi bo‘sliqlarni to‘ldirish uchun o‘qituvchi o‘quvchilar bilan qo‘srimcha mashg‘ulotlar olib borishi, darslari qiziqarli, mazmunli va o‘quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladigan tarzda tashkil etishi lozim.“Botgan quyosh uchun aslo kuyinmang, aksincha yangidan chiqqanida nima ish qilish zarurligini o‘ylang” degan edi Deyl Kornegi. SHunday ekan ustozlar ham har kuni o‘quvchilarga yangi bilimlarni etkazishda, o‘quvchilar xotirsida uzoq vaqt saqlanib qolishi va mavzularni yaxshi o‘zlashtirishlari uchun nimalar qilishlari kerakligi haqida o‘ylashlari lozim.



Ushbu tavsiya etiladigan metodlar va dars ishlanmalar tarix fani o‘qituvchilari uchun ozgina bo‘lsa ham o‘quvchilarning bilimidagi bo‘sliqlarni to‘ldirishda va namunali darslarni tashkil etishda, ta’lim sifat va samaradorligini oshirishda xizmat qilsa, biz maqsadimizga erishgan bo‘lamiz.

### Tarix darslarida foydalaniladigan metodlar: “Xaritani bo‘ya!”



kompetensiyasi shakllanadi.

“Xaritani bo‘ya” metodidan 5-9-sinflarda tarix va huquq darslarida mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Bunda O‘zbekiston siyosiy xaritasini viloyatlar bo‘yicha qismlarga bo‘linadi. Har bir qismga berkitilgan savollar qo‘yiladi. O‘quvchilarga savollar beriladi. O‘quvchilar savollarga javob berishsa qism o‘z o‘rniga joylashtiriladi. SHu tariqa O‘zbekiston hududidagi 12 ta viloyat va Qoraqalpog‘iston Respublikasi joylashtiriladi va rangli xarita hosil bo‘ladi. O‘zbekiston xaritasi tiklanadi. O‘quvchi xaritani bo‘yashga bo‘lgan qiziqiqish uni savollarga javob topishga undaydi. Matematik savodxonlik



yulduz ilinadi.

### “Kun va tun”

O‘tilgan mavzuni takrorlashda “Kun va tun” metodidan foydalananib, o‘quvchilarning bilimlari mustahkamlanadi. Bunda ko‘rgamaning kun va tun qismi berilgan. kun qismida Quyosh bulutlar ortiga berkingan, savollarga javob berish orqali bulutlar terib olinadi va tun qismi yulduzlar bilan charog‘on qilinadi. Har bir berilgan to‘g‘ri javobda bitta

### “Lider bo‘laman”


YAngi mavzuni mustahkamlashda “Lider bo‘laman” usulidan foydalanamiz. Bunda 3 tadan o‘quvchi doskaga chiqariladi. 3 ta savol beriladi. Qaysi o‘quvchi tezkorlik bilan harakat qilib savolga 1-javob bersa va qaysi o‘quvchi 3 ta savolning 2 tasiga tezkorlik bilan javob bergeniga qarab lider bo‘lib boraveradi. Xuddi shunday bir necha o‘quvchilar chiqariladi. Oxirida lider bo‘lib olgan 3-4 o‘quvchi savol-javob qilinib 1-lider aniqlanadi. 1-liderga a’lo baho va ko‘krak nishoni beriladi, qolgan liderlar a’lo va yaxshi baho bilan baholanadi.

### “Topqirlilik yoki lahzada javob”

Ushbu metoddan barcha darslarda foydalanish mumkin. Mavzularga oid qisqa va tez javob beriladigan savollar tuziladi. O‘quvchi topqirlilik bilan tezda javob berishi mumkin. Bu usul bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun ham foydali bo‘ladi.


### “Tarixdan bilimlar mamlakatiga sayohat”

Ushbu metoddan 5-9-sinflarda foydalanish mumkin. Bunda bekatlar belgilanadi. 5-7 tagacha bekatlar qilish mumkin. Savollar oddiydan murakkablashib boradi. Birinchi berilgan savolga javob bergen o‘quvchi bekatga chiqadi. Keyingi savol beriladi. Javob to‘g‘ri bo‘lsa, keyingi bekatga o‘tib ketiladi va oxirigi bekatgacha shu tarzda davom etadi. Savolga javob bo‘lmasa, qaysi bekatda turgan bo‘lsa o‘sha bekatdan tushib qoladi. Boshqa javob bergen o‘quvchi chiqadi va 1- bekatdan qayta boshlanadi. Barcha savollarga to‘g‘ri javob bergen o‘quvchi tarixdan bilimlar mamlakatiga etib kelgan bo‘ladi.



### “Hosilni teramiz”

Bu metod butun dars davomida o‘quvchilarni faol bo‘lishga undaydi. Bunda turli mevali daraxtlarning tasvirlari mevalar bilan birga qo‘yiladi. O‘quvchilar darsda ishtirok etish orqali mevalari terib boradilar. YAngi mavzuni o‘rganishda ham samarali natija bo‘ladi. O‘quvchilar mavzu yuzasidan o‘rganib kelgan ma’lumotlarini aytishga harakat qiladi. Guruhlar bilan ishslash mevalarning turli xilidan foydalanish mumkin. Masalan: olma, anor, nok va shu kabi. Qaysi guruh o‘z mevalarini to‘liq terib olsa rag‘batlantiriladi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni;
2. Karimov I. A. “YUksak ma’naviyat – engilmas kuch” T. “Ma’naviyat” 2015;
3. Karimov I. A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. T: “SHarq” NMK Bosh tahririyati -1998;
4. SH. M. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”.  
T. “O‘zbekiston”- 2017
5. Jahon mamlakatlari qisqa ma’lumotnomasi.
6. Abdullaev A. “Daqiqa qadri – 2” 1001 savol va javob, 2010.
7. SH. Ergashev, T. Bobomatov “XX asr: taqdirlarda aks etgan tarix” T. “O‘zbekiston”- 2016




## “SIRLI SO‘Z” - MIRZO BOBUR HAQIDA

Jumayeva Gulchiroy

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani  
xalq ta‘limi bo‘limiga qarashli 42-umumiy  
o‘rta ta‘lim maktab tarix fani o’qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada o‘quvchilarga tarix fanidan Zahiriddin Muhammad Bobur Haqida chuqurroq tushuncha berilishiga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Bobur, tarix fani, Samarqand, Bog‘i kalon.



Bobur tarixiga nazar solgan

Samarqand aholisi shayxulislom Abulmakarim boshchiligidan temuriylar hukmdorligini tiklash chorasi izladilar. Samarqand rahnamolari Farg‘ona hokimi Bobur Mirzoga maktub yo‘llab, Samarqand taxtini egallashga da‘vat etdilar. Sulolasi manfaatlariga sadoqatli bo‘lgan Bobur Mirzo 1500- yilning kuzida Samarqandga yurish boshladi. Bu paytda SHayboniyxon Samarqanddan tashqarida Konigil (shahardan tashqaridagi hukmdorlar hordiq chiqaradigan joy)da turar edi. Aholi tomonidan Samarqandning darvozasi Bobur Mirzoga ochib berildi va uning qo‘smini shiddat bilan hujum qilib, SHayboniyxonning bu erda qoldirib ketgan 600 kishilik askarini qirib tashladi. SHunday qilib, Bobur Mirzo Samarqand taxtini ikkinchi marta egalladi. SHayboniyxon Buxoroga chekinadi va bo‘lajak hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Bobur Mirzo ham qish bo‘yi urushga jiddiy tayyorgarlik ko‘rdi. 1501- yil aprelida Zarafshon bo‘yidagi Sariðul qishlog‘i yaqinida yuz bergan og‘ir urushda Bobur Mirzo engildi. Bobur Mirzo Samarqandga chekinadi. G‘olib SHayboniyxon Samarqandni qamal qilib, Bobur Mirzoga sulh taklif qildi. Sulh shartlari Bobur Mirzo uchun juda haqoratli bo‘lsa-da, unga rozi bo‘lmaslikdan boshqa chorasi yo‘q edi.

Og‘ir va nochor ahvolga tushib qolgan Bobur sulhga binoan Samarqandni tark etib, o‘zga yurtlarga ketishga majbur bo‘ldi. Bobur Mirzo Kobulga borib, bu erda 1504-yilning sentabr oyida hokimiyatni qo‘lga kiritdi. Bobur 1511-yil kuzida shoh Ismoil yordamida Samarqandni uchinchi marta qo‘lga kiritdi. Bobur Samarqandni egallagach, shoh Ismoilni oliv hukmdor deb e’lon qildi. SHoh Ismoil islomning shia oqimiga e’tiqod qilardi. SHuning uchun ham Samarqand xalqi uni qo‘llab-quvvatlamadi.

Bobur endi Movarounnahrdan tamoman umidini uzib, yana Kobulga qaytdi va 1526-yilga qadar Kobulni idora qildi. So‘ngra Kobulni ikkinchi o‘g‘li Komron Mirzoga qoldirib, o‘zi Hindiston sari yurish boshladi. Hindistonda qudratli va shavkatli saltanat egasi bo‘lganida ham Vatan xayoli, ayrılıq alami Bobur Mirzoni aslo tark etmagan va u quyidagi hasratli satrlarni bitgan edi:

Bobur 1526-yilning 21-aprelida Dehli hukmdori Ibrohim Lo‘diy qo‘sishinlarini tor-mor keltirdi. Bu g‘alaba natijasida Bobur Shimoliy Hindistonni egalladi. 1526-yilning 27- aprelida Dehli shahrida podshoh Bobur nomiga xutba o‘qildi. SHu tariqa Hindistonda boburiylar sulolasiga asos solindi. Bobur shoh Hindistonda bir-biri bilan dushmanlik kayfiyatida bo‘lgan mayda mustaqil rojalarni ham qilich, ham siyosat yo‘li bilan birlashtirdi va markazlashgan yirik saltanatni barpo etdi. Bu saltanat 332 yil (1526 -1858-yillar), ya’ni Hindistonni Buyuk Britaniya to‘liq bosib olguniga qadar hukm surdi.


Chet ellarda, shu jumladan, Hindistonning o‘zida ham Bobur podshohni va uning avlodlarini “buyuk mo‘g‘illar” deb atashgan. Bu mutlaqo xato. Boburiylar yurdoshimiz, temuriyzoda Boburning avlodlaridir. Ular tarixiy hujjatlarda o‘zlarini “boburiy mirzolar” deb yuritishgan. Boburiylarning mo‘g‘illar deb xato atalishiga evropaliklarning Amir Temurni va temuriylarni mo‘g‘illardan kelib chiqqan deb noto‘g‘ri hisoblashlari sabab bo‘lgan. So‘nggi yillarda “buyuk mo‘g‘illar” deb atalgan ibora o‘rnida “boburiylar” iborasi qo‘llanishi bilan tarixiy haqiqat tiklandi.

Bobur shoh 1530-yilning 26-dekabrida 47 yoshida vafot etdi. Uni Agra shahrida, Jamna daryosi yonidagi “Bog‘i Orom”ga dafn etadilar. Uning vasiyatiga ko‘ra, bir necha yildan so‘ng Bobur shoh jasadi Kobuldagisi “Bog‘i Kalon”ga ko‘chiriladi. Bu bog‘ni Boburning o‘zi katta mehr bilan obod qilgan edi. Keyinchalik bu bog‘ “Bog‘i Bobur” deb atala boshlangan. Bobur SHarq mamlakatlari taxtiga munosib hukmdorlarning yorqin namoyandalardan biridir. Bobur bobokaloni Amir



Temurdek buniyodkorlik ishlariiga katta e'tibor bilan qaragan davlat arbobi edi.

Zahiriddin Bobur bilimga chanqoq buyuk davlat arbobi bo'lganligi uchun ham bilim olishga intilganlarga hamisha otalarcha g'amxo'rlik qilgan. Uning o'zi ham ajoyib olim, turkiy nazmda asarlar bitgan Alisher Navoiydan keyin turadigan tengi yo'q shoir, yirik bastakor edi. Bobur shoh o'zining “Boburnoma” hamda “Mubayyin”, “Turkiy devon” kabi asarlari bilan mashhur ijodkor hamdir. “Boburnoma” asari Movarounnahr, Xuroson va Hindiston tarixini to'g'ri aks ettirgan asardir.



Bobur shoh yashagan o'sha ziddiyatli, beomon, besaranjom zamonda davlatni boshqarish uchun jasur sarkarda bo'lish juda muhim edi. Tabiat Bobur shohga ana shunday xislatni in'om etgan edi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan “Bobur” (“SHer”) laqabini oladi. Bu nom unga bejiz berilmagan edi. U ajoyib suvori, suzuvchi, qilichboz, kamonboz edi. Uning vujudida sarkardalarga xos dovyuraklik, serg'ayratlik, epchillik mujassam edi. Epchillikda unga teng keladigan odam kamdan kam topilgan. Manbalarda qayd etilishicha, u jismoniy jihatdan ham shunday baquvvat bo'lganki, ikki qo'lting'iga ikki odamni olib qal'a devori ustida mashq qilgan. Bundan tashqari, Bobur o'limga tik qarash, o'ziga va o'z taqdiriga ishonish kabi fazilatlarga ega bo'lgan. Bu fazilatlar esa Boburga kishilarni doimo o'z orqasidan ergashtirish imkonini bergen.

Bobur kimlar bilan janglarda to'qnash kelgan bo'lsa, ularning tajribalarini o'rgangan. CHunonchi, shayboniylardan urushning “to'lg'ama” usulini, mo'g'illardan pistirma qo'yish, afg'onlardan poroxli miltiq ishlatishni o'rgangan. Bundan tashqari, Bobur kuchli to'pchilar qo'shinini tuza olgan. Boburning mohir sarkardaligini hatto chet el olimlari ham tan olganlar.

Zahiriddin Bobur nafaqat buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, shoir, bastakor, ayni paytda, yirik tarixchi olim hamdir. Uning nomini abadiylikka muhrlagan asar “Boburnoma”dir. Bu asar - Movarounnahr, Afg'oniston, Hindiston va eron xalqlari tarixi, geografiyasi haqida juda qimmatli ma'lumotlar beradi.

Bu xotira asarlar sirasiga kiradi. Asar 1493 - 1529-yillar oraliq'ida bo'lib o'tgan tarixiy voqealar haqida yilma-yil hikoya qiladi. Asarda ba'zi temuriyzoda hukmdorlarning birgalashib umumiyl dushmanaga qarshi kurashish o'mniga o'z dushmanlari bilan o'z manfaatlari yo'lida (Vatan manfaati yo'lida emas) kelishishga qilgan harakatlari tanqid qilinadi.

Hindistonning aksari viloyatining tuz erdan bo'libtir Hindistonning bir ulug' aybi budurkim, oqar suvi yo'qtur". Boburning adabiy-badiiy faoliyatida nozik lirik she'rlar katta o'rin tutadi. Ularda insoniylik, mehr-muruvvat g'oyalari ilgari suriladi.

Uning “Mubayyin” asarida o'sha zamon soliq tizimi, soliq yig'ishning qonun-qoidalari bayon etilgan. Bobur ayni paytda, “Xatti Boburiy” deb ataluvchi alifbo ham yaratgan.

O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan 1993- yilda Bobur tavalludining 510 yilligi keng miqyosda nishonlandi. Boburning buyuk xotirasini ulug'lash yo'lida katta ishlar amalgalashishga oshirildi. CHunonchi, Andijonda Bobur haykali o'rnatildi, ramziy qabr maqbarasi qurildi. “Bobur milliy bog'i” va shu bog' qoshida “Bobur va jahon adabiyoti” nomli muzey tashkil etildi.

#### **Mirzo Bobur to'g'risida 6 ta jahonshumul fikr:**

1. Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mumtoz insonlarni dunyoga bergan xalq hech qachon xor bo'lmaydi, muqarrar tarzda saodatga erishadi.

Islom Karimov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

2. Bobur Hindistonga kelgandan keyin katga siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi.

Javaharlal Neru, jamoat arbobi

3. Bobur fe'l-atvoriga ko'ra Sezarga qaraganda sevishga arzigelikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo'yilgan.

eduard Holden, tarixchi olim

4. Mirzo Boburning Hindistondagi qudrati uning bosib erlari bilan emas, u hind xalqining ko'nglida uyg'ota olgan hurmat-ehtirom bilan o'lchanadi.

Qamar Rais, jamoat arbobi va adabiyotshunos



5. Boburning hind xalqiga qilgan eng katta xizmati shuki – u xalqimizning ruhiy-ma’naviy olamini kengaytirib, ularni o’z kulbalaridan tashqariga qarashga, dunyoning naqadar katta ekanini anglashga majbur qildi. Bobur san’at va ayniqsa, adabiyotni sevardi.

Javoharlal Neru, jamoat arbobi

6. Saxovati va mardligi, iste’dodi, ilm-fan, san’atga muhabbat, ularga mashg‘ulligi bilan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta hukmdor topilmaydi.

Uilyam erskin, «Boburnoma»ning ingliz tarjimoni

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni;
2. Karimov I. A. “YUksak ma’naviyat – engilmas kuch” T. “Ma’naviyat” 2015;
3. Karimov I. A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. T: “SHarq” NMK Bosh tahriri -1998;



## TARIX FANIDAN MURAKKAB MAVZULARNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN METODLAR

Narzullayeva Asila Isoqovna  
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani  
15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi  
tarix fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix fanidan murakkab mavzularni o‘qitishda foydalilaniladigan metodlar xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** murakkab, metod, xronokross, xonlik qo’shinlari, yillar, raqamlar...

Hozirgi vaqtida ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo’llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo’llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Tarix darslarida ta’lim metodlarini tanlashda har bir mavzuning darajasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.


O‘quvchilarning dars mashg‘ulotlariga qiziqishini yanada oshirish va murakkab mavzularni o‘qitishda ularni eslab qolishlarini faollashtiradigan, “*Sirli raqamlar*”, “*Jadval*”, “*Mosini toping*”, “*Xronokross*” kabi metodlarni qo’llash va o‘quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash dars samaradorligini oshiradi.



Tarix fanidagi murakkab mavzulardan biri 8-sinf O‘zbekiston tarixidagi “Buxoro xonligida harbiy ish” mavzusi. Chunki bu mavzu shu davr harbiy faoliyatiga oid atamalar, lavozimlar bilan bog‘liq va bularni har birini esda saqlab qolish o‘quvchilarda qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli ushbu mavzuni o‘qitishda “Ko‘rgazmali”, “Jadval” ko‘rinishidagi metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Mavzuni yoritishda sharoitdan kelib chiqib slayd ko‘rinishida ekranda yoki doskada harbiy atamalarni yozib, Buxoro xonligi armiyasini shakllantirish mumkin.

### Xonlik qo’shinining tuzilishi



Tarix fanini yillar, joy va shaxs nomlari, atamalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Albatta barcha yildagi voqealar, tarixiy shaxs va atamalarni eslab qolish o‘quvchilarda qiyinchilik tug‘diradi. Masalan, Ikkinchi Jahon urushi bilan bog‘liq mavzu misolida foydalanilgan “Sirli raqamlar”



metodini ko‘rib chiqamiz.

Bu metod o‘quvchilar xotirasini mustahkamlashda yaxshi samara beradi.



Bugungi kunda o‘quvchilarga o‘rgatishda murakkablik qilayotgan mavzularni “Xronokross” usuli orqali o‘rgatish yaxshi samara beradi.

### XRONOKROSS:

		2		
		0		
	1			
	7			

		2		
		0		
	1			
	7			

1. Qachon Muhammad (s.a.v.) Makkadan Yasrib (Madina) shahriga ko‘chib o’tgan?  
 2. Eron shohi Xusrav I Yamanni istilo qilgan sanani toping.  
 3. Muhammad (s.a.v.) ga qachondan boshlab vahiy kela boshlagan?  
 4. Muqanna qo’zg’oloning boshlanish sanasini bilasizmi?

1. Arab xalifaligiga qachon butunlay barham beriladi?  
 2. Abbosiylar sulolasasi hukmronligi boshlangan yilni toping?  
 3. Ozarbayjondagi Bobek qo’zg’oloni qaysi yili boshlangan?  
 4. Umaviyalar sulolasini ag’darib tashlagan Abu Muslim qo’zg’oloni nechanchi yilda yuz bergen?

### XRONOKROSS:

	6	2	2	
5	7	0		
	6	1	0	
	7	6	9	

	1	2	5	8
7	5	0		
8	1		5	
	7	4	7	



Xullas, o'quvchi – yoshlar qalbida ona Vatanga muhabbat, sadoqat, muqaddas zaminni qadrlash, iftixor, milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirish, tarix bialn muntazam tanishtirib borish har bir tarix fani o'qituvchisining asosiy vazifasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.“Umumta‘lim fanlari metodikasi” jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018.
2. Internet saytlari: -ziyoNet .uz, kitob.uz, multimedya .uz



## 5-SINFLARDA “AVESTO” MAVZUSINI O’RGATISH BO’YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

Rahmonova San’atoy Abdisalomovna

Navoiy viloyati Navoiy shahar  
5-IDUM tarix fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 5-sinflarda “Avesto” mavzusini o’rgatish bo’yicha uslubiy tavsiyalar haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Avesto, Axuramazda, ijobiy, salbiy, tarix, tahlil, qahramon...

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ta’lim sohasini tubdan isloh qilishga juda katta e’tibor qaratildi. Shu yo‘lda ko‘plab qonunlar, qarorlar, nizom va dasturlar hayotga tadbiq etildi. Quyida shunday o‘yin va usullardan bir nechasini tushuntirishni joiz topdim. O‘ylaymanki, bu usul va o‘yinlar tarix darslarida “Avesto” mavzusini tushuntirishda yordam beradi.

**“Moziya nazar” usuli.** Bunda mavzuning tarixi haqida tushuntiriladi.

Eramizning birinchi asrlarida Yaqin sharqda yuzaga kelgan zardushtiylik diniga e’tiqod qiluvchilarining muqaddas kitobi Avesto deb ataladi. Rivoyatga ko‘ra, Avestoning matni ushbu dinning bosh payg’ambari Zardusht tilidan taxminan eramizning III—VII asrlarida uning shogirdlari tomonidan yozib olingan ZARDUSHTIYLIK NIMA?

### «Avesto» haqida.

*Miloddan avvalgi IX—VIII  
asrlarda qadimgi  
Xorazm diyorida ezgulik  
dini – zardushtiylik  
vujudga keldi.*



Zardushtiylik dinining asoschisi Zardusht (Zaratushtra) qachon yashaganligi aniq ma’lum emas. Odatda, eramizdan avvalgi IX va VI asrlar o’rtasida yashagan, deb hisoblashadi. Zardushtilar, ma’bud Ahura Mazda Zardushtga Gotlar deb atalgan hamda 17 madhiyada bayon etilgan vahiy yuborgan, deb ishonadilar. Gotlar zardushtiylikning muqaddas kitoblari to’plami — Avestoga kiritilgan. Zardushtylarning marosimlarida olov asosiy o’rin tutgan. Olovga bag’ishlab ibodatxonalar qurilgan. U yerda otashkadalar bo’lib, ularda doimo muqaddas olov yonib turgan. Uning alangasi ba’zan 2 metrgacha ko’tarilgan. Olovxudoni o’zida mujassamlantirgan. Ibodatxonalarda olovdan boshqa hech narsa bo’lmagan.




**“Yaxshi-yomon” usuli.** Bunda “Avesto”dagi qahramonlar tahlil qilinadi.



Hozirgi o'quvchi uchun Avestoning eng qiziq qismi Gotlardir. Ularda olamning yaratilishi vatuzilishi tamoyillari, uning kelajakdagisi taqdiri bayon etiladi. Gotlar matnini Bibliya bilan qiyoslash ularda umumiy jihatlar ko'pligini ko'rsatdi. Masalan, boshida barcha matnlar payg'ambarga ma'bud Axuramazda tomonidan yuborilgan farishta Voxuman tomonidan berilgachligi haqida hikoya qilinadi. Unda ham, Bibliyadagi kabi, zulmat doimo yovuz kuchlar kirdikorlari bilan bog'lanadi. Hozirgi paytda zardushtiylikka e'tiqod qiluvchilar janubi-g'arbiy Eronda hamda hindistonning g'arbiy qismida saqlanib qolgan.

**“Topqirlar” usuli.** Bunda o'quvchilarga oldindan mavzu haqida ma'lumot to'plab kelish topshiriladi. O'quvchilar topqirligini ko'rsatadi.



Dastlab Avesto o'zlarini «forslarning eng yaxshisi», deb atagan, hayotini shu denga bag'ishlagan bir qism odamlarga mo'ljallab bitilgan edi. Qo'lyozma o'sha davrning so'zlashuv tilida emas, balki deyarli hech kim tushunmaydigan tilda bitilgani shu bilan izohlanadi.

Xullas, yuqorida keltirilgan metodlarni turli xildagi o'yinlar orqali davom ettirish mumkin. Shuni unutmagan holda har bir darsni fanlararo bog'liqlik asosida tashkil etish barchamizning asosiy vazifamizga aylanishi lozim.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. “Umumta'lim fanlari metodikasi” journali, 1-, 2-sonlar, 2018-y
2. Internet saytlari va 5-sinf tarix darsligi.



## TARIX TA'LIMIDA INTEGRATSION YONDASHISH

Raximova Madinabonu Ravilovna

Qiziltepa tumani 11 umumta'lim  
maktabi tarix fani o'qituvchisi

**Kalit so'zlar:** integrallashgan ta'lism, yo'naliish, o'quv fani, fanlararo bog'lanish, integrasiyaning darajalari

Hozirgi zamон ditaktikasi va metodikasida predmetlararo, kurslararo va bir o'quv predmeti ichidagi aloqalarni o'rnatish masalasi ta'limga integratsion yondashishning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Tarixiy bosqichlarga to'plangan bilimlarni o'ziga xos ravishda jamlagan falsafa fanidan keyinchalik, xususan, uyg'onish davrida, insoniyat bilimlarining rivojlangan sharoitida mustaqil fan tarmoqlari ajralib chiqsa boshlagan, natijada fanlarni tabaqa lashtirish jaryoni boshlanib, bu o'z navbatida maktab o'quv predmetlari orasida, shuningdek, olamning predmet va xodisalarning o'rta sidagi mavjud bo'lgan tabiiy dialektik aloqalarni ham buza boshladи.

Bu esa tabiatdagi narsa va hodisalarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro munosabatlari haqidagi o'quvchilar tasavvurini toraytirish sxolastik bilimlarga olib keladi.

Tizimli (sistematik) bilim, tushuncha va dunyoqarash g'oyalarni shakllantirish uchun fanlararo aloqa bog'lash zarur bo'ladi. Fanlararo aloqa bog'lash predmetlari uchun umumiyl bo'lgan faktlar, tushuncha va g'oya, o'qish mehnatining ko'nikma va malakalarini shakllantirish bo'yicha o'rnatilishi kerak.

Shuning uchun har bir maktab (dars) predmetlarining faktik va nazariy materiallarning boshqa predmedlardagi to'g'ri keladigan tomonlarini hisobga olish lozim.

Mamlakatimizdagi uzlusiz ta'limni fan, ishlab chiqarishi hamda jahon ilm-fani va ta'limi bilan integratsyalashuvi ro'y berayotgan hozirgi sharoitda o'qv predmetlariga integratsion yondashish muhim ahamiyat kasb etmoqda.


Darhaqiqat, ta'limda integratsyani amalga oshirish ham iqtisodiy, ham pedagogik, ginetik va fiziologik psixiyatdan muhim ahamiyatga ega.

Integratsion jarayonlar ikki yo'naliishda amalga oshiriladi:

-vertikal integratsiya-bu turli bosqichda o'rganiladigan kurslar mazmuni uzviyligiga amal qilgan holda;

-gorizontal integratsiya predmetlar aro aloqani amalga oshirish, tor mutaxasislik darajasidagi alohida predmetlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni yaxlit profitsional bilim va ko'nikmalar tizimiga aylantiruvchi integratsyalashda iborat.

Tarix ta'limiga integratsion yondashishning qanday usul va vositalari yaxshi samara berish ko'p jixatdan o'qituvchi hamda o'quvchilarning ushbu aloqalardan foydalanishlariga omil bo'ladi dan metodik shart-sharoit yaratuchi quydagi chora-tadbirlar tizimini amalga oshirishga bog'liqdir.



### O'qituvchilarni mazkur ishga tayyorlash:

-tarix kurslari bo'yiga DTS va barcha o'quv-metodik majmualar mazmunini talil etish asosida o'quv materiallaridagi kurslararo bog'lanish imkoniyatlarini aniqlash;

-taqvimiyl-mavzuni rejada kurslararo bog'lanishlarni rejalashtirish;

-o'quvchilarning predmetlar bo'yicha umumiyl o'quv ko'nikmalarini rivojlantirish yuzasidan tarix va unga yaqin bo'lgan predmetlar o'qituvchilar faoliyatini muvofiqlashtirilgan holda olib



borish;

-o‘quv materiallarini o‘tish muddati, tushintirish xarakterining umumiy usullari va uni mustahkamlash metodikasi muvofiq holda yagona talablar tizimi asosida o‘quv faoliyatini yurgizish.

O‘quvchilarni predmetlararo va kurslararo aloqalardan foydalanishlariga zamin bo‘luvchi tadbirlar tizimini qo‘llash;

-o‘quvchilarni oldin o‘zlashtirgan bilimlarini eslatishga o‘rgatish;

-tarixiy bilimlarning turli manbalaridan oson bilimlari bilan umumlash- tirilgan holda qo‘llashni talab qiluvchi predmetlararo va kurslararo muammoli vaziyatni yaratish;

-turli tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘quvchilarning predmetlararo aloqalar va tarix kurslaridan integratsion amaliy topshiriqlarni bajarish bo‘yicha natijalarni baholashda tabaqaqlashtirib yondashish;

-o‘qituvchilarning predmetlararo predmet ichidagi va tarixdan kurslar aloqalar fzasidan umumiy o‘quv va predmet bo‘yicha asosiy ko‘nikmalarini muntazam ravishda shallantirib borish;

Tarixni o‘zaro aloqadorlikda o‘rganishda o‘quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatiga mosligi tamoyiliga asoslanib yangi o‘quv metodik majmualar mazmuni va zaruriy bog‘lanishlarni amalga oshirish.

Fanlararo bog‘lanishlarning umumiy nazariyasi tarixni, huquqshunoslikni, inson va jamiyat fanlarini o‘qitish jarayonida katta amaliy ahamiyatga ega. Bu predmetlar o‘zaro har tomonlama yaqin bo‘lib qolmasdan, ular boshqa predmetlar bilan ham bog‘lanishlarga ega bo‘ladi.

Tarix inson jamiyati hayotining rivojlanishining har xil bosqichlaridagi tomonlarini qarab chiqadi. Shuning uchun tarix kursida faqatgina gumanitar (ijtimoiy) emas, balki tabiiy-matematik sikldagi predmetlar bilan bog‘lanishtirilishi lozim bo‘ladi.

Masalan: «Qadimgi Misr» mavzusida uni bog‘lanishtirish mumkin bo‘lgan predmetlar uslubiy qo‘llanmalarda qo‘iydagicha ko‘satiladi:

Tabiatshunoslik (IV sinf. «Yer quyosh va boshqa osmon jismlari». Kalendar), Geografiya (V sinf. Xarita-yerning, relf formalarining shartli tasviri), Matematika (V sinf. Joydardagi o‘lchash). Tarix. (“Qadimgi Misr”). Tarixiy faktlar tarbiyaviy xususiyatiga ega. Uni shakllantirishda shu bo‘yicha jonli, obrazli tasavvur hosil qilish kerak. Bunda predmetlar aro bog‘lanish yordam beradi. Tarixni ko‘pincha adabiyot va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog‘lanishtirish mumkin.

Fanlararo va kurslararo bog‘lanishlar keng umumiylashtirish uchun imkoniyat ochadi. Shuningdek bunday bog‘lanish ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda hisobga va amalga oshiriladi. Har bir o‘quvchi yillik o‘quv davomida har xil predmetlar mazmuni bo‘yicha bilim to‘plab qo‘ymasdan, o‘quv mehnatining malakasini shakllantiradi.

3. Uslubiy adabiyotlarda predmetlararo bog‘lanishlarni amalga oshirishning asosiy uslublarini qo‘yidagicha ko‘rsatiladi: o‘qituvchi tomonidan avval o‘rganilgan faktlar, tushuncha va g‘oyalarning eslatilishi, oldingi bilimlarga tayanishini talab etuvchi savol va topshiriqlarni qo‘yish; umumiylashtiruvchi jadvallar tuzish, boshqa predmetlarga tegishli bo‘lgan manbalar asosida o‘quvchilar tomonidan axborotlar va bayonotlarining tayyorlanishi, boshqa predmetlar bo‘yicha daftarlardagi yozuvlardan tarix darsida foydalanish.

Shuningdek fanlararo va kurslararo bog‘lanishlarning o‘rnatalishi o‘quvchilarning uzlari tomonidan o‘qituvchi qo‘yan savollar natijasida o‘rnatalish ma’lum darajada samarali chiqadi. U shuningdek esda saqlashning rivojlanishini, bilimni umumiylashtirish, mantiqiy fikrlash kabi tomonlarini ochadi.

Bunday bog‘lanishda didaktik uslub ahamiyatli. Bunda usulubda darslik matnlari va hujjatlar, boshqa predmetlar bo‘yicha ko‘rgazmali qo‘llanmalar, o‘quv kinofilmlar, fragmentlar, matnli va raqamli jadvallar, badiiy hunar asarlarining tasviriy san‘at asarlarining reproduksiyalari, daftar yozuvlari va hokazalarni foydalanish amalga oshiriladi. Bularni qo‘llanishda o‘qituvchining ko‘rsatmalari juda ahamiyatlidir.

Fanlararo va kurslararo aloqalardan muntazam, hamda maqsadga muvofiq foydalanish o‘quvchilar tarixiy bilimlari uzviyligini ta’minlab, tarix predmetining ta’lim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vazifalarni to‘laqonli amalga oshirishga xizmat qiladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1.Musaev U. «Integratsiya ta’lim jarayonini optimallashtirishning muhim prinsipi» X.T.2002. №6 4 bet.



## O‘QUVCHILARDA TARIXIY BILIMLARNI TIZIMLI O‘RGANISHGA O‘RGATISH

Raxmonova Ozoda Hojiqurbanovna  
Qiziltepa tumani 39- AFChO‘IMI tarix fani o‘qituvchisi

**Kalit so‘zlar:** xronologiya, mantiqiy izchilllik, analiz,sintez, yil, asr.

**Annatatsiya.** Maqolada o‘quvchilarda tarixiy hodisalarini izchillikka o‘rganish bo‘yicha tavsiyalar yoritilgan.

Tarixiy hodisalarning izchilllik tartibini aniqlash va ularning vaqtini aniq belgilash - tarixiy jarayonni va uning qonuniyatlarini bilishning zarur shartlaridir. O‘quvchilarda vaqt (zamon) va hodisalarning izchilllik tartibi to‘g‘risida tasavvurlar hosil qilish ularning shaxsiy tajribasiga, ya’ni: kunning uzunligi, yil fasllarining almashinishi, «...dan ilgari va ...dan keyin bo‘lib o‘tgan» hodisalar to‘g‘risidagi tajribalariga tayanadi. O‘quvchilar biror jarayonning avval boshlanib, keyin tugashini, narsa, buyum paydo bo‘lgandan keyin undan foydalанишini va shu kabilarni yaxshi tushunadilar. Ammo o‘qituvchining shaxsiy tajribasi bilan tarixdagi izchilllik tartibi munosabatlari va zamon munosabatlarini bilish o‘rtasida g‘oyat katta tafovut bor. O‘quvechi o‘z tajribasi asosida vaqtning daqiqa, soat, yil, besh yil singari qismlari haqida tasavvurlarga egadir. V sinfda tarix o‘qitish davomida o‘quvchi bir necha yuz yil, bir necha ming yil, hatto bir necha o‘n ming va yuz ming yillarga duch keladi. O‘quvchi vaqtning bunday qismlarini bevosita o‘z tasavvurlarida aks ettira olmaydi.

Tarix o‘qitishning dastlabki paytida xronologiya asosan yodlab olish ob‘ekti bo‘lgani sababli, vaqtini hisoblashda u birdaniga mo‘ljal bo‘la qolmaydi.

Tarixiy jarayonlar, tarixiy voqelikni ilmiy-nazariy jihatdan tizimli tushuntirish umumta’lim maktabida quyi sinflarda boshlanadi. Ijtimoiy -iqtisodiy jarayonlardagi izchilllik tartibini o‘zlashtirish V-VI sinf o‘quvchilar uchun jiddiy qiyinchilik tug‘diradi. V sinf o‘quvchilarida vaqt – vaqt bilan, VI sinf o‘quvchilarida esa bazida go‘yo ular nimani ilgari o‘qishgan bo‘lsa, o‘sha narsa ilgari sodir bo‘lgan, degan tasavvur paydo bo‘ladi.

Tarix fanni o‘rganishda o‘quvchilar tarixiy voqelikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish, tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishslash kompetensiyalarni egallashlari talab etiladi. Bunda, o‘quvchilarda tarixiy voqelikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyaning shakllantirish talab etiladi. Kompetensiyaviy talabni bajarishda o‘qituvchilar xronokrosslardan foydalanish afzalliklari to‘g‘risida yoritmoqchimiz.

Tarix fanida tarixiy voqeа – hodisalar tegishli dalillar bilan asoslanib xronologik raqamlar bilan mustahkamlanadi, davrlar, yillar, asrlar go‘yoki voqia-hodisalarini sodir bo‘lganini tasdiqlaydi. Tarix darslarida davrlar o‘rtasidagi o‘zaro vaqt munosabatlarini aniqlamagan holda faqat ikki tomonlama bog‘lanish (voqeа-sana)gina yodlab olinadigan xronologiyani esda qoldirish qiyin bo‘ladi va buning samarasи yuqori bo‘lmaydi. O‘zaro bog‘langan va bir-biri o‘rtasidagi nisbat aniqlangan xronologik sanalar tizimi o‘quvchining ongida shunday bir asos yaratadiki, bu asos o‘rganilayotgan ma’lumotlarni shu asos ichiga joylashtirish imkonini beradi va tarixiy jarayonning «vaqt negizi» rolini bajaradi. Shu bilan birga, vaqt munosabatlari qanchalik har taraflama aniqlansa (qaysi voqeа bir xil voqealardan keyinroq va boshqa bir voqealardan oldinroq hamda qancha vaqt keyinroq yoki oldinroq yuz berganligi, jarayonning boshlanishi bilan oxiri o‘rtasida qancha vaqt o‘tganligi, yil bilan asrning, asr boshi bilan asr oxirining, voqeа sanasi bilan zamonamizning qanday bog‘lanishi va hokazo), umuman xronologik asos va undagi har bir sana shunchalik ongli va puxtarоq o‘zlashtiriladi. Bora-bora xronologik sanalar o‘quvchilar uchun tarixiy voqialar va jarayonlarning izchilllik tartibi, qancha vaqt davom etganligi va bir vaqtدا sodir bo‘lganligini aniqlash va tekshirish vositasi bo‘lib qoladi.

Tarix fanini o‘qitishda xronologik asos o‘rganib chiqilgan tarixiy voqialarni tizimga solish uchungina emas, balki yangi tarixiy faktlarni yaxshiroq o‘zlashtirish uchun ham xizmat qiladi. Xronologiyani puxta o‘zlashtirish uchun ko‘p martalab takrorlash va xotirani ma’lum darajada ko‘chaytirish zarur. Vaqt munosabatlarini ko‘rsatmali ravishda ifodalash, shu munosabatlarini ongli va puxta o‘zlashtirishga imkon beradi. Chunonchi, xronologik jadval voqialar bilan ularning sanalari o‘rtasidagi ikki tomonlama bog‘lanishlarni va voqialarning izchilllik tartibini makon munosabatlari orqali ifodalaydi; shuningdek, bu jadvalda yil bilan asr o‘rtasidagi asr bilan ming yillik o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ham ifodalash mumkin. Bundan tashqari, turli mamlakatlarga



yoki tarixiy jarayonning turli tomonlariga taalluqli bo‘lgan tarixiy voqialarning bir vaqtida sodir bo‘lishligini ko‘rsatadi. *Tarixiy voqeа-hodisalarни bayon etishda asosiy dalillar ketma-ketlikda va izchillikda bayon qilinadi.* Tarixiy voqialarning izchillik tartibini tushunib olishda faqat xronologiyani bilishga suyanish bilangina cheklanib qolimmaydi.

O‘quvchilar o‘zaro bog‘langan ikkita tarixiy voqia o‘rtasidagi izchillik tartibi munosabatlarini shu voqialarni analiz qilish yo‘li bilan ancha osongina aniqlaydilar: nima va nima sababdan oldin bo‘lganligini -mehnat qurollaridan tosh qurollar oldin ishlatilganmi yoki metall qurollarni, Kolumb sayohati oldin bo‘lganmi yoki Magellan sayohatimi – ana shulurni aniqlab oladilar va asoslab beradilar. O‘quvchilarda tarixiy jarayonlar haqidagi dastlabki tushunchalar ketma-ket keladigan, o‘zaro bog‘langan voqialar va holatlarni qator qilib joylashtirish yo‘li bilan hosil qilinadi. Shu yo‘l bilan ularning ongida voqialarning ketma-ket tartibda joylashgan mavzuiy «zanjirlari» paydo bo‘ladi. Kuzatish va tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar yonma-yon turgan ikki raqam o‘rtasidagi bog‘lanishlarni hatto yaxshi tushunganlari holda ham, butun zanjirni juda qiyinchilik bilan tasavvur etishgan va undagi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan halqalarni tushirib qoldirishgan. VI-VII sinf o‘quvchilarida tarixiy jarayonlar to‘g‘risida bilimlar hosil qilish ikki mustaqil bosqichdan iborat ish olib borishni, ya’ni: jarayonning yonma-yon halqalari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni analiz qilish va keyin ularni sintez qilib, yaxlit bir zanjir hosil qilishni talab etadi.

O‘quvchilar fikrini sintezdan olib, analizning ayrim masalalariga qarataverish va aksincha, analizdan olib sintezga qarataverish o‘quvchilarning fikr yuritishida ko‘zlanadigan muayyan maqsadni buzadi va shu ishning samarasini pasaytiradi.

VI-VII sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyati o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirilishi orqasida ularda xronologik bilimlarni tatbiq eta bilish hamda ma’no bog‘lanishlaridan tarixiy voqialarning vaqtini belgilash va ularning izchillik tartibini aniqlash uchun foydalanish qobiliyatni tez o‘sabordi.



## TARIX FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Samandarova Dilobar Saidovna  
Qiziltepa tumani 39- AFChO‘IMI tarix fani o‘qituvchisi

Bugunki kunda ta’lim samaradorligini oshirishning maqbul yo‘llaridan biri bu darslarni interfaol metodlar orqali tashkil etishdir. Aynan tarix darslarida interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarni tarix faniga bo‘lgan qiziqishlari va qobiliyatlarini yuqori darajaga oshirishimiz mumkin. O‘quvchilar dars jarayonida mustaqil fikrlash, o‘z fikr mulohazalarani erkin bayon qila olish, muammolarni yechimini topish, murakkab vaziyatlardan dadil chiqqa olish va eng asosiysi o‘scha davr nuqtai nazaridan tarixiy tasavvur hosil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘quvchilarga tarix darslarini mukammal va chuqur o‘rgatish orqali tarixiy tafakkur, tarixiy xotira, vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirish va bugunki ta’limning eng katta muammolaridan biri bo‘lgan vatanparvar, komil va o‘tmishdan xulosa chiqarib kelajagini dadil qura oladigan yosh avlodni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Tarix fanini o‘qitishda o‘quvchilarda uchraydigan eng dolzarb muommalar quyidagilar:

1. Ism va joy nomlarini chalkashtirish
2. Raqamlarni eslab qolishning qiyinligi
3. Davrga oid aniq tarixiy tasavvurni shakllantira olmaslik
4. Xaritani tushinmaslik
5. Mustaqil izlanish olib borish
6. Mustaqil fikrlay olish

Ushbu muammolarni AKTdan foydalangan holda interfaol metodlar orqali bartaraf etish mumkin. Masalan, 5-sinflarda “Yurtimiz allomalari” mavzusi guruhlarga bo‘lib uyga o‘qishga beriladi. Darsda videoproyektor orqali yurtimiz allomalari rasmlari slaydlar orqali o‘quvchilarga namoyish etilib “Rasmlar sehri” o‘yini tahkil etiladi. Rasmlar ostida hech qanday izoh yozilmaydi. O‘quvchilarning o‘zlari rasmlarni izohlab beradi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilar allomalarimiz suratlarini eslab qolish va ular haqida bilimlarga ega bo‘ladilar. Bu metod o‘quvchilarni topqirligini va xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

Darsda yangi mavzuni izohlab berishda “Ko‘chma bozor” metodidan foydalinish orqali yaxshi samaradorlikka erishish mumkin. Bu metoddan o‘qituvchi turli xil buyumlarning narxlari yozilgan holda “Ko‘chma bozor” tashkil etadi yoki buyumlarning rasmlari doskaga qadab quyiladi. O‘quvchilar yangi mavzuni guruhlarga bo‘linib o‘rganib keladi va o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob beradilar. Berilgan javobga qarab “Ko‘chma bozor” dan biror buyum xarid qilb oladi. Bu metod darsda o‘quvchilarni faolligini yanada oshirishda, kasbga yo‘naltirishda va boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘lashda samarali hisoblanadi. Bundan tashqari bozor iqtisodiyoti tamoyillarini ahglab yetish imkoniyatini beradi.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun 5-7 sinflarda “Oltin toj o‘yini” metodini qo‘llash yuqori samaradorlik beradi. Bunda o‘qituvchi katta o‘lchamdagи qog’ozga bir necha zinalardan iborat taxt rasmini chizdiradi va rangli zar qog’ozdan “Oltin toj” yasatadi. Ikki guruhdan bittadan o‘quvchi chiqib har bir zinadagi savollarga javob beradi. Qaysi o‘quvchi tezkor va aniq javob berib taxtga yetib borsa, o‘scha o‘quvchi “Oltin toj” sohibi bo‘ladi. Bugunki mavzuni yaxshi o‘zlashtirgani uchun ushbu o‘quvchimiz darsimizning “qiroli” yoki “qirolichasi” ga aylandi deb o‘qituvchi tomonidan e’tirof etiladi va sindf o‘quvchilari tomonidan olqishlanadi. Bu metod o‘quvchilarni fanga bo‘lgan mehrini yanada oshirishga va ruhiyatini ko‘tarishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlardan foydalinish orqali o‘qituvchi darsda o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlik qilish, yo‘nalish berish, boshqarish, nazorat qilish, tahlil qilish va eng asosiysi xolisona baho berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

### Foydalangan adabiyotlar:

- 1.”Ta’lim taraqqiyoti” jurnali. 2018 yil 2-son.
2. O‘Q Tolipov va M. Usmonboyev “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari”. Toshkent .2006 yil



## KARVON YO'LLARIDA JOYLASHGAN SARDOBALAR TARIXI

Sapayev Xo'sinboy  
Urganch davlat universiteti  
Tarix fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada karvon yo'llari chorraxasida joylashgan Malik, Abdullaxon II tomonidan qurilgan Qorovulbozor kabi sardobalar haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Buyuk ipak, sardobalar, savdo yo'li, Malik sardobasi, hovuz, qoq.

O'rta Osiyo hukmdorlari savdo karvonlarining tinchligi, xavfsizligi va ularning bexatar, muntazam qatnovini ta'minlash borasida ham doimiy chora-talbirlar ko'rib borganlar. Shu maqsadda kerakli nuqtalarda, aholi siyrak bo'lgan joylarda karvonsaroynlar, yemakxonalar, barpo qilingan, suv oladigan quduqlar qazilgan, chor atrofi shinam bino shakliga keltirilib qurilgan rabotu-sardobalar tiklangan. Hozirda ham Qizilqum, Mirzacho'l, Malik cho'li sarhadlarida o'tmish arxitekturasining noyob namunalari sanalgan shunday me'moriy obidalar xarobalari ko'plab uchraydi. Ayniqsa, Somoniylar, Qoraxoniylar va G'aznaviylar sulolalari hukmronligi davrida Movarounnahr hududlari jiddiy iqtisodiy va madaniy yuksalish jarayonini boshdan kechirgan davrlarda xalqaro karvon savdosi yurtimiz ijtimoiy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Aynan shu davrlarda karvon yo'llari yoqalarigan sardobalar qurilishiga keng e'tibor qaratilgan. Ushbu tadqiqot ishimizda Buyuk ipak yo'li chorraxalarida joylashgan sardobalarni atroficha taxlil qildik.

Avvalo sardoba so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tsak. "Sardoba" tojikcha so'z bo'lib, suvxona yoki muzxona ma'nosini anglatadi. Sardobalarni tuzilishiga qarab usti yopiq hovuzlar deb atash mumkin. Chunki ular pishiq g'ishtdan doira shaklida ishlangan ichi chuqur va usti gumbazli hovuz bo'lib, cho'l manzarasida huddi ko'chmanchi chorvador aholining o'toviga o'xshab ko'zga tashlanadi. Sardoba hovuzini loyqa bosib, inshootni ishdan chiqarmasligi uchun, sardoba oldiga kattagina suv tindirgich - ochiq hovuz kovlangan. Atrofdan oqib kelgan qor va yomg'ir suvlari avval suv tindirgichda to'planib, undagi loyqa hovuz tubiga cho'kkandan so'ng, toza suv sardobaga quyilgan. Suv tindirgichga chorva mollari kirib qolib suvni ifloslantirmasligi uchun uning atrofi paxsa devor bilan o'ralgan.

Sardobalar sharqda keng tarqalgan suv inshootlaridan bo'lib, ular asosan qadimgi karvon yo'llari bo'ylab qurilgan. Xurosonda bunday suv inshootlari "Obanbor", Ozarbayjonda esa "avdon" nomlari bilan yuritiladi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda O'zbekiston va uning atrofida 44 ta sardoba bo'lib, ularning yigirma to'qqiztasi Qarshi cho'lida, uchtasi Mirzacho'lida, yana uchtasi Toshkent-Farg'ona o'rtasidagi qadimgi savdo yo'lida va bittasi Karmana yaqinida Cho'li Malikda bo'lgan. O'z vaqtida bu sardobalar joylashgan hududlarda ravotlar yoki karvonsaroynlar qad ko'targan. Bular, shubhasiz, cho'llarda bekat-karvonlarning to'xtash joyi vazifasini o'tagan.

Ma'lumki, oqar suvlardan mutlaqo mahrum bo'lgan cho'l va dasht tumanlarda qishki va bahorgi mavsumiy yog'ingarchilik asosiy suv manbai hisoblangan. Cho'llarda atrofi bir muncha balandliklardan iborat chuqurroq joylarga qor va yomg'ir suvlari to'planib, kattagina ko'lmaklar hosil bo'ladi. Bunday ko'lmaklar «qoq» deb ataladi. Qoqlarning suvi chuchuk bo'lib, qadimgan aholi undan cho'ldagi chorva mollari sug"orishda foydalanib kelgan. Qoqlardagi suvni kichikroq hajmdagi chuqurroq joylarga to'plab, intensiv parlanishdan saqlash maqsadida qadimgi irrigatorlar karvon yo'llari bo'ylab cho'llardagi qoqlarga va ba'zan buloqlar ustiga maxsus suv inshootlari qurishgan. Bunday inshootlar «sardoba» nomi bilan mashhurdir.<sup>1</sup>

Sardobalar anchagini murakkab qurilgan. Ular turli xil hajmda bo'ladi. Silindr shaklida yerga o'yib ishlangan sardoba hovuzuning chuqurligi 10-15 m, diametri 12-16 m va devorining qalinligi 1-1,5 metrga boradi. SHunisi ajoyibki, sardobalardagi suvning mazasi ham, rangi ham hech qachon buzilmay, doimo muzdek va toza saqlangan. Chunki sardobalarni loyihalashtirgan qadimgi binokor-irrigatorlar inshootga to'plangan suvning buzilmaslik chorasini juda ustalik bilan hal etishgan.

O'zbekiston hududidan Yog'ochli, Mirza, Malik, Qorovulbozor, Talimarjon kabi bir qator sardobalarning izlari topilgan.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Malik sardobasi XI asrda bino qilingan. Sardoba Malik

1 Muxamedov.A.K., Begmatov.I.A. Suv xo'jaligi va meloratsiyaga kirish. T.: 2014. 32-bet.



-g‘ishtli yerosti sisternasi bo‘lib, O‘zbekistonning Navoiy shahri yerlarida joylashgan. Sardoba XI asrda Rabot Malik karvonsaroyini ta’minalash maqsadida bunyod etilgan. Qurilishidan sardoba 13 metr chuqurlikka ega, diametri 12 metrli yopqichli hovuz ko‘rinishida qurilgan. Gumbazning uchta yorug‘lik oynalari mavjud. Hozirgi vaqtida kirish qismi portal ko‘rinishida saqlanib qolingan.. Portaldan suv tomonga tushish yo‘lida pandus mavjud. Sardoba Zarafshon daryosi suvi orqali yerosti kanali bo‘lmish koriz, ya’ni quduqlar tarmog‘i yuzasiga chiquvchi suv bilan to‘lgan.<sup>1</sup> XVI asrdagi mualliflardan biri Raboti Malik sardobasining suvini makkadagi laziz zamzam suviga qiyoslaydi. Sardoba karvonsaroy kabi yolg‘iz yo‘lovchilar uchun ham, butun boshli karvonlar uchun ham qo‘nalg‘a hisoblangan.<sup>2</sup> Raboti malik sardobasi Raboti Malik karvonsaroyidan 120 metr oraliqda janubiy g‘arb tomonda joylashgan.

Badriddin Kashmiriyning «Ravzatur rizvon va Xadikatul g‘ilmon» nomli tarixiy asarida yozilishicha, XIV asrning 90-yillarida Buxoroning yirik feudal ruhoniylaridan juybor xo‘jalari tomonidan O‘rta Osiyo cho‘llarida karvon yo‘llari bo‘ylab o‘nta sardoba bino qilingan. Sardobalardan, garchi mulkdor feodallar ko‘proq manfaatdor bo‘lgan bo‘lsada, ularni oddiy mehnatkash xalqdan chiqqan mohir irrigator va binokor ustalar bunyod etishgan. Shubhasiz, sardobalar dashtlardagi chorva mollarini va cho‘llar orqali o‘tgan savdo karvonlarini suv bilan ta’minalashda muhim rol o‘ynagan.

XVI asrning ikkinchi yarmida Abdullaxon II tomonidan ko‘plab sardobalar qurilgan. Ular ichida Buxoro viloyati Qorovulbozor tumanidagi Qorovulbozor va Bo‘zachi sardobalari zamon va makon ichida ro‘y bergen voqeа va hodisalar, tabiat o‘zgarishlariga qaramay bizgacha yetib kelgan. Mazkur tarixiy inshoot hali-hamon qad rostlab qadim tariximizdan so‘ylab turuvchi tili-zabonsiz haqiqatdir. Qorovulbozor sardobasi shahar markaziga kiraverishda joylashgan.Uning uchta darvozasi bo‘lib, hovuzining diametri 16 metrdan ko‘proqni tashkil etadi. Gumbazining balandligi esa 6,5 metrga teng. Sardoba devorlarining qalinligi 1,5 metrgacha qilib terilgan. Sardoba darvozalaridan tashqari, suv tushishi uchun mo‘ljallangan maxsus teshiklar va tepasida tuynuklar mavjud. Inshoot pishiq g‘isht bilan ganch qorishmasidan qurilgan. G‘ishtlar ustidan saksovuldan tayyorlangan ko‘mir qatlami to‘shalib, uning ustidan 3 qavat tuya junidan tayyorlangan kigiz, so‘ng pardozlangan 3 qavat mol terisi yopilib, uning ustidan g‘isht terilgan va ganch bilan suvalgan. Bu hol bir necha bor takrorlangan. Bunda saksovul suvni tuzlardan tozalashda filtr vazifasini bajargan bo‘lsa, ganch, pishiq g‘isht va mol terisi suvning yerga ortiqcha shimilib ketishini himoya qilgan.<sup>3</sup>

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Buyuk ipak yo‘li ustida joylashgan mamlakat hukmdorlari savdo karvonlariga qulaylik yaratish maqsadida katta bunyodkorlik ishlarini amalga oshirganlar. Sardobalarining qurilishi ham aynan shu maqsadga xizmat qilib, karvoni ichimlik suvi bilan ta’minalashda muhim ahamiyat kasb etgan. Bu kabi suv to‘planadigan joylarning barpo etilishida shu davr kishilarida o‘ziga xos tajriba to‘plangan.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Geografiya va geografiya ta’limidagi muammolar respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Jizzax. 13-14-aprel 2018-yil.
2. Muxamedov.A.K., Begmatov.I.A. Suv xo‘jaligi va meloratsiyaga kirish. T.: 2014.
3. Internet manbalari.

1 <https://meros.uz/object/sardoba-malik>

2 Geografiya va geografiya ta’limidagi muammolar respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Jizzax. 13-14-aprel 2018-yil. 89-bet.

3 <https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2020/07/27/1234567890-1462720>



## TARIX DARSLARIDA INTERAKTIV TA’LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

**Tursunboyeva Gulnoza Faxriddinovna**  
Toshkent viloyati Ohangaron shahri  
2-IDUM tarix fani oqituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix darslarini interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanib tashkil etishning samaralari haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so’zlar:** Yangicha fikrlash, I. Karimov, pedagogik texnologiyalar, interaktiv o’qitish, interfaol metod, pedagogik mahorat.

Mustaqillik yillarda ta’lim tizimiga ko’plab tushuncha va atamalar, yangicha qarashlar kirib keldi. Bugungi kunda ta’limning zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkillashtirish va takomillashtirish masalalari dolzarb bo’lib qolmoqda. Bizga ma’lumki, pedagogik texnologiyalarning asosini interfaol metodlarga asoslangan yondashuvlar tashkil etadi. Ta’lim tizimida, ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish – ta’lim samaradorligini oshiradigan innovasion usuldir. Yoshlarni yangicha ishlashga va tafakkur yuritishga o’rgatish davr talabi ekanligi birinchi Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan edi.

Zamonaviy metodlar o’qituvchi bilan o’quvchining faol munosabati, bir-birini to’liq tushuntirishga asoslangandir. Ushbu metodlar orqali o’quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi. Interfaol usullarning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1.O’quvchilarni mustaqil, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o’rgatish;
2. Muammoli vaziyatli amaliy va hayotiy topshiriqlarni bajarish;
- 3.Fikrlashga majbur etish;
4. Faollashtirish;
5. O’quvchilarni tashkilotchilik va yo’naltiruvchanlikka undash:

Muallimning interaktiv o’qitish jarayonidagi ishining samarasini bir qancha shartlarga bog’liq:

**Birinchi** – o’quvchi imkoniyatlarining berilgan texnologiya (o’yin, trening, mashq) maqsad va vazifalariga mutanosibligi. Tanlangan texnologiyaning maqsadiga qarab muallim u yoki bu vazifani bajaradi: tashkilotchi-sardor, kommunikator yoki kelishmovchiliklarni bartaraf qiluvchi, fasilitator.

**Ikkinci** – guruh ishtirokidagi o’zaro munosabatlarni hal etishdagi muallimning professional tajribasi. Buning uchun u dialog hamda multilog, ya’ni turkumlashgan dialog san’atini egallagan bo’lishi zarur. Dialog ko’rinishidagi muloqot psixologiyada ahamiyatli hisoblanadi, chunki an’anaviy “sub’ekt-ob’ekt” munosabatiga zid ravishda “sub’ekt-sub’ekt” munosabatlarini ifodalaydi. Dialog doimo har xil fikrlar va ularning ko’rinishlarini, shuningdek, barcha interaktiv o’zaro aloqa qatnashchilarining qo’ylgan muammoni birlgilida muhokama qilishini va yechimini topishini nazarda tutadi. Qatnashchilarning faolligi o’quvchilarning shaxsiyatiga emas, balki o’zaro muloqotga, qo’ylgan vazifaga yo’naltiriladi. Dialogdagina qatnashchilar qo’ylgan masalaga turli nuqtai nazarlar orqali yondashish bilan bir birini o’zaro boyitishadi. Amaliy yoki taqlidiy o’yin yoki vaziyatlar analizi usulini kommunikativ aspektlarning modellashtirilishi jarayoni sifatida ko’rib chiqadigan bo’lsak, u quyidagi xususiyatlar tufayli bor o’quv-rivojlanturuvchi jarayonga yangi sifat olib kiradi:

•o’rgatuvchi o’yin modelidagi sheriklar bilan professional faoliyatning turli funksional bo’g’inlaridagi amaliy o’zaro munosabatlar strukturasini tiklaq;

•ta’lim olayotgan rahbar va mutaxassislarni professional va kommunikativ omilkorlik va uni amaliy ko’llanishi extiyojini qondirishga yaqinlashtirmoq.

- o’rgatuvchi va rivojlanturuvchi ta’sirlar majmui;

Yuqorida xamma sanab o’tilganlar quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

1)mutaxassislarda professional va kommunikativ omilkorlik, uning dinamikasi va real faoliyatdagi o’rni haqida yaxlit tasavvur yaratish;

2)professional psixologik nazariy va amaliy fikrlashni rivojlantirish;

3)bilim ortirish motivasiyasini tashkil etish, shaxsiy psixologik ko’lanma va motivasiyaga sharoit yaratish;



Interaktiv mashg`ulotlar o`tkazilishi jarayonida muallim tinglovchilarining individual uslublari, ma`naviy-axloqiy rivojlanishi va xarakterologik xususiyatlarining saviyasi haqida ma`lumot oladi. Bu unga kerak bo`lganda tinglovchilarни psixologik-pedagogik correksiyalash va ularga psixologik yordam berishni amalga oshirishga imkoniyat tug`diradi. Shunday qilib, tinglovchilar interaktiv texnologiyalar yordamida rahbar va mutaxassislar real professional faoliyatiga mansub bo`lgan sotsial-psixologik va tipik boshqaruv muammolari yechimlarini topishga jalb qilinadilar.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o`quvchilar hamkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish, o`zlashtirishda o`zlarining shaxsiy hissasini qo`sish imkoniyatiga ega bo`ladilar. O`zaro bilimlar, g`oyalilar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo`ladi. Bunday holatlar o`zaro samimiylilikni taminlaydi, yangi bilimlar olish, o`zlashtirishga havas ortadi, shu jarayonda bir-birlarini qo`llab-quvvatlash, o`zaro do`stona munosabatlar vujudga keladi. Buning tarbiyaviy ahamiyati katta. Demak, interfaol darslarni tashkil qilishda o`quv jarayonida yakka tartibda va just bo`lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihibar, rolli o`yinlar, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashdan foydalanish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov “Barkamol avlod yili dasturi” T. 2010 y
2. Ilalov I.N. Tarixiy tadqiqot metodlari va metodologiyasi. Ma’ruzalar matni. Samarkand. 2009.
3. N.Saidahmedov “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya” T-2002 yil.



## TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI MAVZUSINI O’RGANISH YUZASIDAN USLUBIY TAVSIYALAR

**Xoliqova Muattar Abdug`afur qizi**  
Navoiy shahar 20-umumi o`rtalim maktabi  
tarix fani o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Jadid” atamasi, jadidchilik harakati va bu harakatning Turkiston o`lkasidagi namoyandalari tomonidan amalga oshirilgan ishlar va uni o`quvchilarga o`rgatish haqida ma`lumatlar berilgan.

**Kalit so`z:** jadid, ma`rifat, usulijadid, matbuot, muxtoriyat, tibbiyat, din, kimyo, handasa....

Tarix- kelajak oynasi. Yorug` kelajakni barpo etgan daholar hayot yo`lini o`rganish, uni ajdodlarga asl holicha yetkazib berish bugungi kun tarix fani o`qituvchilari zimmasidagi muhim vazifa. Zero, qismati ibratga yo`g`rilgan ma`rifatparvar ajdodlarimizning ibratli ishlari “Xalqqa bilim berish kerak” degan xitoblari bizni o`z ustimizda ishlashga, zimmamizdagい vazifalarga chin dildan yondashishga chorlaydi. “Jadid” atamasi ilk marta Turkiyada Sulton Salim III hukmronligi davrida paydo bo`lib, Avstraliyaga elchi qilib yuborilgan Abubakr Ratib shohga yozgan bildirishnomalarida u yerda ko`rgan idora tizimini “Nizomi jadid” deb tushuntiradi. “Nizomi jadid” tor ma`noda askariy tizimni yevropalashtirishni, keng ma`noda ilm-fan, maorif, sanoat va qishloq xo`jaligini zamonaviylashtirishni ko`zda tutar edi.

Demak, jadidlar yangilik va islohotchilikka intiluvchi, yangilik yaratuvchi, taraqqiyatparvar, Abdulla Avloniy so`zi bilan aytganda “gazeta o`qig`uvchilar”dir. XIX asr oxiri boshlarida Rossiya mustamlakasi hisoblangan O`rta Osiyo, Kavkaz, O`rta Sibir xalqlari orasida boshlangan milliy ko`tarilish, madaniy-ma`rifiy harakat-jadidchilik sifatida namoyon bo`ldi. Turkistonda Ahmad Donish, Furqat, Muqimi, Behbudiy, Fitrat, Tavallo, Abdulla Qodiriy, Ayniy, Cho`lpon, Hoji Muin singari yetuk madaniyat arboblari ko`plab asarlar yaratib, mahalliy aholiga ziyo ulashishni o`z burchlari deb bilishdi. Ularning asarlarida e`tabor berilgan bosh mavzular Vatan, xalq, din, fan, ma`rifat, mustabid tuzumni va mutaasib ruhoniyatni tanqid qilish edi. O`z-o`zidan ko`rinib turibdiki, ma`rifarparvarlar ajdodlarimizning birinchi ahamiyatga olib chiqqan muammolar umuminsoniy ahamiyatga egadir. Turkiston jadidlariga Mahmudxo`ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqa o`nlab milliy ziyorilar rahnamolik qildilar.




“Jadidchilik” deya nom olgan ushbu harakatning dasturi uch g`oyaviy prinsipga asoslanar edi:

Hurniyat – Ozodlik

Musavvat – Tenglik

Adolat – Haqiqat



Turkiston taraqqiyatparvarlari tomonidan birinchi navbatda  
amalga oshirilgan chora-tadbirlar qatorida islam dini  
me`yorlarini, Qur`on oyatlari va hadislarni, shariat  
hukmlarini to`g`ri talqin etish, ta`lim tizimini isloq qilish, uni  
zamon talablariga moslashtirish kabilar bor edi.

Ular dastlab maorifni isloq qilish yo`lidan bordilar. **“Usuli jadid”** maktablari tarmog`i kengayib bordi, ularda diniy ta`limot bilan birga tibbiyat, hikmat, kimyo, nujum, handasa kabi dunyoviy bilimlar o`rgatildi, savod chiqarish tezlashtirildi. M.Behbudiyning “O`z urug`i otini bilmagan, yeti otasini tanimagan qul – manqurtdir” degan so`zlari talabalarni milliy o`zligini anglashga chaqirar edi. Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi soniy”; M.Behbudiyning “Kitobatul- atfol”, “Bolalar maktubi”, “Muxtasar tarixi islam”, “Jug`rofrya”; A.Avloniyning “Adabiyot”, “Birinchi muallim”, “Turkiy guliston”, “Maktab gulistoni” kabi darsliklari milliy maktab va milliy tarbiyani yuqori



saviyaga ko'tarishga xizmat qildi. Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishda ko'rindi.

Ushbu mavzuni o'rgatish uchun qulay usullardan biri “**Infogramma**” usuli. Bunda o'quvchilarga jadidlar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni grafik chizma yoki rasmi ko'rinishda aks ettirib berishlari lozim bo'ladi. Usulni kichik guruhlarga bo'lib tashkil etsa yaxshi samara beradi.

### **1.Yangi usul maktablarni ochish va ko'paytirish**

### **2.Turli ma'rifiy jamiyatlar ochish**

### **3.Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elda o'qitish**

“**Animations xarita**” usuli ham ushbu mavzu uchun mos usuldir. Bu usulda o'quvchilar guruhlari jadidlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar xaritasini chizishadi. Xaritada “Jadid maktabi”, “Teatr”, “Xotin-qizlar maktabi”, “Kutubxona” kabi inshootlar rasmi chizilib, xarita ostida esa, shu maktablar uchun yaratilgan darsliklar nomi, teatrлarda sahnalashtirilgan asarlar nomi ko'rsatiladi.

“**U kim? Bu nima?**” usulini qo'llash orqali o'quvchilarga jadidlarimiz bilan tanishish imkonini beramiz.



Ozodlik, mustaqillik deb atalmish ne'matni bizga hadya etish ilinjida jonidan kechgan ma'rifatparvar jadidlarimiz boshlab bergan yo'l ularning asriy orzusi bugun biz bilan birga. Bu yo'lning cheksiz va boqiy bo'lismiga barchamiz mas'ul ekanimizni unutmasligimiz lozim.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. B.Qosimov.”Milliy uyg'onish”. ”Sharq” 2004
2. Darliklar bo'yicha qo'llannmalar
3. Ziyo.uz



## O’RTA OSIYODA TABIIY-IQTISODIY HUDUDLARNING VUJUDGA KELISHI VA UNUNG GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Yo’Idosheva Mardona

Urganch shahar 18-son  
maktabning tarix fani o’qituvchisi  
+998974578701

**Annotatsiya.** O’rta Osiyo mintaqasida ilk madaniy - xo‘jalik tiplarining vujudga kelishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.

**Kalit so’zlar:** O’rta Osiyo, pleystasion, Ustyurt, mezolit, Qizqal’ a, ashel davri, Uchtut, Soppolli tepe, Bo’stonsoy

O’rta Osiyoning issiq mintaqasida ilk madaniy – xo‘jalik o‘choqlarining vujudga kelishi neolit davriga oidligini isbotlaydigan manbalar olinganligi ma’lum. Ta’kidlash joizki, O’rta Osiyo mintaqasida tabiiy - iqtisodiy hududlarning vujudga kelishi, rivojlanishi geografik xususiyat va tabiiy iqlimga bog’liqligi aholining joylashishida namoyon bo‘gan. Shuning uchun ham, O’rta Osiyo mintaqasining paleogeologik va paleogeografik holati va uning odamzotning kelib joylashishiga imkon beradigan xususiyatini yoritish maqsadga muvofiq. Geologi - geografik adabiyotlarda qayd qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, to‘rtlamchi davrda O’rta Osiyo muzliklar bilan qoplangan<sup>21</sup>. Pleystasion muzliklari taraqqiyoti davrida Farg‘ona, Toshkent vodiysida, Zarafshon vohasining shimoli - g‘arbiy hududi, Ustyurt platosida hamda Qirg‘iziston, Toshkentning tog‘li hududlari ilk ovchilarning yashash makonlar faoliyat olib borib, keyingi tarixiy davrning rivojlanishiga moddiy asos bo‘gan.

O’rta Osiyo mintaqasida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasidan ma’lumki, ilk tosh davri ovchilarining makonlari tog‘, buloq va tog‘ daryolarida joylashgan bo‘ib, geografik xususiyat va ilmiy sharoitga moslashganlar.

Farg‘ona vodiysida tog‘da, Toshkent vodiysidagi tog‘ tizmasida buloq atrofida tekislikka (kulbulloq), qoratog‘ janubiy qiyaligida (ijond - vaush), Ustyurt qal’asi quduqlari atrofi tekisligi (Esen 2,3, Qoraquduq, Churuk-12), janubiy Qozog‘istonda qoratog‘ tizimida (takali 1,2,3) kichik qoratog‘ janubi - g‘arbiy qiyaligida (Burqozig‘on, Tandirqazig‘on makonlari).

Tojikistonda qoratog‘lari yuqori qismida qoratog‘, Turkmaniston hududlarida yangicha, qora tanglar makonlari markaziy Kopetdog‘ etaklarida joylashgan<sup>22</sup>. Yuqorida qayd qilingan hududlarda O’rta tosh va so‘nggi tosh davrlarida ovchilarining mehnat faoliyatlari davom etganligi arxeologik qazishma natijalari ma’lum.

Mezolit davriga kelganda O’rta Osiyo mintaqasida ijtimoiy -iqtisodiy munosabatlarda tub o‘zgarishlar yuz beradi, bu esa Buyuk muzliklar davri yakun topishi bilan izohlanadi. Jamiat bag‘rida xo‘jalikning yangi yo‘nalishlari yuz beradi-ki, bu holat insoniyatning ijodkorlik faoliyatlari bilan bog‘liqdir.

Taqoza etadiki O’rta Osiyo tabiiy - iqtisodiy hududlarda olib borilgan arxeologik qidiruv ishlari natijasida ibridoiy jamoa tuzumining tosh davriga oid manzilgohlar ro‘yhatga olinib, ularda qazishma ishlari natijasida boy moddiy ashyolar olinganligi bois, yaqin va O’rta sharqda eng qadimiy etnik hududlar qatoridan o‘rin olganligi ma’lum.

Tarixiy adabiyotlarda qayd qilingan tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, O’rta Osiyoning Farg‘ona, Toshkent vodiylari ilk tosh davrida tabiiy - iqtisodiy manbalar sifatida odamzotning kelib o‘rganib, ovchilikni olib borganlar. O’rta Osiyo hududining iqlim sharoti va geografik joylashishi jihatidan bir - biridan tubdan farqlanadi. Shunday geografik xususiyatni qayd qilish mumkin.

Farg‘ona vodiysi to‘rt tomonida osmono‘par tog‘lar bilan o‘rab olinganligi munosabati bilan O’rta Osiyoning bosh tarixiy - geografik hududlaridan yumshoq iqlim sharoti bilan ajralib turish xususiyatiga ega bo‘gan.

Shu jihatdan olganda Farg‘ona vodiysining Haydarkan va So‘x qishloqlari atroflari eng qadimgi davrdan tabiiy - iqtisodiy hududlar bo‘ib, odamzotning kelib o‘rnashib, etnik makoni hosil qilishi uchun tayyor holatda bo‘gan. Tabiiy iqlim va geografik muhitning qulayligi osmono‘par tog‘laridagi yopiq holatdagi bor -makonlari atroflari bo‘ganligi munosabati bilan odamzot tomonidan o‘zlashtirilib, ilk etnik makonlar bo‘gan. Shunday makonlardan biri Selung‘ur g‘or makoni Farg‘onada ashel davrida etnik makon bo‘gan. Darhaqiqat, O’rta Osiyoning boshqa



tarixiy - geografik mintaqalarida ashel davriga oid ibtidoiy ovchilarining manzilgohlarida arxeologik izlanishlar olib borilishi munosabati bilan olingan ashayolar tabiiy sharoit va geografik xususiyatlarga ega bo‘gan tabiiy - iqtisodiy hududlarning o‘zlashtirilishi amalga oshirilgan.

Tarixiy - madaniy sarhadlarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalariga ko‘ra, Tosh davrining ashel bosqichida Toshkent viloyatining Angren yaqinidagi Qizilolma soydagи buloq atrofiga odamzot kelib joylashib navbatdagi etnik makonni hosil qilgan. Shuningdek, Zarafshon vodiysining Buxoro va Samarqand hududlarida odamlarning kelib joylashganligi bois, Uchtut va Ijond makonlari ashel davrida etnik makonlarga aylangan. Ibtidoiy ovchilar Tojikistonning Vaxsh vodiysisida Qizqal‘a, Qirg‘izistonning Onarga daryosi sohilida, janubiy Qozog‘istonning Qoratog‘ oldi Bo‘riqazig‘on, Tandirqazig‘on, Turkmanistonning shimoli - g‘arbiy Kaspiy bo‘yi dengizi sharqiy sohili etagiga ulanib ketgan tekislik tabiiy - iqtisodiy manbaga ega bo‘ganligi natijasida, insonlar tomonidan etnik makonlarga aylantirilgan<sup>26</sup>.

Bronza davrida esa Kopettog‘ oldi etaklarida eneolit davri kabilalarining bir guruxi va shixlari Surxon vohasi shimoli -g‘arbiga ko‘chib kelib Sopollitepaga asos solganlar. Sopollitepaliklarning yangi avlodlari ya’ni shimol tomon Sherobod daryoning Bo‘stonsoy irmog‘i etagiga ulangan balandlikka Jarqo‘tonlik shixlarini qad ko‘targanlar.

#### **Foydalanaligan adabiyotlar:**

1. АскаровА. Ўзбекхалқинингэтногенезиваётниктарихи. -Тошкент: “Ўқитувчи”, 2007
2. Аскаров А.А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан (к проблеме протогородской цивилизации на юге Узбекистана). -Ташкент: “ФАН”, 1983.
3. AbdullayevO’ IO’rtasiyodaibtidoiyjamoatuzumivailkdavlatchiliktarixi.- Toshkent: ”Lesson PRESS”, 2019.
4. Аскаров А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. -Ташкент, 1977.



## AMIR TEMURNING MA’NAVIY MEROSSI

**Yusupov Nurbek**  
Bog’ot tumani 7-son maktabning  
tarix fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buyuk bobomiz Amir Temurning manaviy merosini milliy mafkurani yaratish va uni rivojlantirishda, undagi ilm - fan, ijtimoiy -siyosiy, ta’lim -tarbiyaga oid fikrlarni o’zlashtirish va amalga tatbiq qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega ekanligi ayтиб о’tилган.

**Kalit so’zlar:** ta’lim – tarbiya, ma’naviyat, madaniyat, Tuzuki Temuriy, Malfuzoti Temuriy, Voqioti Temuriy.

O’zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta’lim - tarbiya sohasida, milliy qadriyatlarni tiklash, milliy urf-odatlar, an’analardan foydalanish, ularni yanada rivojlantirish sohasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqil davlatimizning jahondagi rivojlangan mamlakatlar qatoridan o’rin olishi uchun uning iqtisodiy qudratini yanada oshirish, XXI asr fan -texnika taraqqiyoti talablariga javob beraoladigan darajada qayta qurish zarur edi. Bunday dolzarb masalani amalga oshirish uchun avlodlarimizning boy ma’naviy merosini, jumladan, ma’naviyat va madaniyatga oid qarashlarini o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun yoshlar nafaqat hozirgi zamon dunyoviy ilmlarini, balki o’tmishta o’tgan buyuk ajdodlarimizning hayoti va faoliyatini ham mukammal bilishlari kerak. Chunki biz o’tmishta tariximizni chuqur bilganimizdagina hozirgi davrimizning qadr - qimmatini yaxshi tushunamiz hamda kelajak uchun to`g’ri yo`nalishga ega bo`lamiz.

Biz yashayotgan zamin qadim - qadimdan madaniyat va ziyo maskani bo`lib, xalqimiz boy madaniy merosiga, yuksak qadriyatlarga ega xalqdir. Buyuk bobomiz Amir Temur, jahonga mashhur mutafakkirlarimiz Muxammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh Muxammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Al-Marg’ioniy, Axmad Yassaviy, Najmuddin Kubro, Abduxoliq G’ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Axmad al-Farg’oniy, Muxammad Tarag’ay Ulug’bek, Zahiriddin Muxammad Bobur, Pahlavon Mahmud va yurtimizda yashab ijod etgan boshqa ko`plab siymolar jahon fani, madaniyati va tsivilizatsiyasiga ulkan hissa qo`shganlar.

Ajdodlarimiz qoldirgan madaniy meroslarda shunday fikrlar borki, ular bugungi kunda ham taraqqiyotimizning o’ziga xos yo’lini belgilashda o’z ahamiyatini yo’qotgan emas. Xalqimiz madaniyatini, milliy mafkurani yaratish va uni rivojlantirishda madaniy merosimiz, undagi ilm - fan, ijtimoiy -siyosiy, ta’lim -tarbiyaga oid fikrlarni o’zlashtirish va amalga tatbiq qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Amir Temur shaxsi, uning ijtimoiy - siyosiy faoliyati, falsafiy qarashlari qariyb besh yildan ziyod jahon olimlarining diqqat markazida bo`lib kelgan. Lekin O’rta Osiyo tarixining Amir Temur bilan bog’liq sahifalarini o’rganish, undan xalqimizni bahramand etish mustaqilligimizdan keyingina boshlandi. O’z davrida madaniyat va ilmning ko`p sohalarini rivojlantirishga hissa qo`shgan, tarixda buyuk insonlarning biri sifatida tan olingan, ulug’ davlat arbobi Amir Temurning dunyoqarashida, davlatni idora qilib, uni boshqarish dasturida maorif va ta’lim -tarbiyaga oid fikrlari ham alohida o’rin tutadi.

Haqiqatdan ham Amir Temur yaratgan «Tuzuki Temuriy» («Temur tuzuklari»), «Malfuzoti Temuriy» («Temurning aytganlari»), yana «Voqioti Temuriy» («Temurning boshidan kechirganlari») deb nomlangan asari faqat tarixiy jihatdan emas, balki falsafiy, ijtimoiy - pedagogik, iqtisodiy, huquqshunoslik, psixologiya, harbiy ilm haqidagi fikrlarga boyligi jihatdan ham alohida ahamiyatga ega. Uning «Tuzuklar»idagi davlatni idora etish nazariyalari, tajribalari, adolatli jamiyat tuzish to`g’risidagi fikrlari, ta’lim - tarbiyaga oid g’oyalaridan o’z davrida va undan keyin ham dunyoning ko`pgina davlat boshliqlari faoliyatlarida samarali foydalanganlar.

Amir Temurning ijtimoiy fikrlari, donishmandligi, tajribalari hozirgi kunda ham uchrayotgan ba’zi muammolarni hal etishda qo’l kelishini yaxshi bilamiz. Buyuk davlat arbobi, ulug’ mutafakkir Amir Temurning ma’rifiy - tarbiyaviy fikrlari o’zi yashagan tarixiy - iqtisodiy va madaniy hayot ta’sirida shakllandi. Shu davrda va undan oldin Movarounnahrda, umuman musulmon Sharqida



yuzaga kelgan islomning tasavvuf falsafasi, shuningdek tabiiy - matematik va gumanitar fanlarining yutuqlari uning dunyoqarashining g'oyaviy asosi bo'ldi. O'zidan oldingi ma'naviy meroslarni chuqur o'zlashtirgan Amir Temurning xudoni, borliqni ijtimoiy hodisalarini tushunishi masalasida tasavvuf ta'lomitining demokratik qoidalari katta ahamiyat kasb etganligi sababli u davlat mafkurasini islom dini asosida olib borishni ma'qul hisobladi. Dinning yoshlarni insonparvarlikka, adolatilikka, halollikka, poklikka undashdagi xizmatiga alohida baho berdi. Sohibqiron barcha narsada xudoning taqdirda yozgani bo'lishiga ishonch bilan qarasa -da, odamlarning o'zлари oldiga qo'yan maqsadlariga tarbiya natijasida shakllantirilgan aqli, bilimi yordamida erisha oladi, deb tushuntirdi. Undagi jahongirlilik, dunyoni egallash g'oyasi katta insonparvarlik tuyg'ulari bilan yuzaga kelgan edi. Chunki Amir Temur er yuzidagi barcha insonlar taqdiriga nazar tashlab, ular o'rtasida tinchlik o'rnatib, barcha ellardaadolatsizlikni yo'q qilish g'oyasini ko'tarib chiqdi. Mamlakatning boshqalar tarafidan parchalanishiga yo'l qo'ymaydigan ijtimoiy nizom -qoida asosida boshqarilishini talab etib huquqiy davlat qurishning o'ziga xos namunasini ko'rsatdi. Ayniqsa, davlatni boshqarish jarayonida ijtimoiy ruxiyatini yaxshi tushunib, buni xalqni, davlatni tinch-totuv boshqarishda mohirlik bilan qo'llashni ta'kidladi.

Davlatni odil boshqarish aql, bilim bilan amalga oshishini bilgan sarkarda insonlar tafakkurining rivojlanishiga, aqliga, odamning ichki ruhiy dunyosini qamrab olgan uning ijodiy imkoniyatlariga chukur ma'no berdi. Inson aqlini o'rabi turgan borliqni bilish vositasi, sultanatni, insonlarni boshqarish ishlarining to'g'ri yo'nalishini amalga oshirishning asosiy manbai deb tushundi. Shu maqsadda u katta-kichik har bir shahar va qishloqda maktab, madrasa ochdi. Yoshlarning bilim olishini ta'minlash yo'lida bilim berish mazmuniga diqqat bilan qaradi. O'quv muassasalarida talabalarga diniy va tabiiy - matematik fanlarni o'rgatishni talab etib, o'qitish uslublarini takomillashtirishni, ilm natijalaridan hayotda foydalanishni amalga oshirdi. Ilmning rivojlanishida turli sohadagi kitoblarning ahamiyati kattaligini nazarda tutib, kitobni donishmandlikning asosi va hayotni o'rgatuvchi, insonni tarbiyalovchi vosita deb baholadi. Komil insonni shakllantirishda bilim bilan tarbiyani o'zaro aloqada deb tushungan Amir Temur mamlakat yoshlarining tarbiyalanib, kamol topishi borasida ham o'z qarashlarini bayon etdi. Davlat kelajagi bo'lgan yoshlarni yuksak axloqiy fazilatlarga ega, insonparvar, jismonan baquvvat, vatanni sevadigan, harbiy bilimga ega, milliy g'urur ruhida tarbiyalangan bo'lishini, tarbiyaning asosiy talablaridan deb bildi.

Uning ma'rifiy - tarbiyaviy fikrlari adolatli, huquqiy davlat fuqarolarining aql -bilimi, axloqi qanday bo'lishi kerakligini kursatib berishni o'z ichiga olar edi. Shunday qilib, Amir Temur o'z zamondagi ijtimoiy - falsafiy va ta'lim - tarbiyaga oid fikrlarni yangi tushunchalar bilan boyitdi.

Yevropa madaniyatini Sharq xalqlari madaniyatiga chog'ishtirib, har ikki tarafning yutuqlarini o'rgandi. Natijada dunyo xalqlarining iqtisodiy va ma'naviy takomilida katta o'ringa ega bo'lgan ma'rifiy -tarbiyaviy qarashlarini o'z ichiga qamrab oluvchi «Temur tsivilizatsiyasi»ni yaratdi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Sattoriy H. Amir Temur sevgan yurt. -T.: O'zbekiston, 1996.-128 b. Sohibqiron saboqlari. -T.: O'qituvchi, 2013.-168 b.
2. Murodov G. Amir Temur abadiyati. -T.: Fan 2012. -39 b.



## TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUV

**Yusupova Shoira Latipovna,  
Norboyeva Dilnoza Hamdamovna**  
Xorazm viloyati Shovot tumani  
38-umumiy o‘rta ta’lim maktabining  
Tarix fani o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Ta‘lim muassasalarida tarix darsini tashkil qilishda innovatsiyon metodlardan foydalanib o‘quvchining diqqat e‘tiborini jalg qilish va bilimini oshirish.

**Kalit so‘zlar:** tarix fanlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, electron, ta’lim resurslari, multimedia, tarixiy bilim.

Hozirgi kunda tarix fanlarini o‘qitishning muhim muammolaridan biri bu - maqsadli ta’lim-tarbiyani yo‘lga qo‘yishdir.

Tarix fanlarini o‘qitishda tarixiy bilim, tushuncha va tasavvurlarni egallash, ularni izohlash, ko‘nikma va malakani shakllantirish orqali o‘quvchilar intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirishni maqsad qilib olinadi. Tarix fanini o‘qitishda quyidagi innovatsion faoliyatga e‘tibor berish tavsiya qilinadi:

Mashg‘ulot vositalari:

Pedagog uchun; O‘quv-metodik qo‘llanma, metodik tavsiya, metodik ishlanma, dars rejası.

O‘quvchi uchun; Darslik, jadvallar, tarqatma materiallar, yo‘l-yo‘riqli texnologik xaritalar, tipik xatolar xaritasi, topshiriq varaqasi, interfaol usullar.

Mashg‘ulot o‘tkazish uchun; Plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual, texnik va real vositalar bo‘lishi mumkin.

Ta’lim muassasalari tizimida tarix fanlarini o‘qitish mazmunini kasbiy soha yo‘nalishlarining mohiyatiga mos shaklda rivojlantirish, ya’ni mablag o‘quvchilarining kasbiy qiziqishidan kelib chiqqan holda qo‘shimcha ma‘lumotlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Tarix fanlarini o‘qitishda tarixiy bilim, tushuncha va tasavvurlarni egallash, ularni izohlash, ko‘nikma va malakani shakllantirish orqali o‘quvchilar intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirishni, ularga kasb-hunarga yo‘naltirilgan bilim berishni ta‘minlash maqsad qilib olingan. Tarix fanlarini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, o‘quvchilarining tanlagan kasbi bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy bilim, tushuncha, tassavvurni yanada rivojlantirish hamda o‘zining sohasiga doir tarixiy bilimlar bilan tanishtirish ularni hayotga va kasbiy faoliyatiga tatbiq etishni o‘rgatishdir.

Darsning texnologik xaritasi. Texnologik xaritada ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyati (o‘quv jarayoni) bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni hamda ularda qo‘llaniladigan vositalar tavsiflanadi. Texnologik xarita o‘quvchilarining mustaqil ishlarini nazorat qilishga yordam beradi.

Texnologik xaritaning tuzilishi va mazmunli ko‘rsatkichlari: O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi uch qatorni o‘z ichiga olib, 1- 1,5-2 varaqda jadval ko‘rinishida bajariladi: (1) o‘quv mashg‘uloti bosqichlari va vaqt; (2) ta’lim beruvchi faoliyati; (3) ta’lim oluvchi faoliyati. 1-bosqich (5-10 daqiqagacha). O‘quv mashg‘ulotiga kirish. Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar harakati. Ta’lim beruvchi mavzuning nomi, (ma‘ruza) rejası bilan, o‘quv mashg‘ulotining xususiyati bilan (muammoli ma‘ruza, o‘rgatuvchili o‘yin va boshqalar.), mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishslash uchun adabiyotlar ro‘yxatini, o‘quv mashg‘ulotida o‘quv ishlarini baholash me‘zonlari bilan tanishtiradi. Ta’lim oluvchilar tinglaydilar, aniqlashtiradilar, savollar beradilar, yozib oladilar.

2-bosqich. Asosiy ma‘lumot beruvchilik. Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar harakati. Ta’lim beruvchi o‘quv mashg‘ulotining rejasi tuzilishga muvoffiq tuzib chiqqan ta’lim modelini amalga oshiradi, ko‘zlanayotgan o‘quv natijalariga erishish bo‘yicha ta’lim oluvchilar o‘quv faoliyatini boshqaradi. Ta’lim oluvchilar ko‘zlanayotgan o‘quv natijalarga erishish bo‘yicha rejalashtirilgan o‘quv harakatini bajaradilar.

3-bosqich. Yakuniy – natijaviy. Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar harakati. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha yakun yasaydi, ta’lim oluvchilar e‘tiborini asosiyalariga qaratadi, bajarilgan ishlarni kelgusi kasbiy ish faoliyatidagi ahamiyatini ma‘lum qiladi, guruuhlar, alohida talabalar ishini baholaydi yoki o‘zaro baholashni yakunini chiqaradi: o‘quv mashg‘uloti maqsadiga erishish darajasini baholaydi; mustaqil ish uchun topshiriq beradi.



O‘quv jarayonining tashkiliy-didaktik vazifasini bajaradi: o‘quv, mustaqil ish uchun savol va topshiriqlarni, uni baholash me‘zonlarini, o‘quv ish jarayonida o‘quvchilar amal qilishi lozim bo‘lgan qoidalar, ta‘lim beruvchi foydalanadigan tayanch yozmalar, shuningdek chizma, jadval, slaydlar va boshqa ko‘rgazmali materiallar, rejalshtirilgan maqsadlarga erishishni nazorat qilish uchun topshiriqlar (testlar, savollar, topshiriqlar va mashqlar). Bu yerda taqdim etilayotgan materiallar chegaralanmaydi. Faqat ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli chizmalarda rasmiylashtirilgan bo‘lishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
2. Lafasov M. Jahon tarixi. (1918-2008). –T.: Turon-iqbol, 2011.
3. Ochilov M. «Yangi pedagogik texnologiyalar» /Qo‘llanma. -Qarshi: Nasaf, 2000.



## ХОРАЗМ МАҚОМЧИЛИК САНЬЯТИ ТАРИХИ

Комилжон Аминов

Иchan-қалъа давлат музей-курикхонаси  
“Хоразм мусика санъати тарихи”  
музейи бўлим мудири  
Эгамова Гулчехра  
музейи илмий ходими

**Аннотация:** Ушбу мақолада Хоразм мақомларининг яралиши ва ижро услублари тарихи ва намоёндалари ҳақида қисқача тўхталиб ўтилган. Хоразм сувораси ва унинг турлари келтириб ўтилган.

**Калит сўзлар:** достон, сувора, халфа, «Наво», «Сегоҳ», «Дугоҳ», Ўзбек Сувораси, Тожик Сувораси.

«Авесто» дунёга келган Хоразм барча даврларда етти иқлим маданиятининг энг илғор гояларини ўзлаштирган ва тараққий қилган юрт эканини олим, С.П.Толстов ўзининг археологик қазишмалари натижасида исботлаб берган. Бу юрт мусиқасининг ранг-баранглиги, охангларининг ва доира усулларининг жозибадорлиги мақом турларининг кенг қирралиги, достон, сувора ва халфа куй қўшиқлари, Хоразмнинг ўзигагина хосдир.

Биринчидан, Хоразм мақомларининг яралиши ва ижро услублари ҳақидаги баҳсларга қулоқ тутмоқ зарур бўлади. Баҳзи маълумотларга қараганда, хоразмлик созанда ва бастакор Ниёзжон Хўжа XIX аср бошларида Бухорога бориб «Шашмақом»ни ўрганиб, Хоразмда уни тарғиб қилгани, Хоразм мақомлари «Шашмақом»нинг ўзгинаси эканлиги айтиб ўтилади.

Иккинчи бир манбаларда Хоразм мақомларининг айrim қисмларидаги парчалар тузилиш жиҳатидан ва характер жиҳатидан бир-биридан фарқ қилиниши айтилади. Қандай бўлмасин, Хоразм мақомлари Мухаммад Раҳимхон Соний - Феруз даврида машхур шоир ва мусиқашунос Комил Хоразмий ва ўғли Мухаммад Расул Мирзо ҳамда шогирдлари томонидан Хоразм олти ярим мақоми «Танбур чизифи»га ноталаштирилганлиги ҳақида аниқ маълумотлар мавжуд.

Хоннинг ўзи ҳам етук шоир, созанда, бастакор, ҳофиз бўлганлиги, қадимий мақом куйлари асосида «Наво», «Сегоҳ», «Дугоҳ»ларга боғлаб куйлар яратгани, у яратган Феруз I, II, III ижролари ҳалқ ичидаги машхур бўлиб кетганлиги айтиб ўтилади. Ҳатто Хоразм мақомларини ҳалқнинг дахлсиз мулки деб эхлон қилиб, мақомларни камситган ёки бузиб ижро этганларни қаттиқ жазолаш ҳақида фармони олий чиқарганлиги аниқ манбалар асосида кўрсатилади.

Хоразм мақомларини ноталаштиришга қатор мусиқашунос олимлар кўл уришган. Мулла Бекжон билан машхур мусиқашунос Матюсиф Девон 1925 йилда Москвада чоп этилган «Хоразм мусикий тарихчаси» асарида Хоразм мақомларининг тузилиши, шакллари, ижро йўллари ҳақида маълумотлар беришган ва айrim нота кўринишлари билан тўлдиришган. Хоразм мақомлари билан таникли мусиқашунос Е.Е. Романовская ҳам шуғулланган бўлиб, шундай ёзади:

«Сўнгги хонлар даврида (XIX аср) Хивада ижро этиб келинган мақомлар ҳам 1934 йилда Ўзбекистон санъатшунослик илмий текшириш институти экспедицияси ёзиб олган мақомлар аслида Бухоро мақомлариdir. Бу мақомларни бундан тахминан 130 йил бурун Ниёзхўжа деган созанда, машшоқ Бухородан Хивага олиб келган».

Бу ҳақда қандай фикрлар айтилмасин, барibir, Хоразм мақомлари ижросида алоҳида услуб ва шаклларга эга бўлган, усул ва ритми жиҳатидан «Шашмақом»дан фарқ қиласиган алоҳида ижро мактабини кузатамиз. Ўз даврида Хоразм ижрочилик мактабининг буюк намоёндалари етишиб чиқдилар. Мухаммад Ёқуб девон, Бобо буломон, Комил Хоразмий, Мухаммад Юсуф Баёний, Қуржи ота, Полли дўзчи, Мухаммад Расул Мирзо, Худойберган Муҳркан, Мухаммад Юсуф Девон-Чокар, Матпано Худойберганов, Мадраҳим Шерозий, Хожихон Болтаев, Комилжон Отаниёзов сингари улуғ санъаткорлар шулар жумласидандир.

Устоз санъаткор Комилжон Отаниёзов шогирдларига “куй бир муқаддас кучки, у ўз-ўзидан яралмайди, инсон эзилганда, шодланганда, ёлғиз қолганда мавж урган уммондан, тоғу-тошларга урилиб майин эсан шамолдан, чўлдаги саробдан ва инсон қалбининг туб-тубидан отилиб чиқади” деб сабоқ берган. Айнан мусиқа асбобларини яратувчи созгарлар



қалбидаги сокинлик йўқолганда мисли вулқон каби отилиб, қалб қўри ва қадоқ қўллар махсули бўлмиш янги мусиқа асбоби яралади. Мусиқа асбоблари қадимда куй билан ҳам оханг равишда яратилган ва такомиллашиб борган. Қадимги мусиқа асбобларини тузилишини биз рассомлар томонидан тасвирланган суратларда, қадимшунослар томонидан топилган асори атиқалардан билишимиш мумкин. XIX асрда Худойберган муҳркан томонидан яратилган мусиқа асбоблари жуда қадрланган. Хозирги кунларимизда созгарлик касби билан Хивалик Юсуф

Матёқубов, Озод Хўжаниёзов, Қодир Салаев каби усталар шуғулланадилар.

Хоразм мақомлари даги айтим ва чертим бўлимларининг бошланиш қисмидаги бир хиллик бунга сабабдир. Хоразм мақомларида Сараҳборларнинг баҳзи тароналари терма ҳолда, авж қўшилиб, йирик шаклдаги ашулага айлантирилган. «Сараҳбори Рост»да учта тарона мавжуд бўлиб, «Тарона», «Сувора», «Нақш» деб номланади.

Сараҳборлар тароналари билан айтилганидан сўнг, талқин шўҳбаларига ўтилади. Улар Талқини Рост, Талқини Бузрук, Талқини Наво, Талқини Сегоҳ деб номланади. Хоразм мақомларида ўн бешта наср йўллари мавжуд бўлиб, «Хоразм мақомлари» китобида саккизта наср шўҳбалари берилади. Улар «Рост» мақомида «Наврўзи сабо», «Бузрук»да Насруллоий, Навода - Фарёд ва Орази Наво, Дугоҳда Чоргоҳ ва Баёт, Сегоҳда - Сабо, Наврўзи Хоро, Насри Ажам деб номланади.

Хоразмда кенг тарқалган айтим ижроларидан бири Сувора йўллари дир. Сувора ибораси тоҷикча отлиқ, чавандоз маъноларини билдиради. Суворалар шакл жиҳатдан мақом шўҳбалари каби йирикдир ва усуллари Соқийнома ёки Уфар дойра усулларида бўлади. Хозирда Сувора йўлларининг турли намуналари кенг тарқалган. Биринчи асосий Катта Сувора «Она Сувора» дейилади ёки «Ўзбек Сувораси» дейилади. Баҳзида «Тожик Сувораси» деб аталади. Асосий суворалар қўйидагилардан иборат:

1. Она Сувора (катта Сувора).
2. Чапандози Сувора.
3. Якпарда Сувора.
4. Кажҳанг Сувора.
5. Қўшпарда Сувора.
6. Беш парда Сувора.
7. Калта Сувора.

Савти Суворалар: Савти Сувора I, II, III, IV, V, VI, VII, VIII, IX, X, XI, XII, XIII, XIV, XV ва ҳоказоларга бўлинади.

Мақомдон устоз Ҳожихон Болтаев савти сувораларни қатор вариантларини яратган. «Уфори савти сувора» I, II ҳамда «Гул уфор савти сувора» йўллари шулар жумласидандир.

Хулоса қилиб айтганда, Шашмақом Хоразм ижрочилик мактаби замирида ўзига хос ўзгариш ва ривожланиш жараёнини касб этди. Чертим йўллари, усуллари ихчамлаштирилди, бастакорлар томонидан қўшимча намуналар киритилди. Хоразм мақомлари ижрочилик нуқтаи-назаридан ўз мустақиллигини сақлаб қолди. Асрлар давомида устоздан шогирдга, авлоддан-авлодга, оғиздан-оғизга ўтиб келаётган Хоразм мақомлари даврлар ўтган сари ўзининг сержило, серқирра кўринишлари билан намоён бўлмокда. Хоразм мақомат санъати ижрочилиги мусиқий маданиятимизнинг ажралмас бўлаги сифатида ҳамиша ардоқланади.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Е.Е.Романовская. Хоразм классик музикаси. «Ўздав/нашр», Тошкент, 19- бет.
2. Дилмурод БОБОЖНОВ, Машариб АБДУЛЛАЕВ. Хоразм амалий санъат усталари. Хива 2010.



## МАҲМУД АЗ-ЗАМАҲШАРИЙ ЕТУК ОЛИМ

Қаландарова Зухра

“Ичан-Қалъа” давлат музей-қўриқхонаси  
“Қадимги Хоразм” бўлими илмий ходими

**Аннотация:** Ушбу мақолада Хоразмлик етук олим Замаҳшарийнинг ҳаёти ва фаолияти, ёзган асарлари қисқача келтириб ўтилган. Ва унинг асарларини тарихий аҳамияти келтириб ўтилган.

**Калит сўзлар:** Ал Муфассал, Асос ул-балоға, Муқаддамат ул-араб, Навобиг ул-калим, араб тили, адабиёт, тарих, география, фалсафа.

Абул Қосим ибн Умар аз-Замаҳшарий 19 март 1075 йили Хоразмнинг Измиқшир қишлоғида туғилган, болалигига варрак учраётганида томдан йиқилиб оёғини синдирган ва бир умирга ногирон (бир оёғи синган эди) бўлиб қолган. Замаҳшарийнинг отаси Умар ибн Аҳмад масжидда имомлик қилган, онаси тақводор ва диндор аёллардан бўлган. Унинг араб грамматикасига бағишиланган “Ал Муфассал” китоби ўзининг даражасига кўра араб олими Сибавваҳнинг китобидан кейин туради. Ҳаётлигига ёки “Бутун олимларнинг устоди”, “Бутун араблар ва ажамнинг (араб бўлмаганлар) устоди”, “Жоруллоҳ-Оллоҳнинг қўшниси”, “Хоразмнинг шарафи” ва бошқа лақаблар билан улуғлашган.

Бошлиғич таълимни ўз қишлоғида олган Маҳмуд кейинчалик Гурганч ва Бухоро мадрасаларида таҳсилни давом қилди. Мадрасани тугатганидан сўнг мустақил мутолаа билан шуғулланди. У ўқиши давомида Абумузар ибн Жарир Заббиё Исфаҳоний, Носир Ҳосирий, Абусаъд Законий, Абулхаттоб ибн Абулбатир сингари ўз замонасининг машҳур олимлари билан яқин мулоқотда бўлди ва улардан таълим олди.

Маҳмуд ҳаттотликни пухта ўзлаштириб олиб одамларга китоблар кўчириб бериб тириклик қилган. Илмга ташналигидан бир жойда ўтирмас эди, доимо изланишда бўлган. У ўзининг ногиронлигига қарамай илм излаб Исфаҳон, Хурросон, Боғдод, Ҳижозда, икки марта Маккада сафарда бўлган. Бир неча йил Ироқ ва Арабистон ярим оролида яшаб, ирик тишлинос олим сифатида “Асос ул-балоға” (“Чечанлик пойдевори”), “Алфоқи фи ғарибиль-ҳадис”), (“Ҳадисдаги нотаниш сўзларни ўзлаштирувчи”) каби ажойиб асарлар яратиб араб тишлинослик фанининг ривожига муносиб ҳисса қўшди. Замаҳшарий ўзининг “Ал-жилоб валамкина валмией” ёки “Китобу асмо ил-адвия вал-жибол”, (“Тоғ, манзил ва сувлар” ёки “Дори-дармон ва тоғларни исмлари китоби”) каби топономик асарларини яратди. Унинг “Муқаддамат ул-араб”, (“Адабиёт муқаддимаси”), “Ал-мустақсо фи амсол ил араб”, (“Араб мақолаларини ниҳоясига етказувчи”), “Навобиг ул-калим”, (“Ҳикматли сўзлар”, “Мақомат аз Замаҳшарий” (“Замаҳшарий мақомлари”), “Атвоқ уз-захаб фил маъвоъиз вал-хутаб” (“Ўгит ва насиҳатларнинг олтин мунҷоқлари”) асари билан адабиётшунослик фанини ривожлантириди. Айниқса, унинг кейинги асари бадиий насрнинг юксак намуналари ҳисобланади. Замаҳшарийнинг арабча девони ҳам бўлиб, лирик, фалсафий шеърлар қасида, фахрия, марсия ва назмий мактублардан иборат.

Замаҳшарий замондоши Абусамад Муҳаммад Саъоний (1179-1229), араб тарихчиси Ёқут Ҳамавий (1179-1229), мисрлик Жалоладдин Кифтий (1167-1248)лар унинг тенги йўқ олим ва ўз замон адилларнинг имоми (пешвоси) бўлганлигини таъкидлайдилар. Замаҳшарий Хоразмшоҳ Отсизга бағишилаб қасидалар ёзган.

Замаҳшарий умри давомида араб тили, адабиёт, тарих, география, фалсафа ва бошқа фанларга доир 80 дан ортиқ асарлар ёзиб қолдирган бўлса-да, бизгача фақат 50 таси етиб келган. Замаҳшарийнинг “Девон ур-расоил” (“Рисолалар тўплами”), “Девону хутаб” (“Хутбалар тўплами”), “Девон ут-тамсил” (“Матал ва мақоллар тўплами”), “Девону таслият из-Зарип”, “Девону рисолат ил-асрор”, “Девону рисолат ин-носиха”, “Девону савоир ил-амсол”, “Девону рисолат ил - маъсала” ва бошқа асарларининг номларинигина биламиз. Унинг бизгача етиб келган бадиий асарларидан бири “Девон аз-Замаҳшарий” бўлиб ушбу девоннинг нодир қўлёзма нусхаси Миср кутубхонасида сақланади. Замаҳшарийнинг Қуръони Карим тафсирига оид “Ал-Кашшоф” асари мусулмон оламида айниқса машҳурдир. Қоҳирадаги дунёга донғи кетган “Ал-Азҳар” диний университетида талабалар Қуръонни “Ал-Кашшоф” асари орқали ўрганадилар. Мусулмон дунёси уламолари Замаҳшарийнинг



“Ал-Кашшоф” асарини “Қуръонни очқичи” деб таърифлашади ва агарда ушбу асар бўлмаганида Куроннинг жуда кўп сирлари очилмаган бўларди деб таърифлашади.

Замаҳшарий ўзининг илмий асарлари, бадиий ижоди билан олим ва шоир сифатида бутун ислом дунёсида шухрат қозонди.

Олим оила ташвишлари ижодга ҳалақит беради, деб дунёдан тоқ ўтган, аммо кўплаб шогирдлари ва асарларини ўз фарзандлариdek билган. Замаҳшарий 1144 йилда 69 ёшида Хоразмда вафот қилди. 1333 йилда Хоразмни зиёрат қилган араб сайёхи Ибн Батута (1304-1377) Замаҳшарийнинг мақбарасини Кўхна Урганч яқинида кўрганини ва унинг устига қубба ўрнатилганини ёзиб қолдирган.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Иброҳим Ҳаққул. Абадият фарзандлари. — Т., 1990.
2. Кайковус. Қобуснома. — Т.: “Мерос”, 1992.
3. Матниёзов М. Хоразм тарихи. — Урганч: “Хоразм”, 2004. 76–б.



## НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДОВ В ТУРКЕСТАНЕ

Олимова Нилуфар Касымовна,  
учитель истории I категории  
Навоийская область, г. Навоий  
ШШУИОП №1

**Аннотация:** Джадиды стремились овладеть достижениями восточной и западной культур, учились и призывали других к тому же побывав за рубежом, просветители сумели разглядеть и сопоставить уровни развития культуры и образования различных стран.

**Ключевые слова:** Джадиды, «Таржимон», школы «усули джадид».

Прогрессивные силы, ставившие целью процветание края, существовали во всех слоях общества — среди ремесленников, дехкан, купцов, собственников и улемов. В широком распространении джадидских идей большая роль принадлежит газете «Таржимон» («Переводчик»). Визиты Исмаила Гаспринского в Ташкент, Самарканд и Бухару в 1893 г. послужили толчком для последующего распространения просветительских идей. В 1893 г в Бухарском эмирата открылась первая новометодная школа. Наряду с изучением опыта крымской интеллигенции в своих просветительских действиях джадиды Средней Азии использовали передовые идеи прогрессивных деятелей других стран. Возраст участников прогрессивного движения в Средней Азии отличался от других представителей данной прослойки. В 1910 году самому молодому из них Абдулхамиду Чулпану было 13 лет. Самому старшему Махмудходже Бехбуди — 36. По своим территориальным особенностям движение джадидов в Средней Азии подразделялось на джадидов Туркестана, Бухары и Хивы. Основа джадидов Туркестана составляла интеллигенция, стоявшая в первых рядах сопротивления против колониальной политики Российской империи. Начиная с 1910 года джадидское движение в Бухаре приняло организованный характер и стало формироваться в качестве политической организации. Джадидизм состоял из двух течений. Правое течение (верховный визирь Исламходжа) объединяло владельцев торгово-промышленных предприятий ханства, а также крупных баев. Его целью было проведение реформ с сохранением в государстве ханского управления. Левое течение (Бобоахун Салимов) включало в себя держателей капитала, ремесленников и представителей прочих слоев. Они стремились достичь политической активности населения путем организации новометодных школ. Распространение просветительства в Туркестане встретило серьезное сопротивление в лице колониального правительства и его чиновников. Но, несмотря на это, джадиды продолжают свою деятельность в театральной, печатной и издательской сферах. В 1898 году Салохиддин домла открывает в Коканде вторую джадидскую школу в Андижане, а Маннон — кори — в Ташкенте, где они вводят новометодные формы образования. В реализации своих идей, выражавшихся в Средней Азии, прогрессивные силы особое значение придавали борьбе с фанатизмом, безразличием и отсталостью. При решении этих задач первостепенное внимание отводилось следующим направлениям: расширению в крае сети новометодных школ, обучению одаренной молодежи за рубежом, созданию различных просветительских обществ и театральных трупп, изданию газет и журналов, построению в Туркестане национального демократического государства путем повышения общественно-политического и культурного сознания народа. Новометодные школы служили не только ускоренному и легкому овладению грамотой, но и формированию нового мировоззрения, свободного от фанатизма и консерватизма.

Джадиды стремились овладеть достижениями восточной и западной культур, учились и призывали других к тому же. Побывав за рубежом, просветители сумели разглядеть и сопоставить уровни развития культуры и образования различных стран. И у проницательной молодежи появилось намерение внедрить в Туркестане достижения мирового прогресса. В результате, на первом этапе. Перед джадидами всталая задача реформирования образования.

В образовательном процессе новометодных школ за образец был принят европейский стандарт. Наряду с обучением основам арифметики, истории, географии, природоведения, большое внимание уделялось преподаванию основ ислама. Важным также был и вопрос создания новых учебников. В первое время во многих новометодных школах Туркестана



использовались учебники и пособия, изданные в Казане и Оренбурге.

Централми джадидского движения стали города Ташкент, Бухара, Самарканд, Андикан, Коканд и Хива. Открытые в этих городах общества и объединения культурно — просветительского направления привели к широкому распространению джадидизма в Туркестане.

В своих изданиях джадиды информировали о событиях, происходивших в мире на территории Туркестана. Этими действиями они демонстрировали содержание своих идей и необходимость их широкого распространения. Просветители раскрыли значение новометодных школ в Средней Азии можно было буквально пересчитать по пальцам, то к 1911 году их количество достигло 63, число обучающихся составило 4106. В 1910 году только в Ташкенте насчитывалось 24 джадидских школ, где обучались 1740 детей, а к 1917 году в крае уже существовало около 100 новометодных школ. Во взглядах просветителей отдельное место занимали вопросы обучения женщин. Они утверждали, что никоим образом не препятствуют женщинам постигать исламское учение. Подчеркивая, что изучение веры является долгом каждого мужчины и женщины, джадиды выступали сторонниками совместного обучения девочек и мальчиков.

Хотя основная деятельность видных представителей джадидского движения начиналась с просветительства, их идеиное влияние на массы играет важную роль при становлении национально-освободительного движения народов Туркестана.

**Литература:**

1. Касимов, Б. «Миллий Уйгониши». Ташкент. 1997.
2. Имамназаров, М. «Миллий маънавиятимизнинг такомил боскичлари». Т., «Иктисад молия», 2008.

# **“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”**

**(3-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шоҳруд Фармонович

**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович

**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000